

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH
MARKAZI ANDIJON FILIALI

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi Andijon
filiali direktor o‘rinbosari
D. Gapparova



“ Sud tibbiyot ekspertiza laboratoriya loharanti“

(Malaka oshirish guruxlari uchun)

MA‘RUZA MATNLAR TO‘PLAMI

Uslubiy kengashda ko‘rib chiqildi
va ma‘qullandi

“ 6 ” *yana*

2.1.O'quv moduliga ajratilgan soat 2	O'zbekiston Respublikasida Sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari.
---	--

Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli

Vaqt 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sud tibbiyot fanining tarixi 2. Sud tibbiyoti fani, vazifalari va ahamiyati 3. Rossiyada sud tibbiyotini rivojlanishi tarixi 4. XIX asrda sud tibbiyot soxasi bosqichlari 5. Ibn Sinoning asarlarida shaxsni identifikatsiya qilish masalalari
<p>O'quv mashg'uloti maqsadi:</p> <p>1.Ta'limiy : Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p>2.Tarbiyaviy maqsadi Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatini natijalari:
<p>O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari. Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalari. O'zbekiston Respublikasida sud tibbiyoti va sud tibbiy ekspertizaning rivojlanish tarixi. Sud tibbiyotining biologiya, huquqshunoslik fanlari va tibbiyotning boshqa sohalari bilan bog'liqligi. Sud tibbiyoti fani va bu soha muammolari. Sud tibbiyotining prinsiplari. Sud tibbiyotining ma'naviy hamda ma'rifiy ahamiyati.</p>	<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslarini • Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalarini • Sud tibbiyotining prinsiplarini • Aholiga tibbiy profilaktik yordam sifatini oshirishni • Huquq,qonun, kodeksini bilishi lozim • Huquq turlari. Jinoiy huquq haqida tushunchani

	<ul style="list-style-type: none"> • Sud tibbiy ekspertiza turlarini Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni
O'qitish metodlari	“Aqliy hujum “”Mozaika” usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	<p style="text-align: center;">Tashkiliy qism</p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan “Ma'ruza o'qish” usulida tushuntiriladi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar.</p>

<p>20-25 daq 2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40. 3.O‘qitishning noan’anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</p>	<p>Tinglovchilarga “Aqliy hujum” usuli. “tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar”Mozaika” usuli bo’yicha tinglovchilar tomonidan to‘ldiriladi</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag’batlantirilib, baxolar e’lon qilinadi . Uyga vazifa: O‘zbekiston Respublikasida Sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari mavzuni o‘qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1. “Sud ekspertizasi”, A.SH.Baratov, R.K. Abdullayev, B.X.Xamidov Toshkent – 2025 y.</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

O‘zbekiston Respublikasida Sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari.

Dars rejasi:

1. Sud tibbiyot fanining tarixi
2. Sud tibbiyoti fani, vazifalari va ahamiyati
3. Rossiyada sud tibbiyotini rivojlanishi tarixi
4. XIX asrda sud tibbiyot soxasi bosqichlari
5. Ibn Sinoning asarlarida shaxsni identifikatsiya kilish masalalari

Sud tibbiyoti bu ximik, fizik, biologik, tibbiyot bilimlari majmuasi bo‘lib, ular qullanadigan usullar orqali odil sudlov, xuquqshunoslik organlariga yordam yetkazish uchun qullaniladigan fan. Ushbu fan Uzbekiston jinoiy protsessual xuquq fani bilan uzviy bog‘likdir. Sud tibbiyoti nomi «Med. forensis» birinchi bo‘lib

1690 yili nemis olimi Iogan Bon tomonidan tavsiya etilgan. Ammo Angliya va Britaniya xamdo'stlik mamlakatlarida mazkur fan ya'ni «tibbiyot xuquqshunoslik» nomi bilan keng tarqalgan edi. Rossiyada va boshqa mamlakatlarda esa bu fan boshqa nomlar bilan masalan, «sud xakimlik ilmi», «sud tibbiyot ilmi», «tibbiyot kriminalistikasi» deb yuritilib kelingan. Sud tibbiyot fani asosan tibbiyot fanidan biri bo'lib, u umumtibbiyot soxalari, yutuqlari va usullaridan foydalanilib, ular bilan xamkorlikda o'z tajribalari va izlanishlari orqali tibbiyotning qolgan barcha soxalarini boyitadi. Chunki u o'z amaliy ishlarida uziga xos usullarni, masalan, volida va validiyalik (otalik va onalik); dog'da kon mavjudligi, uni irsiyatini, ya'ni dog'dagi konni odam yoki xayvonga mansubligini aniqlash, uq otilgan yaralarni kirish va chiqish teshiklarini aniqlash; uk uzilgan masofani aniqlash usullari va boshqalar shular jumlasidandir. Mazkur sud tibbiyot fani ishlab chiqargan usullardan tibbiyotning boshqa soxalari foydalanishi mumkin.

Sud tibbiyot fani qonunlar majmuasiga muvofiq eng avvalo fuqarolarning jismoniy daxilsizligi moddasiga tegishli, xamda ularni xuquq va burchlarini aniqlovchi fuqarolar kodeksi moddalariga tegishli tibbiyot ma'lumotlarini ishlab chiqadi. Sud tibbiyot fanini mazmunini tashkil qiluvchi izlanishlar va materiallar ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismda sud tibbiyot fani tibbiyotning boshqa soxalari bo'lgan patologik anatomiya bilan murdalarni tekshirishda, farmakologiya va toksikologiya bilan zaxarlanishni o'rganishda, klinika bilan-shaxslarni tibbiy guvovlikdan o'tkazishda, gematologiya, spermatologiya, immunologiya bilan daliliy ashyolarni tekshirishda uzviy bog'likdir. Ikkinchi qismning mazmuni qonunlar majmuasi moddalariga muvofiq bo'lgan, asosan biologik ta'rifdagi tibbiy ma'lumotlarni chuqur taxlilidan iboratdir. Shuni aloxida qayd qilish kerakki, sud tibbiyot fani o'zini tarixiy rivojlanishining xamma bosqichlarida uzi xizmat kilib kolgan sinfiy mazmunga ega bo'lgan davlat xuquq sistemasi bilan juda yakindan bog'lik bo'lgan. Sud tibbiyot fanining ta'rifi xam shundan kelib chikadi. Ya'ni yo'qorida aytilgandek, sud tibbiyot fani tibbiyotning bir bo'limi bo'lib, fuqarolarning jismoniy daxilsizligi va ularning davlatda xuquq va burchlari haqidagi xuquq nomlariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan. Sud tibbiyoti uzining asosiy vazifalaridan, ya'ni xuquq shunoslik organlariga yordam berishdan tashqari sog'likni saklash ishlarini sifatini oshirish, kasallikni oldini olish, tibbiyot profilaktikasi uchun zarur bulgan ilmiy-amaliy tekshiish vazifalarini xam ko'zlaydi. Mazkur vazifalarni ijro etish uchun sud tibbiyot amaliy ishlari sud tibbiyot vokyalari, klinik anatomik konferensiyalarida muxokama qilinadi. Klinik va patologoanatomik diagnozlarni keskin farqlanishida sog'likni saqlash organlariga o'z vaqtida yetkazish, tasodifiy o'lganlar, transport xodisalari, maishiy va sanoat zaxarlanishlarni va ularni oldini olish uchun taxlil qilish xamda tibbiyot muassasalarida profilaktika nuqtai nazaridan davolash ishlari buyicha mavjud bo'lgan nuqsonlarni o'z vaqtida ruyobga chiqarishga kumaklashadi. Sud tibbiyotni amaliy qullanishi, ya'ni sud tibbiyot ekspertizasi asosan ichki ishlar vazirligiga, adliyaga, xarbiy tribunalga prokuraturaga xamda

sogʻlikni saqlashga xizmat qiladi va tibbiyotning barcha soxalarining yutuqlari sud tibbiyot ekspertizasining negizi boʻlganligi uchun u sogʻlikni saqlash vazirligi tarkibiga kiradi. Faqat sogʻlikni saqlash sistemasi tibbiyoti barcha soxasidagi minglab yirik mutaxassislar bilan, yirik maʼmuriy tarmoqlari bilan, ilmiy-amaliy, ilmiy tekshirish va oliy uquv muassasalari bilan maʼmuriyatni, prokuratura va sudni tibbiy talabini qondira oladi. Shunday qilib, sud tibbiyoti ekspertisasi oʻz ishini moxiyati bilan uzining asosiy negizi boʻlgan umumiy tibbiyot bilan, tashkiliy jihatdan-sogʻlikni saqlash sistemasi bilan, amalda qullanilishi va vazifasi bilan esa eng avvalo Oʻzbekiston Respublikasi maʼmuriyati va sud bilan chambarchas bogʻliqdir. Sud tibbiyotining qisqacha tarixi. Chet el sud tibbiyotining vujudga kelishi kadim zamonlarga borib taqaladi. Maʼmuriy sud amaliyotida maxsus tibbiy soxasi buyicha yaxshi maʼlumotga ega boʻlgan, bilimdon shaxslar tibbiy ishlarini koʻrib chiqishganlar. Mazkur xatti-xarakatlar, yaʼni sud tibbiyot ekspertiza faoliyatini tergov va sud jarayonida foydalanish qadimgi Rim, Yunon, Xitoy, Xindiston mamlakatlarida ruy berganligini kurishimiz mumkin. Masalan, kadimgi Rimda eramizdan oldingi 44 yili saroy xakim-tabibi Antisti, Yuliy Sezarʼ murdasini tekshirib uning badanida 28ta jaroxati borligini aniqlab, ulardan faqat bittasi koʻkrak kafasini sanchib kirgan yara oʻlim sababi boʻla oladi deb xulosaga keladi. Shuni xam taʼkidlash mumkinki Gippokrat tomonidan 460 yil eramizdan burun tugʻilgan kashf etilgan abort, xomiladorlik vaqtinifaniqlash vaqtidan ilgari tugʻilgan chaqaloqlarni xayotga qobiliyatligini aniqlash, jaroxatlarni ogʻirlik darajaslari, bosh suyagini yorilgan va singanligini aniqlash usullari ekspertiza oʻtkazilishida katta xamiyatga ega boʻlgan. Eramizdan burun 448 yil Rimda 12 ishlab chiqarilgan jadvallardan xakimlar sud tibbiyoti xulosalari tuzishda foydalangan. Usha zamonlar oʻldirilgan shaxslar murdalarni koʻrishga, chaqaloqlarni «konuniy» tugilganligini aniqlashga xakimlarni taklif qilganlar. Rim xuquqiga tartib va toʻplam beruvchi mashhur Yustitsina kodeksi xakimlarni sud jarayonidagi muxim ahamiyatga ega ekanligini tugʻrisida farmon bor. Unda shunday deyiladi: «xakimlar guvox emaslar, ular guvoxlardan xam xatto kozilardan xam yoʻqoridirlar». XIU asrda Fransiya shaxri Monpoleda birinchi boʻlib murdani yorishga ruxsat berilgan. Shu asrning oʻzida Parij sudida qirol jarroxi ishtiroki haqida eslatma beradi. 1532 yilda Germaniyada Karl Uning oʻlimga olib keluvchi jaroxatlari, gudak oʻldirish, bola tushirish, zaxarlanish haqidagi ishlarni koʻrib chikish, tibbiy xatoliklarni topish uchun, yaʼni ekspertiza uchun xakimlarni taklif qilish sudlarni burchi ekanligini mustaxkamlovchi jinsiy qonunlar tuplami chiqadi. «Karolina» feodal tibbiy ekspertizasini tashkil qiluvchi dalolat deb xisoblanadi. Pare, Fedelisa va Zakxiasa asarlari sud tibbiyot fanining rivojlanishiga asos boʻladilar. XUP asrning boshlarida Yevropada, masalan Germaniya va Fransiya sud tibbiyoti aloxida fan sifatida talabalarga uqitiladi. 1640 yili va 1687 yillari ikki nemis olimlari Mixailis va Bon Leypsig dorulfununida gʻayri tabiiy oʻlimlarni aniqlash usullari mavzuida talabalar uchun leksiyalar oʻqilganlar. Ammo xaqiqiy sud tibbiyot ekspertisasi XUSh asrning boshlariga tugʻri keladi. Rus xuquqshunosligi tibbiyot xulosalarini sudda dalil sifatida ishlatish zarur deb koʻrsatganlaridan biri boʻlib xisoblanadi. Sud tibbiyoti oʻziga xos boʻlgan yul bilan rivojlanadi. XU1-XUP asrlarida tibbiyot xodimlariga aloxida xuquqqa tegishli

savollar bilan murojat qilar edilar. XUSH asr boshlari rus xalqining xukumatini tuzishga sabab bo'lgan Petr I ning isloxati bilan ta'riflanadi. 1716 yilda xarbiy ustav chiqadi. Mazkur ustavnin 154 artikulida ko'rsatilishicha, agar o'lim urishdan keyin sodir bo'lgan bo'lsa, o'limni aniq sababini topish talab qilinadi. Bu Rossiyada birinchi konun chiqaruvchi xujjat bo'lib, u xakimlarni masalalarini yechishga undovchi farmoish bo'lib qoldi.

Rossiyada sud tibbiyotini rivojlanishi 5 davrga b'linadi:

Birinchi davri Rossiyada sud tibbiyotini paydo bo'lishi va uni Petr I xukumronligigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Mazkur davr kadimgi zamondan boshlanib kelgan va xuquqshunoslik talabalarini ko'ndirib kelgan. Oleg 911 i. va Igor 945 i. knyazligi davrida, grek va rus shartnomasi bo'yicha jaroxat yetkazish, kaltaklash jazolikka tortilgan edi. «Rus xaqiqati» degan tuplamda IX-XIII asrlari tan shikastlik jaroxat yetkazish tug'risida mufassal, tula –tukis ma'lumotlar keltiriladi. Shaxs daxilsizligini buzish, kishi xayoti uchun taxovuzliklari ularni darajasidan bog'likligi ko'rsatilgan. Ikkinchi xuquqiy tuplam bu «o'rnatilgan Dvinlik yorlig'i» degan xujjatdir 1397. Bunda xam shaxs daxilsizligiga karshi xuquq buzarlikka e'tibor berilgan. Yara va momatolok yetkazish uchun jazolikka tortiladi.

Jabirdiydalarning tibbiyot kurigidan o'tkazishni guvoxlantirish faqat chet eldan kelgan saroy xakimlari o'tkazar edilar. Mazkur guvoxlantirishni podshoning uzi maxsus farmoni bilan o'tkazar edi. Birinchi bo'lib, 1537 yili saroy xakimi fiofiliy knyaz Andrey ni ko'rikdan o'tkazadi. Upodshox buyrugini, men kasal deb, etmay Uglich shaxridan Moskvaga kelmagan. Ikkin-chi voqea XV asrning oxirida ruy bergan edi. Uning sbabai Krim podshozodasi Murod Greyning tasodifiy o'limidir. Arap degan xakim murdani ko'rikdan o'tkazib, zaxarlangan deb aytadi. Ayrim ma'lumotlarga karaganda guyo bu notug'ri xulosa. Uchinchi vokea 1671 yilda ruy bergan. Xakim Bomalius Ivan Grozniy murdasini ko'rikdan o'tkazib zaxarlanish natijasida ulgan deb aytadi. 1620 yili “apteka farmoishi” tashkil topadi. Bundan tibbiy ekspertizaga oid xujjatlar chikib turar edi. Bundan tashqari, shaxsiy ekspertiza xam o'tkazar edi. Unda faqat podshoga murojat qilishga tug'ri kelar edi. “Apteka farmoishi”ga qaratilgan xakimlar kishilarni ko'rikdan o'tkazar edi. “Apteka farmoishi”ning tashkil topganidan uch yil utgandan keyin ya'ni 1623 yili podsho Mixail Fedarovich kayligi-Mariya Xlopova “Apteka farmoishi”ning xakimi Balzir tomonidan (ikki saroy xakimlari-Valentin Bals Artur Din ishtirokida) ko'rikdan o'tkaziladi. Ekspertiza guvoxligidan o'tish masadi Mariya Xlopovani sog'liginifaniqlash edi, chunki uni tug'risida knyaz Saltikov nikoxlikni xoxlamaganligi tufayli podshoga borib Mariya Xlopova tutqanoq kasalligi bilan xastalangan deb aytadi. Tekshirish natijasidafanianqlandiki, uni xech kandy kasali yo'q. Xlopova Mariya sog'lom qiz deb xujjat tuziladi. “Apteka farmoishi” bo'yicha

murdalar xam ko'rikdan o'tkazib turar edi, masalan, 1700 yili boyarin Saltikovni tekshirganda uni xizmatkori Kamenev tomonidan zaxarlangan debaniklandi.

Ikkinchi davri XUSH asrni o'z ichiga oladi va bu davr feodal dvoryan davri deb ataladi. Yoki uni Petr 1chi davri deb xam aytiladi. Mazkur davr birinchi, xaqiqiy xujjatli sud tibbiyot ekspertizasini utkazilishi bilan ta'riflanadi. Xarbiy ustav buyicha rasmiy ravishda sud tibbiyot ekspertisasi o'tkazilar edi. Mazkur ustavni 154 moddasi (artikuli)da zurlik bilan o'ldirilgan shaxslarni murdalari yoki zurlashda gumonsiragan murdalarni tekshirish uchun xakimni chaqirish kerak. U murdani albatta yorib, o'lim sababinianiqlash darkor va uni tug'ri yozish uchun xakim kasamiyod etsin deb takidlab o'tgan.

Petr 1ning tibbiyot tekshirishiga katta ahamiyat berilganligi, konunga xamma bir xil rioya qilishi tug'risidagi talabchanligi quyidagi misoldan kurish mumkin: U Kronshtatda safarda bulgan paytida uni opasi Yekatirina Alekseevna 1718 yili may oyida tasodifan o'lib qolgan. Ober komendant, nima qilishini bilmay petr 1ga darrov xat yuboradi. Unda nima kilishni suraydi. Petr 1chi juda xam daxshatli javob yozib komendatni xayajonda koldiradi. Javobni mazmuni shundan iboratki konun qoida qulingizda bula turib nima uchun kechikib turibsiz. Demak konun, kim bo'lishiga karamay, o'z vaqtida ijro etilishi lozim.

Pyotr-1ning xarbiy ustavining 167-moddasida jinoi jinsiy aloqalar tug'risida yozilgan. Uni mazmuni shundan iboratki kimda-kim o'z mamlakat mintaqasida yoki boshqa, begona mamlakat xududida xox kampir, xox eri bor, eri yuk beva, xox balogatga yetgan yoki balog'atga yetmagan qiz bolani nomusiga tegib zurlik bilan jinsiy aloqa qilsa kallasini tanasidan judo etilsin deb yozilgan.

Murdalarni yorib tekshirish uchun va jaroxatlanganlarni kurikdan o'tkazish maksadida Moskva, Sank-Peterburg, Rigalarda. 1733 yil shtatd fiziklar lavozimi kiritilgan edi. 1737 yili esa 56 ta katta shaxarlarda shaxar xakimlari dorulfununi tashkil topdi. ularning zimmalarida kasl ko'rishdan tashqari sud tibbiyot ekspertizasining tashkil topishini ko'ramiz.

Rus sud tibbiyot tarixining 3 davri kapitalizmning sanoat rivojlanishi davri deb ataladi. Mazkur davrga XIX asrning birinchi yarimi kiradi. Tibbiyot boshqormalari 1803 yildan boshlab ichki ishlar Departamentiga kiradi. Uni xuzurida tibbiyot kengashi tashkil topadi. 1823 yildan boshlab tibbiyot kengashining qoshida 4 amaliy tibbiyot lavozimi kuzatilgan. Ular tibbiy yordam ishlari bilan birgalikda sud tibbiyotiga oid ishlarni xam olib borishlari lozim edi.

XIX asrda sud tibbiyot soxasi uch pog'onaga, bosqichdan iborat bo'lgan: birinchi bosqich –joylardagi uezd va shaxar xakimlari, ikkinchi bosqich – xakimlar boshqarmasi va uchinchi bosqichi eng yukori pogona – bu xakimlar kengashidir.

XIX asrning birinchi yarimida sud tibbiyot soxasida kamchiliklar mavjud bo'lgan. U xam bo'lsa ichki departamentni Kochubeining 1808 yili chiqargan qarori bilan bog'lik. Mazkur qarorga asoslanib osib o'ldirilgan, uzi osilib o'lgan, kesilib, sanchilib, chopilib o'ldirilgan, o'k otib uldirilgan va boshqa shunga uxshash

shaxslar murdalarni kurmasdan berish mumkin deb ko'rsatilgan. Bu xolat sud tibbiyot xizmatini tanozllikka olib keladi.

1827 yil «Sud tibbiyot jixatidan murdani ko'rikdan o'tkazish va yorish tug'risidagi xakimlar risolasi» chop etildi. Ushbu risola 1829 yili butun ue'zd, shaxar va xakimlar boshqarmalari buyi tarkatildi.

Mazkur risolani tuzish uchun atoqli tibbiy xirurgik akademiyasining professorlari, xakimlar kengashining a'zolari I.V.Buyalskiy., A.S.Gromov., A.P.Nalyubovlar ishtirok etganlar. Risolaning nizomi uz ichida barcha sud tibbiyotiga tegishli murda tekshirish savollarini kamrab olgan.

Risolani tuzishdan burun, 1824 yili I.V.Buyalskiy murdani ko'rish va yorish usublarini chop etilgan shu yilning uzi, A.P.Nelyubin esa zaxarlanib o'lgan murdalarni tekshirish nizomini va zaxarlar uchun sud tibbiyot tablitsasini tuzgan.

1853 yili xakimlar kengashi karori chiqdi. Unda xotin kizlarni guvoxlikdan (kurikdan) o'tkazish uchun akusher ginekologlarni chaqarish kerak, ular bo'lmagan joylarda momodoyalik qiluvchi kampirlarni taklif etish lozim deb ta'kidlagan.

Shuni xam ta'kidlab o'tish kerakki na uezd na xakimlar, na xakimlar kengashining a'zolari sudda, uning jarayonida chaqirmas edilar. Kerakli ma'lumotlar faqat yozma ravishda berilar edi. Mazkur xolat 1864 yilgacha (sud reformasigacha) davom etgan.

Sud tibbiyot faning o'qitishi XUSh asrning oxirida Moskva dorulfununida (1799y.) boshlangan. Undan keyin tibbiy – xirurgik akademiyasida uqitila boshlagan. 1804 yili dorulfunun ustavi tasdiq etilgan. Ushbu ustav buyicha sud tibbiyoti fani anatomiya, fiziologiya va sud xakimlik ilmi shu'balarining tarkibiga kirgan.

1804 yili Moskva dorulfununida mazkur shu'bani I.V.Vansovich bo'lgan. U kishi 1808 yildan boshlab 1811 yilgacha talabalarni o'zi tuzgan uslublar bilan o'itgan.

1835 yili yangi dorulfunun ustavi chiqadi. Mazkur ustav buyicha mustakil sud tibbiyot kafedrasini tashkil etilishi kuzlatilgan. Uni davlat xakimshunoslik kafedrasini deb atalgan.

1813 yildan 1837 yilgacha professor Ye.O.Muxin (1766-1850) boshqargan. U 1920 yildan boshlab maxsus, aloxida kurs sifatida sud toksikologiyasini o'qitadi.

1837 yildan 1862 yilgacha kafedra mudiri ajoyib lektor O.A.Armfald bulgan.

Birinchi bo'lib Rossiyada 1832 yili S.A.Gromovning sud tibbiyot kullanmasi chop etiladi.

1841 yili, tibbiyot kengash a'zosi N.I.Pirogovning maxsus atlas «Odam tanasining anatomik tuzilishi» nashr etiladi. U asosan sud tibbiyot xakimlari uchun muljallangan edi. N.I.Pirogov birinchi bo'lib uq kirish teshigi nuqsoni belgilarini yezadi. Chikish teshigini xam ta'riflab beradi.

1848 yilda Kozonda G.I.Blosfeldning «Yuristlar uchun suld tibbiyot chizmasi» darsligi bosiladi va u yuridik kulanmalari uchun birinchi darslik bo'ldi.

Peterburg akademiyasining professori P.M.Zabolskiyning ilmiy ishlarini, ayniqsa uning «Jaroxatlanishni sud tibbiyot jixatidan ko'rib chiqish» asarini (1852) aloxida ta'kidlab o'tish kerak.

Turtinchi davr, sud tibbiyot xizmatining sud isloxatidan keyin, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshi bilan (oktabr inkilobigacha) ifodalanadi. Rossiyada kapitalizmning rivojlanishi va dexkonlar xarakatining kuchayib borishi 60

yillarning «isloxat davriga» olib keladi. Rus feodal davlati feodal burjuaziya davlatiga aylana bordi.

Burjuaziya ahamiyati ortib borishi bilan dexkonlarning xuquqiy axvoli xam o'zgarib bordi, ekspertizani tashkil qiluvchi sud jarayonlari xam o'zgaradi, isloxatgacha bo'lgan rus sud tibbiyotini rivojlanishida yangi davr-burjua feodal davri ko'maklashadi.

1864 yilda «sud ustavlari» chiqdi va u bilan birga, burjua xakkoniyatini ximoya qiluvchi va kafolat beruvchi oshkora ovozi sud maslaxatchilari bilan bo'ladigan burjua sudi keldi. Yangi sud, oldingisiga nisbatan xuquq masalalarini ko'rishda, tibbiy bilim ko'prok talab kilina boshladi. Shuning uchun XIX asr o'rtalaridan boshlab, xam amaliy, xam ilmiy jixatdan rus sud tibbiyotini rivojlanishida yuksalish bo'ldi.

60 yillarda tashkil topgan prkuratura va ximoyachi ishtirokidagi oshkora sud ekspertizasiga uz talablarini kuydi. Ekspert sifatida ko'prok sud tibbiyot kafedralarining xodimlari jalb qilindi. Buning oqibatida amaliy sud tibbiyotining ilmiy saviyasi ancha oshdi. Sud tibbiyotiga tegishli adabiyotlarni nashr qilish ancha oshdi. Bilmiy ishlarda amaliyot xodimlari xam qatnasha boshladilar.

1857 yildan 1871 yilgacha tibbiy-xirurgik akademiyasining sud tibbiyot kafedrasida Ya. A. Chistovich raxbarlik qilgan. U birinchi tirik odamlarni ko'rikdan o'tkazish sud tibbiyot darsligiga kiritadi.

1863 yildagi dorilfunun ustavi bo'yicha davlat xakimshunoslik kafedrasining nomi o'zgarib-sud tibbiyoti kafedrasiga deb ataldi. Uni tarkibiga toksikologiya, gigiena va tibbiyot politsiyasi kiradi. Rus sud tibbiyoti sanetariya va gigiena bilan uzviy bog'langanligi «sud tibbiyoti va umumiy gigiena arxevi» jurnalini 1865 yildan boshlab nashr etilishi va 1889 yildan keyin «umumiy gigiena axborati va sud tibbiyot amaliyoti» nomi bilan 1917 yilgacha davom etilishi uni yakkol guvoxidir. Bu esa ikkala fanning davlatga oid tibbiyot ekanligini, ya'ni ularni davolashga ta'luqli ekannini misol bo'lib, kasallikni, nojuy ishlarini, baxtsiz voqealarni oldini olish, ya'ni profilaktika uchun qaratilganligini ko'rsatadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida sud tibbiyot fani ko'prok rivojlanadi. Ayniksa chet elda bo'lib qolgan bir davrda yashab sud tibbiyot soxasida faoliyat ko'rsatgan bir kator atoqli sud tibbiyot mutaxassislar I.I.Neyding, P.P.Vablodskiy, K.V.Pelikan, Ya.A.Chistovich, I.M.Gvozdaev, N.A.Obolonskiy, Potenko va boshqalar gayrat bilan, zur berib sud tibbiyot muammolarini xal qilib kelganlar. Muvtazam ravishda talabalar amaliy mashgulot murdani yorish va daliliy ashyolarni tekshirish darslariga faol qatnashadilar. Ayrim professorlar, masalan, K.V.Pelikan, N.A.Chistovichlar sud tibbiyot klinikasini ochishni doimo talab qilib kelganlar. Peterburgda (1857) va Kiev dorilfununida (1867) mazkur klinikalar tashkil topiladi, ammo boshqa xech kaerda paydo bo'lmadi.

1856 yilda A.P.Nelyubin «Sud kimyo» darsligini nashr qildi. 70 yillardagi toksikologiya soxasida bir qator kimmatli ilmiy ishlar V.V.Pelikanga mansubdir. 1875 yil G.Dragendorofning «Zaxarlar va ularnifaniklash»: 1877 yil Yu.K.grappning «Zaxarlarnianiklash uchun qullanma»si 1890 yil V.T.Shtolsning «yuristlar uchun sud tibbiyot darsligi» chop etildi.

Professor A.S.Ignatovskiy sud tibbiyoti darsligini (1910-1912) yaratdi. Moskvada

1901 yildan to 1931 yilgacha ajoiib lektor va mashxur oliy prof. P.A.Minekov boshchilik qilgan. 1909 yildan boshlab Xarkov, kafedrada prof. A.S.Bokarius boshchilik qilgan. 1911 yilda u «sud tibbiyotining qisqa kursini»nashr qiladi. 1915 yil esa uning «Yuristlar uchun sud tibbiyot darsligi» nashr qilinadi. 1911 yil I.P.Kosorotovning «sud tibbiyot darsligini» chop etiladi.

Birinchi davr inqilobidan keyingi davrdir. 1918 yilda RSFSRning sogʻliqni saqlash xalq komiteti tuzilishi bilan sud tibbiyot ekspertizasi fuqarolari tibbiyoti boʻlimiga kiritildi: 1922 yili esa YaIS (yangi iktisodiy siyosati)ning boshlanishida-davolash boʻlimi seksiyasiga kiritildi:1924 yilda RSFSR da ekspertizani boshqarish uchun maʼmuriy tashkiliy boʻlimda jumxuriyat bosh sud tibbiyoti eksperti lavozimi tashkil kilindi.

1937 yilda SSSR sogʻlikni saqlash xalk komiteti tashkil topishi munosabati bilan butun ittifoq mikiyosidagi tibbiy ekspertizani boshqaruvchi va birlashtiruvchi bosh sud tibbiyoti eksperti lavozimi joriy qilindi.

1920 yili-birinchi va 1926 yili-ikkinchi Rossiya sud tibbiyot seʼzdlari oʻtkazildi. Ularni qarorlarini ijro etilishi sud tibbiyot xizmatiga katta yordam yetkazadi.

1924 yilda RSFSR sogʻlikni saqlash xalk komiteti (narkomzdrav) sud tibbiyot laboratoriyalari haqida qaror chiqardi. Shu yilning oʻzida Moskvada markaziy sud-tibbiyot laboratoriyasi tashkil topadi. Boshqa katta shaxarlarda xam (Leningrad, Rostov-Don, Sverdlovsk, Saratov va xakoza) sud laboratoriya barpo etildi. Ular ekspertiza xizmatidan tashqari ilmiy iimlar va kadrlar tayyorlash bilan shugʻulanadilar.

1931 yili Markaziy sud tibbiyot laboratoriyasi, birinchi va ikkinchi Moskva tibbiy oliy bilimgoxi sud tibbiyot kafedralarining koshida sud tibbiyot ilmiy tadqiqot instituti (STITI) barpo etildi. 1941 yili uning direktorini zimmasiga bosh sud tibbiyot ekspertlik lavozimi xam yuklatildi.

1949 yili sud tibbiyot ekspertizasining byuolari tuzildi. Keyinchalik sobiq SSSR sogʻlikni saklash vazirligini bir qator buyruklari chiqdi.ulardan 166 raqamli buyruq (10.04.1962y.) – «SSSRda sud tibbiyot ekspertizasini yaxshilatish choralari». 718 raqamli (10.09.1973y.) 694 rakamli (21.02.1978y.)qarorlari xam sud tibbiyot ekspertizasi xizmatini yaxshilatish chora tadbirlarini kuzlagan.

Sud tibbiyot fani va ekspertiza xizmatini rivojlantirish uchun sud tibbiyotiga oid kullanma va darstliklar (N.V.Popov, M.I.Avdeev, A.P.Gromov, A.K.Tumanov, V.V.Tomilin, V.N.Kryukov, L.M.Bedrin, V.L.Popov va boshqalar) muxim rol uynaydi. Birinchi kollektivlik sud tibbiyot darslik 1938 yil N.V.Popov bosh muxarrirligi ostida, ikkinchi darslik 1975 yil V.S.Smolyaninov bosh muxarrirligi ostida va uchinchi 1982 yil V.N.Kryukov bosh muxarrirligi ostida nashr etildi. 1985 yil V.D.Popovning va 1990 yil V.N.Kryukovning «sud tibbiyoti» darsliklari nashr etildi.

Ilmiy-ukuv-amaliy sud tibbiyot ishlarining rivojlanishida sud tibbiyot ilmiy jamiyati muxim ahamiyatni kasb etadi.

Birinchi sud tibbiyot ilmiy jamiyati 1916 yili Peterburgda tashkil topdi. Bu jamiyatga rais qilib saylangan professor A.V.Grigorev shu yilning oʻzida vafot etdi. Jamiyatni keyingi faoliyati xakida xech qanday maʼlumot yoʻq. Faqat Oktabr revolyutsiyasidan keyin jamiyat yana kaytadan tashkil topdi. Undan keyin

Moskvada va Rostovda xam sud tibbiyot ilmiy jamiyati tashkil topildi. Jamiyatlarning ishlari haqidagi xisaboti «Sud tibbiyot ekspertizasi» to'plamida bosilib chiqarildi. 30 yillarga kelib Moskva va Rostovdagi sud tibbiyot ilmiy jamiyatlari uz faoliyatini to'xtatadi, Leningraddagi jamiyat esa o'z faoliyatini davom ettiradi. 1946 yildan boshlab esa u sud tibbiyot xodimlari va kriminalistlarning umumittifok jamiyatini tuzish uchun uz faoliyatini ko'rsata boshladilar.

1947 yili Moskvada, Kozonda, Rostovda, Ukrainada, Xarkovda, Odessada sud tibbiyot xodimlari va kriminalistlar umumittifok jamiyatining bo'limlari tashkil topdi. 1948-1949 yillarda Kozogiston, Ukraina, Belorussiya jumxuriyat sud tibbiyot va kriminalistika jamiyatlari tashkil topdi.

50-60 yillar asta-sekinlik bilan qolgan jumxuriyatlarda mazkur umumittifok sud tibbiyot ilmiy jamiyat bo'limlar tashkil topildi.

Shuni xam ta'kidlab utish kerakki, turtta umumittifok sud tibbiyot va kriminalistika konverensiya va kengashlar (1946, 1950, 1957, 1967), xamda 1, P, Sh. Umumittifok sud tibbiyot s'ezdlari Kiev – 1976y., Minsk – 1982y., Odessa – 1988y. Ekspertiza xizmatini, ya'ni amaliy va nazariy sud tibbiyotining boyishi va rivojlanishiga sabab bulgan.

1958 yildan boshlab umumittifok «sud tibbiyot ekspertiza» oynomasi chop etildi. Mazkur oynoma umumiy ittifok sud tibbiyot minbari va umumittifoq ilmiy sud tibbiyot jamiyatining organi bo'lib xisoblanadi. Uni birinchi bosh muxarriri V.I.Prozorovskiy 1978 yilgacha uz faoliyatini ko'rsatdi. 1979 yildan boshlab hozirgacha oynomani unumli rivojlanishida uning bosh muxarriri professor V.V.Tomilin katta xissa qushmoqda.

Sud-tibbiyoti fani va ekspertiza xizmatini Uzbekistonda paydo bo'lishi va rivojlanishi

Uzbekistonda xam boshqa xududlardagi kabi sud tibbiyotiga oid ishlar jismoniy daxlsizlikni buzish, unga tajovuzlik kilish natijasida vujudga kelgan. UP asr oxirlari USh asr boshlarida Urta Osiyo xududlarini arab xaliflari bosib olgandan keyin, islom dini tashkil topdi. Shaxarlarda odil sudlovni kozilar, eshon muxtasib raislari olib borardi. Jinoyat sodir bulgan ishlari avval xokim va bek tomonlaridan kurib chikar edi.

Odil sudlov diniy nazariyada, sharoitga asoslanib kelgan. Butun musulmonlar mamlakatlari buyicha xamma narsani, shuningdek sudlash uslublarini sharoit uz ichiga kamrab olgan edi.

Sud tibbiyot fani uzok va murakkab tajribalar yuli bilan vujudga kelgan. Uni paydo bo'lishi va rivojlanishiga, boshqa fanlar katori usha davrning mutaffakir va olimlar Abu-Bakir Muxammad Ibn zakari ar Rozi (865-925), Abu-Ali Ibn Sino (980-1037), abu Rayxon Beruniy (973-1048), Isomoil Jurjoniy uz mashakatli ishlari bilan katta xissa kushdilar.

Abu Ali Ibn Sino asarlari maxsus sud tibbiy faniga tegishli bulmasa xam, ular ichida ko'pgina sud tibbiyot savollarini yechadigan ma'lumotlar mavjuddir. Ular asrlar buyi sudlash va tergash ishlarida katta yordam berib kelgan. Ibn Sino «Murdalar tiriklarni ukitadi» degan makoliga asoslanib birinchilar katori, tibbiyot fanini mukammal bilish uchun murdalarni yorib urganish lozim deb aytgan.

Murdalarni yorib tekshirish asosida odamning anotamik tuzilishi, patanotamik uzgarish tugrisida kimmatbaxo ma'lumotlar beradi. Kishi ulgandan keyin murda belgilarini paydo bo'lishi (kotish, sovlash, kurish, chirish va boshqa) tugrisidagi ma'lumotlar hozirgacha uz kuchini yukotmay amaliy sud tibbiyot ishlarida kullanib kelmokda. Ibn Sino xatto ulim jarayonidagi uzgarishlarni mexanizmni xam aytadi. Masalan Kanonni (1-kitob) uchinchi kismni 294-295 betlarida ta'kidlab utganki, bizning jasadimiz ulgandan keyin tashki va kichki muxit ta'sirida ikki xil uzgarishlarga duchor bo'ladi.

Birinchi asta sekinlik bilan uz namligini yukotib bulsa, ikkinchisi-badanning uzgarishi, chirishi kechirishga kobilyatsiz bo'lishidir.

Ibn Sino asarlarida sud tibbiyot nazariyasiga oid ulim turkumlarni kurishimiz mumkin. Masalan usha konunning (1 kitob. Sh kism) va tabbiysiz, gayri tabiiy (tashki muxit ta'siridan vujudga kelgan) ulimlar xakida gapirgan. Ibn Sino tibbiyo konunining IU va U kitoblarida zaxarlar va zaxarlanish tugrisida, ya'ni toksikologiya buyicha kimmatbaxo ma'lumotlar mavjuddir. Bir necha asrlar davomida mazkur ma'lumotlardan, tibbiy bulimiga ega bulgan shaxslar ekspertizaga oid ishlarni utkazishi uchun. Foydalanib kolgan. Uning zaxar va zaxarlanish tugrisidagi ma'lumotlari shu kadar kengki, ularni XUP asrning oxirigacha keng ravishda foydalanib kelganlar. 90tadan ortik usimlik, xayvonot va mineral modda zaxarlar tafovut qilingan. Akonit kora archa mevasi, korakasovlar eng zaxarli usimliklardan xisoblanadi deb ta'kidlab utgan. Kuzikorin, zamburuglarni zaxarli va zaxarsiz turkumlarga bo'lib ularni xar birini ta'rifini berib utgan. Ularni iste'mold kilgandan keyin organizmda bo'ladigan uzgarishlar tugrisida tuxtalib utgan.

Abu Ali Ibn Sino uz tajribalariga asoslanib zaxarlanish, ya'ni zaxarni ta'siri, uni dozasiidan, tozaligidan, sifatidan va organizmga yuborish yullaridan boglik deb ta'kidlab utgan. Masalan simob tugrisida usha kitobni 427inchi betida quyidagilarni yozgan: '...simob tugrisiga kelsak, uni ichgan kishilar deyarli kasal bulmaydi, chunki me'da ichak yullaridan uzgarmay chikib ketadi. Agarda mazkur tirik simobni kulok teshigidan yuborsa, kattik ogrik paydo bo'ladi, kishi xushidan ketadi, xatto muskullari kisilishadi. Kulokka simob kirgan tomon tana ogirliqi seziladi, ayrim vaktlarda tutkanok kuzatilishi mumkin, chunki simob miyaga ta'sir kiladi'. Bangidevona tugrisida u shuni yozadi «...bangidan, bosh aylanish, uykuga torilish, mast bo'lish. Ayrim vaktlarda bir miksol bangi, odamni usha kuni uldiradi. Agar uni yarmini, yoki yarmidan kamroyoini ichsa-undan uxlatadi, mast kiladi, fakat kuchsizlangan, kuchi past kishini uldiradi»(usha kitob 441-442).

Ibn Sino uz asralarida shaxsni identifikatsiya kilish masalalar tugrisida xam ma'lumotlar bergan. Galan va Gippokrat fikrlarini tasdiklab 4 xil bosh suyagi mavjudligini ta'kidlagan. Jaroxatlanish tugrisida anatomik butunligini, fiziologik vazifalarini buzilishi va xar bir muxitga xos morfologik uzgarishlar ruy berishi tugrisida tuxtalib utgan. Ikki turkumli, tabiiy va tabiiysiz asfiksiyalar tugrisida xam ma'lumot bergan.

Urta Osiyo va Kozogiston Rossiyaga kushilishi XIX asrning ikkinchi yarmi, isloxat sudiga (1864y.) tugri keladi. Shuning uchun mazkur isloxat Uzbekistonda sud kilish jarayonida uz ta'rifini ko'rsatadi. Toshkent, Samarkand, Fargona va

boshqa hospital xakimlar ma'muriy organlar talablariga asoslanib ekspertiza utkazish uchun, ya'ni birinchi sudlar talablariga asoslanib ekspertiza utkazish uchun taklif kilinar edi.

Sud tibbiyot fanining, xizmatining rivojlanishi, sud tibbiyot kafedralarining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq.

1920 yili Toshkent Davlat dorulfunun tibbiyot fakultetini tuzilishi sud tibbiyot kafedrasini barpo etilishini xam kuzlagan. Lekin ikki yil davomida u sud tibbiyot kursi sifatida, birinchi gallar umumiy patologik, keyinchalik gistologik shu'basiga kiritildi. Fakat 1922 yildan boshlab A.S.Ilin raxbarligi ostida sud tibbiyot shu'basining va sud tibbiyot ekspertizasini ishi faol ravishda rivojlanadi. Shu'ba kadr tayyorlashga kirishdi. 1928 yili 6ta sud tibbiyot mutaxassislari Samarkand, Andijon, Kukon, Fargona, Xodjikent va Termez shaxarlariga junaydilar. Ular bu shaxarlarda sud tibbiyot xizmatini barpo etib, viloyat sud tibbiyot byurolarini tuzishga negiz tayyorlaydilar.

1928 yili Toshkent Davlat tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent I.V.Markovin tayinlanadi. 1930 yildan boshlab u bosh sud tibbiyot eksperti lavozimini xam olib boradi. Sud tibbiyot ilmiy-pedagogik va amaliy ishlar uzviy boglanadi. I.V.Markovin va kafedra assistentlari ekspertizada faol ish olib borib uni sifatini oshiradilar. 1935 yili, ishlarning yigindisiga asoslanib I.V.Markovinga professorlik unvoni beriladi. U 1944 yili Uzbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi faxriy unvoni olishga muvassar buldi.

1946 yildan 1958 yilgacha kafedra mudiri bo'lib dots. N.F.Kolosova ishlaydi.

1958 yildan to 1963 yilgacha TashDavTI sud tibbiyot kafedrasining mudirligi va Uzbeksiton sog'likni saklash vazirligining bosh sud tibbiyot eksperti lavozimlarini dots. S.Sh.Shaxobutdinov olib boradi. Kafedra va ekspertiza xodimlari sud tibbiyot ilmiy-uksv-amaliy ishlarini rivojlanishiga faol katnashadilar. S.Sh.Shaxobutdinov tashabussi va uning faoliyati tufayli bosh byuro sud tibbiyot ekspertizasining yangi imorati barpo etiladi.

1963 yildan boshlab Toshkent Davlat tibbiy oliy bilimgoxi sud tibbiyot kafedrasining mudiri lavozimini prof. L.M.Eydlin olib boradi. U shaxs avvalo Samarkand, keyinchalik Toshkent (1954-1966yy.) sud tibbiyot kafedra va byuro ekspertizalarida sud tibbiyot fanining ilmiy ukuv-amaliy ishlarini rivojlanishiga katta xissa kushdi. Uning ilmiy ishlari ikki tarmok orkali rivojlanadi. Birinchisi mexanik jaroxat, shaxsan uk otar jaroxat bulsa, ikkinchi esa daliliy ashelar tekshirish tarmog'idir. Uning raxbarligi ostida 7 kishi dissertatsiya yoklab tibbiy fanlar nomzodini olishga muvassar buldilar. 1963 yili uni «uk otar jaroxatlari» nomli asri nashr etildi.

1935 yili Samarkand Davlat tibbiyot kafedراسi tashkil topildi. Uning mudiri kilib tibbiyot fanlar nomzodi V.S.Pyaternov tayinlandi.

Ikkinchi jaxon urushi davrida SamDavTI sud tibbiyot kafedra mudirlik lavozimini prof. M.I.Riskiy olib bordi. U kishi bilan birgalikda evakuatsiya davrida Liningraddan kelgan xarbiy tibbiyot akademiyasining ukituvchilari xam ish olib bordilar.

1954 yildan 1963 yilgacha prof. L.M.Eydlin, 1963 yildan 1971 yilgacha prof.M.G.Bereza va 1972-1984 yilgacha dots. X.M.Murtazaev SamDavTI sud

tibbiyot kafedrasida mudirlik lavozimini olib borganlar.

1959 yildi Andijon Davlat tibbiyot instituti sud tibbiyot kafedraasi tashkil topdi. Uning birinchi mudiri dots. V.A.Kajev 1959 yildan to 1970 yilgacha ishladi. 1970 yildan 1978 yilgacha kafedra mudiri lavozimini dots. V.B.Ayrapetov olib bordi.

1972 yili Urta Osiyo Pediatriya tibbiyot instituti sud tibbiyot kafedraasi tashkil topdi. Uning mudiri kilib dots. A.R.Raximov tayinlandi. U to umrini oxirigacha (1984)shu lavozimda ishlab keldi.

Xozirgi paytda Uzbekistondagi beshta tibbiy oliy bilimgoxi (1- ToshDavTI, 2- ToshDavTI, SamDavTI, AndDavTI, TashDavPTI) sud tibbiyot kafedralarining xodimlari amaliy sud tibbiyot ekspertizaldari bilan birgalikda jumxuriyatimizda sud tibbiyot ekspertiza xizmatining yanada rivojlanishida samaradorlik bilan ishlamokdalar. 1990 y. BuxDavTI shuningdek uning sud tibbiyot kafedraasi tashkil topdi.

Uzbekistonda 1954 yili umumittifok sud tibbiyot ilmiy jamiyatining bulimi tashkil topdi. Uning birinchi raisi kilib tajribali sud tibbiyot eksperti L.F.Shifris saylandi. 1958 yili Toshkentda Urta Osiyo va Kogoziston sud tibbiyot va kriminalistlar kengashi utkazildi.

1964 y. Nukusda, 1965 y. Urgenchda kengaytirilgan ilmiy-amaliy sud tibbiyot konferensiyalari utkazildi.

1990 yili Uzbekiston sud tibbiyot tarixida birlashish sodir etildi, ya'ni sud tibbiyot nazariya bilan ekspertiza amaliyoti birlashuvi xosil buldi. Uzbekiston soglikni saklash vazirligining (sud tibbiyot ilmiy-ukuv-amaliy birlashmasi) tuzish tugrisida 173 rakamli buyrugi chikdi (28.02.90yil). mazkur buyrukga asoslanib Respublikamizda sud tibbiyot xizmatini yaxshilash, ilmiy-amaliy kadrldar saviyasini oshirish ekspertiza ishlarini takomillashtirish, erishgan ilmiy yutuklarni amaliy ekspertizada kullanishi uchun «sud tibbiyot ilmiy-ukuv-amaliy birlashma»sining nizomiy tasdiklandi. Bu birlashmani sodir etilishi, ya'ni sud tibbiyot nazariyasi bilan ekspertiza amaliyotini birlashuvi Uzbekiston sud tibbiyotni rivojlanishida muxim davr buldi. Professor-pedagogok xodimlarini amaliy ishdagi bevosita ishtiroki, albatta sud tibbiyot ekspertizasi sifatini oshiradi:uz navbatida ekspertiza materiallaridan kafedra xodimlarni foydalanishi dars jarayonini yanada yaxshilatdi. Amaliy ilmiy ish uchun ilmiy izlanishlarning yechiladigan manbasidir, xamda uzluksiz vazifalar belgilovchi va ularning xal bo'lishini talab kiluvchi manbaidir: shu bilan birga kafedra xodimlarining amaliy ishlari, ularning xilma-xilligi, tergov va sud protsessida xulosalarning, tekshiruvida utkazilishi xodimlarning nazariy va amaliy usishi uchun muxim shart-sharoit va imkoniyat yaratadi.

1975 yili «Uzbekiston sud tibbiyot ekspertlarining ilmiy ishlar tuplami»nashr etiladi.

1978 yildan boshlab xozirgi paytgacha «sud tibbiyot daliliy ashyolar tekshirishining muxim muammolari» degan tuplami xar yili yoki ikki yilda bir marta muntazam ravishda nashrdan chikib turmokda.

TIBBIY TERMINLAR

1. Intergenitik.
2. Reproduktiv salomatlik.
3. Poliuriya.
4. Gipertoniya.

“Aqliy hujum” usuli. Bu usul orqali shaxsni erkin shakllantirish mumkin. Jarayonni boshlashdan avval gurux talabalariga savol beriladi va bir necha daqiqa ichida shu savolga oid, har bir o‘quvchi o‘zining fikrini bayon etishi kerak.

- Bu javob yoki fikr o‘rinli yoki noo‘rin bo‘lishi mumkin, ammo, o‘qituvchi ham qolgan o‘quvchilar ham javob bergan o‘quvchiga tanbeh bermaydilar.
- O‘qituvchining yordamchisi doskaga yoki flep kartaga har bir o‘quvchining javobini yozib boradi. Har bir o‘quvchi uning berayotgan javobini tinglamoqlari lozim.
- Qanchalik ko‘p fikr bildirilsa, natija shuncha yaxshi bo‘ladi.
- Bu usulda dars o‘tilganda qisqa vaqt ichida har xil variantdagi javoblar va shu mavzuga oid o‘quvchilarning mulohazalarini to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.
- Har qanday javoblar usul so‘ngida muhokama qilinadi.

”Mozaika” - ish o‘yinini o‘tkazish usuli

Bunda tinglovchilar guruh-larga bo‘linadilar. Mavzuga oid rasmlar konvertga joylashtiriladi. Har bir guruhdan tinglovchi konvert tanlab, ichidagi rasmlarni ma’lum vaqt ichida to‘g‘ri joylashtirib berishlari shart.

So‘ngra o‘qituvchi to‘g‘ri javobni doskada ko‘rsatadi. Birinchi va to‘g‘ri javob bergan guruh baholandi

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Patologik anatomiya xizmatini vazifalariga nimalar kiradi ?
2. Patologik anatomiya rivojlanishi necha davirga bo‘linadi?
3. Sud tibbiyot fanining tarixi.
4. Sud tibbiyoti fani, vazifalari va ahamiyati.

VAZIYATLI MASALALAR

1. Fuqaro A., mehmonda bo‘lgan vaqtida o‘zini yomon his qila boshladi, harorati ko‘tarilib, hansirash yuzaga keldi. Chaqirilgan tez tibbiy yordam vrachi ikki

tomonlama krupoz pnevmoniya diagnozini qo‘ygan. Ahvolining og‘irligiga qaramay vrach bemorni shaharda doimiy ro‘yxatdan o‘tmaganligi vaji bilan shifoxonaga yotqizishdan bosh tortdi. Bir necha soatdan so‘ng bemor vafot etdi.

A. Ushbu holat qanday baholanadi?

- a) jinoyat
- b) qilmish
- v) hech qanday nuqsonga yo‘l qo‘yilmagan.

B. Ushbu holat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida qaysi modda bilan belgilangan?

- a) 116- modda
- b) 117- modda
- v) 114- modda
- g) 115- modda

TEST SAVOLLARI

1. Patologik anatomiya so‘zini ma’nosi

- 1. (grekcha “patos”-kasallik,”logos”-ta’limot)
- 2. (lotincha”patos”-a’zo,”logos”-ta’limot)
- 3.(yunoncha”patos-kasallik,”logos”-ta’limot)
- 4. (yunoncha”patos-kasallik,”logos”-o‘qimoq)

2. Patologik anatomiya rivojlanishi necha davirga bo‘linadi

- 1. 3 ta davirga
- 2. 4 ta davirga
- 3. 2 ta davirga
- 4. 1ta davirga

3. Patologik anatomiya xizmatini vazifalariga nimalar kiradi

- 1. Barcha javoblar to‘g‘ri
- 2. Kasalliklar va ularni asoratlaridagi tuzalish (morfologik) o‘zgarishlarni o‘rganadi
- 3. Kasalliklarni etiologiyasi va avj olish sharoitlarini o‘rganadi
- 4.To‘g‘ri javob berilmagan.

4.Patologik anatomiyaning tekshirish usullari

- 1. Jasadni yorib tekshirish,jarroxlilik va biopsiyalar materiallarini

2. Tekshirish, tadqiqot materiallarini tekshirish

3. Bosh miyaga qon quyilishini tekshirish

4. Qon ketishini tekshirish, yaralarni bitishini tekshirish, jasadni yorish

5. A'zo, to'qima va hujayralarda kasallik natijasida paydo bo'ladigan holatlarni o'rganadigan fan nomi

1. patologik anatomiya

2. anatomiya

3. gistologiya

4. sitologiya

2.1.O'quv moduliga ajratilgan soat 2	Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalari
---	---

Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli

Vaqt 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sud tibbiyotida daliliy ashyolarni tekshirishning asoslari 2. Sud-kimyoviy tekshiruv ob'ektlari haqida tushuncha 3. Dalilily ashyolar ekspertizada qon va qon dog'larining laboratoriyada tekshirish - usullari 4. Odam organizmi ajralmalari va sochlarni tekshirish 5. Zaxarlanishning sud-tibbiyoti ekspertizasi isbot topish manbalari
<p>O'quv mashg'uloti maqsadi:</p> <p>1.Ta'limiy : Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p>2.Tarbiyaviy maqsadi Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatini natijalari:
O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari. Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalari. O'zbekiston Respublikasida sud tibbiyoti va sud tibbiy ekspertizaning rivojlanish tarixi. Sud tibbiyotining biologiya, huquqshunoslik fanlari va tibbiyotning boshqa sohalari bilan	<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslarini • Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalarini • Sud tibbiyotining prinsiplarini • Aholiga tibbiy profilaktik yordam

bog'liqligi. Sud tibbiyoti fani va bu soha muammolari. Sud tibbiyotining prinsiplari. Sud tibbiyotining ma'naviy hamda ma'rifiy ahamiyati.	sifatini oshirishni <ul style="list-style-type: none"> • Huquq,qonun, kodeksini bilishi lozim • Huquq turlari. Jinoiy huquq haqida tushunchani • Sud tibbiy ekspertiza turlarini Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni
O'qitish metodlari	“moychechak metodi” “aqliy hujum” usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	<p style="text-align: center;">Tashkiliy qism</p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib</p>	Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar

	o'yin qoidalirini tushintiradi.	
<p>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</p> <p>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</p> <p>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</p> <p>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga «moychechak metodi» tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."Baliq skeleti " sxemasi bo'yicha tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi</p>
<p>3-bosqich</p> <p>Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalari mavzuni o'qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</p> <p>1. "Sud ekspertizasi", A.SH.Baratov, R.K. Abdullayev, B.X.Xamidov Toshkent – 2025 y.</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

Mavzu: Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalari

Dars rejasi:

1. Sud tibbiyotida daliliy ashyolarni tekshirishning asoslari
2. Sud-kimyoviy tekshiruv ob'ektlari haqida tushuncha
3. Dalaliliy ashyolar ekspertizada qon va qon dog'larining laboratoriyada tekshirish -usullari
4. Odam organizmi ajralmalari va sochlarni tekshirish
5. Zaxarlanishning sud-tibbiyoti ekspertizasi isbot topish manbalari

Respublika bosh STE byurosi, viloyatlar sud tibbiyot byurosi muassalarida laboratoriyalar mavjud. Ular daliliy ashyolarni tekshirish laboratoriyalari deb ataladi. Mazkur laboratoriyalar biologik, tibbiy-kriminalistik va sud-kimyo bo'limlaridan iboratdir. U yerda tekshirilayotgan obektlarning taxlili sud tibbiyot ekspertizasi sifatini oshiradi va muxim amaliy ahamiyat kasb etadi. Xozirgi zamon asbob uskunalari, texnika taraqqiyoti yo'qori darajada sezgir uskunalarni ishlab chiqarib, kichik miqdorli obektlarni tekshirish, katta mazmunli informatsiya olishga imqon beradi zamon talablaridan biri laboratoriyalarni kompyuterizatsiya va avtomatizatsiyalashtirishdir. Ushbu maqsadga erishish laboratoriya ishlarini komplektatsiyalashtirishni talab etadi. Masalan, sud tibbiyot laboratoriyasini markazlashtirib uni immuno-biokimyo, sitologik, biofiziko-texnik, gistologik va ximiko-toksikologik bo'limlarga ajratish mumkin. Ammo ayni paytda barcha viloyatlar bo'yicha biologik va sud-kimyo, tibbiy-kriminalistika bo'limlari o'z faoliyatlarini ijro etmokedalar. Qolganlari tashkil etish arafasidadir.

Dalaliliy ashyolar ekspertizada qon va qon dog'larining laboratoriyada tekshirilishi.

Xar bir tibbiyot xodimi sud tergov organlari tomonidan voqea sodir bulgan joyga chakirilishi va u yerda topilgan daliliy ashyolarni yigish, sud tibbiyoti laboratoriyalariga yuborishda yordam berishi zarur va u qonunga binoan buysunishi lozim. O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksining 59 moddasida shunday deyilgan: «jinoyat kilish kuroli bulgan yoki uzida jinoyat izlarini saqlab qolgan, yoxud jinoiy xarakat obekti bo'lgan narsalar, shuningdek, ishga doir xaqiqatni aniqlashga xizmat qilishi mumkin bo'lgan boshqa narsalar jinoyat ishi buyicha daliliy ashyo bo'ladilar». Daliliy ashyolar turli mutaxassislar, birinchi navbatda, albatta tibbiyot ekspertlari, sud kimyogarlari va kriminalistlar tomonidan tekshiriladi. Sud tibbiyoti turli buyumlar, ulardagi izlar va boshqa obektlarni o'rganadi. Bularni tekshirish uchun albatta chuqur tibbiy bilimga ega bo'lmok kerak. Sud tibbiyotida daliliy ashyo obektlariga tana a'zolari kislmlari va insonning o'zidan chikaradigan turli xil ajralmalar, tana to'qimalari, shuningdek qon va uning izlari, sochlar, shaxvat, siydik, ter, organizmning yumshok tukimalari va xokazolar kiradi. Yo'qorida qayd qilingan obektlarni tekshiradigan shaxslar daliliy ashyolar tekshiruvchi sud tibbiyot ekspertlari deyiladi. Daliliy ashyolarni tekshirish sud ajrimi yoki tergovchining karori asosida o'tkaziladi.

Qon va uning dog‘larini tekshirish.

Sud tibbiyoti amaliyotida daliliy ashyolarning eng ko‘p tekshiruv obekti bu qondir. Qonni tekshirish boshqa va shunga o‘xshash ekspertizalarga nisbatan 80%ni tashkil qiladi. Og‘ir jinoyatlar, masalan, odam o‘ldirish, nomusga tegish, shikast yetkazish, yul transport xalokatlari sodir etilganda daliliy ashyolardan qon izlari topilib, uning qaysi tur va guruxga mansubligi. Jinoyatni ochishda bu juda muxim ahamiyatga egadir. Fuqorolik ishlari ekspertizasida, masalan, otalik va onalikni aniqlashda, bolalarni almashtirish xollarida qon tekshirilishi muxim ahamiyat kasb etadi.

Suyo‘q qonni tekshirish. Sud tibbiyot laboratoriyalarida qon suyo‘q va dog‘lar (izlar) ko‘rinishida tekshiriladi. Otalik (validalik) va onalik (validiyalik)ni aniqlash kabi baxsli xollarda, bolalar almashtirilganda, jabrlangan yoki ayblanuvchining qonlarini daliliy ashyo sifatidagi tekshirish natijalarini solishtirishda, qiyoslashtirish uchun namuna sifatida suyo‘q qon tekshiriladi. Ayni paytda qonni individualizatsiyalash uchun eritrotsitlar, leykotsitlar, zardob, ferment sistemalari tekshirilishi mumkin. Eritrotsitlar sistema bo‘yicha AVO klassik guruxlaridan tashqari MN, rezus, Lyuis, R gurux sistemalari xam aniqlanadi. Kelajakda Lassern, Kell, Daffi, Diego, Kir, KU va boshqa guruxlar sistemalarini xam keng qo‘llash ko‘zda tutilmoqda.

AVO sistemasi (klassik guruxi) o‘zida nafaqat agglyutinogenlar, balki agglyutininlarning mavjudligi bilan boshqa guruxlardan farq qiladi. Uni sud tibbiyot laboratoriyalarida aniqlash asoslari boshqa tibbiyot karxonalarida (jarroxlik, travmatologiya, qon kuyish stansiyalari, ginekologiya va akusherlik, xokazalar) aniqlash prinsiplaridan xech xam farq qilmaydi. Bu tekshirish usullari agglyutinin va agglyutinogenlarning qonda mavjudligiga asoslangan. Farqi faqat texnik jixatdan bajarilishida.

Agar klinik laboratoriyalarda agglyutinogen va agglyutininlarni aniqlash yassi jismlar orqali (likopcha, chinni idishlarda, plastinkalarda) amalga oshirilsa, sud tibbiyotda esa probirkalarda tekshirish o‘tkaziladi.

Buning uchun sentrifuga orqali, tekshirilayotgan qon zardob va eritrotsitlarga ajratiladi. Eritrotsitlar standart anti-A (alfa) va anti-V (beta) zardoblari bilan tekshiriladi. Tekshirilayotgan qon zardoblari esa standart A va V eritrotsitlari bilan tekshiriladi. Agglyutinatsiya reaksiyasiga asoslanib eritrotsitlar tarkibida u yoki bu agglyutinogen (antigen)lar mavjudligi aniqlanadi. Agar eritrotsitlar anti-V (beta) zardobi ta‘siridan agglyutinatsiya xosil qilsa, unda V antigeni va anti-A (alfa) zardobi ta‘siridan xosil qilsa – A antigeni (agglyutinogeni) mansubli guruxlar mavjudligi aniqlanadi. Tekshirilayotgan qon zardobida agglyutininlar (antitelalar)

aniqlanadi. Agar zardob A eritrotsitlari bilan agglyutinatsiya xosil qilsa unda zardobda alfa agglyutinini va V eritrotsitlari bilan xosil qilsa beta agglyutinini borligi aniqlanadi. AVO sistemasi turt guruxga bo'linadi. Birinchi guruxi alfa, beta agglyutinini va antigen O(N) mavjudligi, ikkinchi guruxi antigen A va beta agglyutinini, uchinchi guruxi antigen V va alfa agglyutinini, to'rtinchi guruxi esa faqat AV antigenlari mavjudligi bilan tafovutlanadi. Volidialik va volidalik ekspertizasini o'tkazish uchun klassik AVO sistemasidan tashqari boshqa eritrotsitar MN, R, Rh, izoferment sistemalari xolinesteraza, jovxar fosfataza va boshqalari tekshiriladi.

Sud tibbiyot laboratoriyalarida qon suyo'q xolda MN sistema guruxlarini aniqlashda xam tekshiriladi. Bu sistemaning guruxlari undan ortiq turlarni o'z ichida oladi. Eng avvalo, M va N agglyutinogenlari kashf qilindi (1927 yilda). So'ngra birin-ketin boshqa turlar xam ma'lum bo'la boshladi. Bu agglyutinogenlar eritrotsitlar tarkibida mavjuddir. Mazkur gurux MN sistemasi deb nomlangan.

M va N agglyutinogenlari odamlar qonida aloxida yoki birgalikda uchrashi mumkin. Shuning uchun xam M, N va MN qon guruxlari (tiplari) o'zida mavjud bo'lgan odamlarni bir-biridan farqlashadi. Bu agglyutinogenlar AVO sistemasi guruxlaridan farqli ravishda qonda tegishli agglyutinogenlarga ega emas. Qon tiplarini aniqlash uchun anti-M va anti-N immunologik zardoblar qo'llaniladi, ya'ni, xayvonlarni (kuy, kuyon va boshqalarni) immunizatsiya orqali olingan immun zardoblari qo'llaniladi. Yapalok chinni likopchalarda tajriba o'tkaziladi.

Qon izlarini tekshirish. Qon izlarini o'rganish tergov uchun muxim ahamiyatga egadir. Ularning joylashishi, soni, shakli, rangi va izlarning namligi quriqligi, rangining tuqligi qay darajada ekanligiga qarab sud tibbiyot ekspertlari oldiga ko'yilgan bir talay muomolar xal kilinadi. Masalan, qon murda atorifida xalqob bo'lib yotgan bo'lsa, uni tashqi qon ketishdandeb uylash mumkin. Agar murda topilgan joyning devorlariga qon sachragan bo'lsa, unda voqea sodir bo'lgan joyda nafaqat u xayyotligidagi shikastlanish, balki, arteriyadan qon ketganligini xam ko'rsatadi. Qon izlarining joylashishi, shakli o'lim boshlanishi paytida murdaning kandy xolda bo'lganligini va tushish burchagini xam ko'rsatish mumkin.

Qon izlarining sirtidagi namlikning bulgani darajasiga, rangiga qarab, uning allaqachon paydo bulganligini aniqlash, shuning uchun xam o'lim yuz bergan vaqtini taxminan aytish mumkin. Buyumga tushgan paytdan boshlab, kuzdan kechirib chikishgacha (nazorat) ko'p vakt o'tmagan xollarda izlar xo'l, och-kizil tusda bo'ladi. Tashki muxit shart-sharoitlari xarorat, yil fasli va boshqalar e'tiborga olinadi.

Qon izlari xususiyatlarini tekshirish nafaqat zurlik bilan sodir etilgan o'lim xodisalarini aniqlashdagina muxim ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, balki,

jinoyatkorlik bilan sodir etilgan jinsiy aloqa ishlarida xam muxim bir ma'no kasb etadi. Maslan, ayblanuvchining (gumondorning) ichki kiyimlarida qon dog'larining joylashishiga qarab ular zurluk bilan qilingan jinsiy aloqa tufayli jabrlanuvchining nomusga tekkanligidan kelib chiqqanligini (paydo bulganligini) aytish mumkin. Va nixoyat, qon izlarining tashki xususiyatlarini o'rganish, jabrlanuvchining kiyimlarida, badanida, ayblanuvchilar va boshqa shaxslarining kiyimlarida, badanida ularning xosil bo'lish yullari sabablarini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, kon izlari xususiyatlarini o'rganish bizlarga jinoyat katta yordam berish mumkin. Shikast yetkazilgan quollaridagi, voqea sodir bo'lgan joylarni kuzdan kechirganda, odam uldirish, zurlab nomusiga tekkanda, turli xil avtomobil va boshqa xodisalarida qon izlarini tekshirish katta ahamiyatga egadir. Ularni tekshirish xaqiqatni yuzaga chiqarishda xal qiluvchi rol uynashi mumkin. Qon izlarini ekspertiza qilish paytida bir qator savollar xal qilinishi mumkin: masalan, dog' qon dog'i ekanligini aniqlash; xilini ya'ni odamga yoki xayvonga tegishligini, guruxga mansubligini aniqlash, qonning kaysi a'zoga tegishli ekanligini; qonning qaysi jinsga, yoshga – erkakkami yoki ayolga, chakoloqqami yoki kttta odamga va xakozalarni aniqlash kabilar. Yo'qorida aytib o'tilgan savollarning birinchi uchasi daliliy ashyolarni tekshirishda kariyib doimiy beriladigan savollarga kiradi.

Qon mavjudligini aniqlash.

Qon mavjudligini aniqlash aloxida xollarda juda mushkul muammolardan biridir. Chunki juda ko'p narsalar turli xil buyumlarning sirtiga tushgach yoki to'kilgach, tashqi ko'rinishidan qon dog'lariga o'xshab ketishi mumkin (turli xil meva sharbatlari, ba'zida qon izlari umumiy qonga o'xshamasligi mumkin). Yoki aksincha, ba'zida qon izlari umumiy qonga o'xshamasligi mumkin. Izlardagi qonni aniqlashga yunaltirilgan barcha tajribalar taxminiy (dastlabki) va aniq (ishonchli) dalil bo'la oladigan sinash usullaridan iboratdir.

Taxminiy sinov tajribalari. Dog'lar xamma vaqt xam tashki kurinishidan qonga uxshamasligi tufayli, ba'zida esa uzida qon dogi mavjud bulgan buyumning (buyum-tashuvchi) uzini xosligiga karab, qon mavjudligiga shubxa tuldirgan izlarini aniqlash juda qiyinlashadi (ayniqsa, izlar qoramtir, tuk rangli narsalarda joylashgan bo'lsa).

Shuning uchun, bunday xollarda yoki bo'lmasa, voqea sodir bo'lgan joyini tekshirayotganda qon topilishi extimoli bo'lgan narsaning atrof joyini aniqlashtirish uchun dastlabki sinov tajribalarini qullash kerak. Bu sinov yullari dastlabki qadamlardir, chunki dog'da qonni bor yoki yo'qligini va musbat va manfiy tajribalar natijasi ko'rsata olmaydi. Shu bilan birga bu sinovlar daliliy ashyolarni taxminan aniqlashda yordam berishi mumkin. Ayniqsa, oddiy ko'z bilan izlarning mavjudligini ilg'ab olish qiyin bo'lsa yoki ongli ravishda yo'kotilgan bo'lsa. Qon,

temir moddasi, qon fermentlarini aniqlash uchun bir qancha dastlabki sinov usullari keltirilgan. Bu tajriba – usullaridan tashqari, shubxali joylarni ultrabinafsha nurlari ostida tekshirishdan xam foydalanish mumkin. Bunday qon izlar tuk-jigarrang va barkutsimon kurinishga ega bo'ladi. Ammo, zang va boshqa narsalar ultrabinafsha nurlar yordamida tekshirilganda, bir-biriga juda o'xshab ketadi. Qon fermentlari bo'lmish katalaza va peroksidazani aniqlashda ishlab chiqarilgan dastlabki kimyoviy sinov raaksiyalari (tajribalari) bu borada asosiy rol uynaydi.

Ishonchli sinov usullari. Qonning shakliy elementlari, gemoglobin yoki uning xosilalari (derivantlari)ni aniqlash, dog'dagi qon mavjudligini aniqlashning eng ishonchli usullar, morfologik usul sud tibbiyot laboratoriyalarida qullanilmaydi, chunki, qonning shakliy elementlari burishib, uz shaklini o'zgartiradi va ularni aniklash mumkin bo'lmay koladi, mikrokrystal va spektral usullari qo'llaniladi. Mikrokrystal tajribalari gemin va gemaxromagaen kristallarini topishga asoslangandir. Keyinchalik, gemin kristallaridan boshqa galloidlardan (yod-gemin, brom-gemin va xakozalar) ajratib olish mumkinligini aniqlangan. Spektral usullari dog'da gemoglobin va uni xosilalarini aniqlashga asoslangan. Mikrokrystal va spektral tajribalarini ijobiy natijalari dog'da qon mavjudligini ko'rsatadi, biroq eng yomon tajriba xam uning yo'qligini ko'rsatib berolmaydi. Chunki, tashqi muxitning ko'pgina omillari bu tajribalarga (reaksiyalarga) yomon ta'sir qilishi mumkin. Natijada mazkur usullar natija bermaydi. Agar qon izlar moybuyoklar, sement, tuprok, oxak, yog, mazut, benzin, kerosin va boshqa yoqilg'i moddalari: sovun, zang, gung va xakozo ifloslantiruvchi moddalar; dog'lar qotib qolganda, chirish orqali kelib chiqadigan o'zgarishlar yuz berganda, yo'qori temperatura ta'sir kilganda, kuyosh nurlari, yuvuvchi moddalar va boshqa bir kancha omillar tufayli ifloslangan bo'lsa, unda mikrokrystal va spektral reaksiyalar yaxshi natija bermaydi. Va nixoyat, gemoglobin xosilalariga xos bo'lgan spektral (gemoxromogen) qonga tegishli bo'lmagan izlarni tekshirganda xam xosil bo'lishi mumkin. Masalan, tabiyatda keng tarkalgan sitoxromlar ijobiy reaksiya berishi mumkin. Shuning uchun xam ancha oddiyrok va kulayrok (samaralirok) bo'lgan boshqa usullarni izlash boshlandi. Xromatografik usul shulardan biridir. Xromatografiyaning keng tarqalgan ko'pgina ko'rinishlaridan biri kog'ozda xromatografik usulni ko'llashdir. Yuqorida ko'rsatilgan tuprok aralashmasi, sement, go'ng, zang, ganch, oxak, qum, xlorafilla, yoqilg'i moddalari, moy buyoqlar va boshqalar xromatografiyaning tozalash va ajratish xususiyatiga ko'ra, qon dog'larining xromatogrammalariga o'z ta'sirini o'tkazamaydi. Mazkur usul ayni paytda keng tarkalgan usullardan biridir. Bajarilish texnikasiga ko'ra kog'ozli yoki yubqa katlamli xromatografiyalariga bo'linadi. Bulardan birinchisi eng kulayrog'i ekan. Uni bajarish juda oson bo'lib, bir qator analizlar olish imkonini beradi. Yo'qoriga yo'naltirilgan xromatografik usulni bajarish uchun oddiygina

asboblar – shisha idish, naychalar va xokazolar kerak xalos.

Dog‘dagi qonning inson yoki xayvonga mansubligini anig‘lash.

Izlarda qon mavjudligini aniqlangach, endi uning kimga tegishli bo‘lsa, kanaka turdagi xayvonga tegishli ekanligini xal kilish kerak. Sud tibbiyot fani tajribasida qon turlari immunologik (zardoblar yordamida) usul bilan aniqlanadi, yanada aniqrog‘i pretsipitatsiya reaksiyasi orqalim amalga oshiriladi. Uni kashf kilgan kishining nomi bilan Chistovich-Ulengut tajribasi deb xam yuritiladi. Pretsipitatsiya tajribasi qon turlarini (xillarini) kashf qilmaydi. Balki oqsil turini aniqlaydi. Chunki, tajribalardagi yaxshi natijalar nafaqat qonning ma‘lum bir turi bilangina olinmasdan, balki organizmning shaxvatidan, teridan, ko‘z-yosh suyukligidan, siydigidan, so‘lagi va xokazolardan xam olinishi mumkin.

Pretsipitatsiya zardoblari xayvonlarni immunizatsiya yuli bilan olinadi. Ko‘pchilik xollarda kuyonlarni immunizatsiya qilishadi. Agar quyonga inson qoni zardobini yuborishsa, uning organizmi shu oqsilga karshi antitana (pretsipitinlar)lar ishlab chiqaradi va quyondan olingan bu zardob inson oqsilini pretsipitatsiyalovchi zardob deb yuritiladi. Xuddi shu yo‘l bilan qoramollar, itlar, otlar, chuchqalar, qushlar va xakozolarni oqsili orqali pretsipitatsiyalovchi zardoblar olindi. Zardoblar tiniq va shaffof bo‘lishi kerak. Qon turlarini aniqlash ikki xil variantda – suyo‘q va kuyo‘q (gel) xolida bajariladi. Ulardan birinchisi amalda juda keng qo‘llaniladi. Izlardagi qon turini aniqlash uchun, fiziologik eritma yordamida ulardan siqma suyuklik tayyorlanadi. So‘ngra siqmani 1:1000 nisbatda suyultirib, agar eskirmagan yangi dog‘ni bo‘lsa (taxminan, poxol tusidagi sariq rangda) ko‘prok shubxa ostiga olingan inson yoki xayvon turining oksili bilan zardobni bir-biriga sekin-asta, ustma-ust qatlama quyishadi.

Ushbu tajriba tubi tor maxsus qonik probirkalarda o‘tkaziladi. Ularni Chistovich-Ulengut probirkalari deb xam yuritiladi. Agar odam oksil moddasini pretsipitatsiyalovchi zardob bilan dog‘dan olingan siqma suyukligi oralig‘ida oq xalkasimon pretsipitatsiya chizigi xosil bo‘lsa, unda qon dog‘i odam (inson)ga mansub deb aytiladi.

Agar tekshirilayotgan ob‘ektlarda biror xayvon, masalan, yirik shoxli koramol, it, cho‘chqa va xokazolar qoni borligiga shubxa qilinsa, unda pretsipitatsiya reaksiyasi shu xayvonlarning oqsilini pretsipitatsiyalovchi zardoblar yordamida amalga oshiriladi.

Pretsipitatsiya tajribasi nafaqat suyo‘q xolda, balki agar katlamida xam o‘tkaziladi. Eritilgan agar, buyum oynachasiga yupqa qatlam qilib kuyiladi. Agar qatlami kotgandan keyin, unda uymachalar xosil kilinadi. Ulardan takkoslash uchun, buyum tashuvchi (chap tomonidan) va dog‘lardan olingan siqmalarni (o‘ng tomonidan) ko‘yiladi.

O‘rtadagi uymachalar atrofida yana uchtdan, aloxida uymachalar uyib olinib,

ularning uyiqlariga odam oqsil moddasini prsipitatsiyalovchi (Od) va boshqa ikki xil oqsil moddalarini pretsipitatsiyalovchi zardoblar, masalan, parranda (P) oqsil moddasini, koramol (KM) oqsil moddasini pretsipitatsiyalovchi spetsifik immun zardoblari quyiladi. Zardob (antitana) va siqma (antigen) suyo'qliklari, agar qatlamiga surilib bir-biri bilan uchrashadi. Agar antitana va antigen gomologik bo'lsa, ular oraligida ok rangga ega bo'lgan pretsipitatsiya chizig'i xosil bo'ladi. Agarda antigen (siqma) va antitana (zardob) geterologik bo'lsa, unda mazkur chiziq xosil bulmaydi.

Agar qatlamida pretsipitatsiya o'tkazish tajribasini boshqa, mukammalashtirilgan usul bilan o'tkazish mumkin. Uning uchun agar suyo'qligini tarkibiga inson yoki boshqa oqsil moddasini pretsipitatsiyalovchi zardoblarini qushib agar qatlami tayyorlanadi. Agar kotgandan keyin unda dumaloq shaklli chuqurchalar uyib olinadi. Mazkur chuqurchalarda qon dog'idan va qon dog'i atrofida toza to'qimadan (buyum tashuvchi matodan) olingan siqmalar quyiladi. Mabodo, agar katlamida (diffuziya jarayonida) chuqurcha atrofida oq pretsipitatsiya xalkasi paydo bulsa, unda mazkur siqmada usha pretsipitatsiyalovchi zardobda gomologik oqsil moddasi borligini ko'rsatadi. Masalan, pretsipitatsiya xalqasi qoramol pretsipitatsiyalovchi zardobi eritmasidan tayyorlangan bo'lsa, unda dog'da qoramol qoni mavjudligini ko'rsatadi. Agarda mazkur xalka pretsipitatsiyasi inson zardobi suyo'qligidan tashkil topgan agar qatlamida xosil bo'lsa, unda dog' odam qoniga mansubligini ko'rsatadi. Buyum tashuvchi (toza qontorl) matodan tayyorlangan sikma atrofida ok rangli pretsipitatsiya xalqasi (doirasi) paydo bulmaydi.

Agar dog'da odam qoni topilsa, unda u qon kaysi insonga mansubligi aniklanadi. Mazkur savolni yechish uchun odam qonidan paydo bo'lgan dog'da izoantigenlar tekshiriladi. Ayni paytda eritrotsitlar, zardoblar, leykotsitlar va fermentlar izoantigenlari tafovutlanadi. Ularda birinchi va ikkinchi turkumlari sud tibbiyot amaliyotida ko'prok ishlatiladi.

Odam qoni asosiy sistemalari

Izosistemalar	Sistemalari	Guruxlari
	AVO MN R(Pi) (rezus)	O, A, V, AV R
Eritrotsitlar	(lyuis) (Lassern)	Jami 80 ortik variant-lari

	Kr (Kir) Gi (Daff) D (Diego) Xu (Keay)	
Zardoblar	Gaptoglobin(Nr) Gamma – globulin (O) 1 p u Os	Nr 1-1, Nr 2-1, Nr 2-2. (+1), (-1), (+2), (-2), (+3), (-3), (+4), (-4) va boshqa. 1Pu (+1), 1Pu (-1), 1Pu (+2), 1Pu (-2), 1Pu (+3), 1Pu (-3). Os 1-1, Os 2-1, Os 2-2.

Demak bir odamning qonini ikkinchi odam qonidan farqlanishi qon tarkibidagi immunobiologik xususiyatlariga bog‘lik. Ularni aniklash, eng birinchi AVO eritrotsitlar sistemasi tekshirilishidan boshlanadi. AVO sistemasi IV guruxga bo‘linadi. Agar daliliy ashyoda topilgan odam qoni ish buyicha tekshirilgan ikki gumondor qoni bilan tug‘ri kelsa, ya’ni ular bir xil bo‘lsa (AVO sistemasi buyicha), unda qonda boshqa sistemaga mansub guruxlar, masalan MN guruxlari tekshiriladi. Agar mazkur sistemasi bilan xam farqlanmasa, unda R sistemasi yoki boshqa sistemalari (lozim deb topilganda zardoblar sistemasi xam) tekshiriladi.

Namuna uchun keltirilgan (yoki olingan) qonlar tekshirilgach ekspert daliliy ashyolardagi qonni tekshiradi va ularni namunali qonlar bilan solishtiradi. Agar daliliy ashyolarda topilgan qon gumonlanuvchi shaxs qoni bilan tug‘ri kelmasa, ekspert topilgan qon uning qoni emas deb javob berishi mumkin. Ammo uning qoni bilan tug‘ri kelgan takdirda, shubxasiz daliliy ashyoda topilgan qon shu shaxsning qoni deb ayto olmaydi, chunki boshqa shaxslarning qoni xam shu guruxga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ekspert daliliy ashyoda topilgan qon boshqa kishi qonidan xosil bo‘lishini inkor etishi mumkin emas. Albatta qancha ko‘p antigenlar sistemasi tekshirilsa, shuncha ishonchli bo‘ladi. Eritrotsitlar sistemasiga tegishli antigenlarni qon dog‘ida aniqlash bir necha usullardan iboratdir, ulardan eng ko‘p qo‘llaniladigan: agglyutininlar absorbsiyasi, absorbsiya-elyutsiya va aralash agglyutinatsiya usullari xisoblanadi.

Agglyutininlar absorbsiyasi orqali aniqlash uchun aniq titrli alfa (anti-A) va beta (anti-V) agglyutininlari bilan qon dog‘iga 18-24 soat davomida aloxida ishlov berib, terining pasayishiga asoslanib qonning antigeni kaysi guruxga mansubligi aniqlanadi. Masalan, alfa zardobining dastlabki 1:32 teng bo‘lgan titri

absorbsiyadan keyin 1:4 tug'ri kelib, beta zardobining titri o'zgarmasa, unda daliliy ashyoda topilgan odam qoni A antigeniga mansub deb topiladi.

Agglyutininlar absorpsiyasi reaksiyasining kamchiligi shundan iboratki, uni bajarish uchun qon dog'idan nisbatan ko'p miqdor ishlatiladi. Absorpsiya-elyutsiya va aralash agglyutinatsiya usullari materialdan kam miqdorni talab etsada, bu ikkala usullar murakkabligi va ko'p probirkalar talab kilishi tufayli amaliyotda xar doim xam kullanilmaydi (fakat material kamligida ishlatiladi). Yuqorida takidlab utilgan kamchiliklarni bataraf etish uchun, ayni paytda AVO sistemasining antigenlarini aniklash uchun affin xromatografiya usuli tavsiya etilgan. Mazkur usul, xromatografiyaning ifloslangan ob'ektni tozalash xususiyatiga ega bulganligi, sezgirligi va oddiyliigi tufayli sud tibbiyotida muxim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usulning moxiyati shundan iboratki, qon dogidan olingan tola xromatografik kogozning start chizigiga kistirilib, kogozni xromatografik kameraga kuyib, dog ustidan kapillyar surilish xususiyatiga asoslanib cheksiz suyultirilgan anti-A va anti-V zardoblari o'tkaziladi. Natijada antigen fakat uzining gomologik antitanasini suyuklikdan tortib oladi. Agar surilayotgan suyuklik tarkibida geterologik antitana mavjud bulsa, unda qon dogidan olib kistirilgan tolaga surilmasdan tugridan – tugri, suyuklik okimi bilan utib ketadi. Mazkur usulning avzalligi shundaki, u orkali bira tula bir nechta ob'ektlarni tekshirish mumkin. Undan tashqari, xromatografiya usuli bilan qon mavjudligi aniklangan ob'ektlarning uzida xam AVO sistemasiga mansub antigenlarni aniklash mumkin.

Qon dogida eritrotsitlar sistemasidan tashqari zardob sitemasi xam tekshiriladi. Ushbu sistemadan ko'pincha gaptoglobin va gammaglobulin sistemalari tekshiriladi. Gaptoglobin (Nr) elektroforez orkali aniqlanadi. Uning quyidagi guruxlari tafovutlanadi Nr 1-1, Nr 2-1, Nr 2-2. Gammaglobulin (Gm) 20 dan ortiq guruxlarga bo'linadi. Shuningdek, Gc, ya'ni gurux spetsifik komponentlari xam aniqlanadi. Zardob sistemalari nasldan-naslga o'tadigan sistemadir. Qon dog'ining ekspertizasini o'tkazishda eritrotsitlar javxar fosfotazasi, xolinesteraza, fosfatdegidrogenaza va boshqa izofermentlari xam tekshiriladi.

Dog'ni individuallashtirish uchun qonning kaysi jinsga mansubligini aniqlash muxim ahamiyat kasb etadi. Uning uchun dog'dan sikma tayyorlanib, uning surtmasida leykotsitlar yadrolari tekshiriladi. Ayollar leykotsitida jinsiy xromasomalaridan biri xromasoma tanachasiga aylanib, leykotsit yadrosini chetlashtirib o'simta xosil qiladi. U baraban tayokchasini yoki raketa shaklini eslatadi. Erkaklar leykotsit yadrosida xromasomalar tuguniga joylashgan bo'ladi. Agar qon dog'i siqmasida baraban tayyoqchasi shakli ko'p miqdorda topilsa, unda qon ayol jinsiga mansubligini ko'rsatadi.

Ayrim vaktlarda qon dog'ini regional kelib chiqishini aniqlash muxim rol uynaydi. Masalan, qon dogi xayz qonidan xosil bulganligi yoki tananing boshqa qismidan

oqqanligi aniqlanadi. Xayz qoni bachadon shillik pardasining elementlari mavjudligi bilan ta'riflanadi. Xayz qonida juda ko'p miqdorda fibrinolitik fermenti xam mavjud. Xayz qonining mavjudligini aniqlash, dog'ni kaysi jinsdan kelib chikishini ko'rsatadi. Agar qon upkadan okgan bulsa, dogning tarkibida o'pka zarrachalari yoki to'qimalari topiladi. Shunga o'xshash, burundan qon ketganda qon tarkibida burundagi elementlar, tug'ri ichakdan qon ketishida najas zarrachalari tekshiriladi va xokazo.

Odam organizmi ajralmalari va sochlarni tekshirish

Agar qon va uni dog'larini tekshirish daliliy ashyolar ekspertizasining 80-85% tashkil etsa, unda qolgan 15-20% organizm ajralmalari va sochlarni tekshirish ekspertizalari tashkil etadi.

Sperma va boshqa ajralmalarni sud tibbiyotiga oid tekshirilishi muxim ahamiyatni kasb etadi, zero mazkur ajralmalar tarkibida qon antigenlariga (AVO sistemasi) mansub antigenlar topilgan. Ularning mavjudligi sperma va boshqa dog'larni qaysi shaxsga mansubligini aniqlashda yordam beradi.

Sperma dog'larini (izlari) tekshirish. Sperma suyo'qligi bir qator bezlarning – urug' pufakchalari, prostata, Litre va Ko'per bezlari faoliyati tufayli paydo bo'ladi. Spermaning morfologik tarkibi spermatozoidlar, urug'don xujayralari, leykotsitlar va boshqalardan iborat. Sperma tarkibida ko'pgina fermentlar va aminokislotalar mavjud.

Ekspertiza jarayonida eng birinchi savollardan biri – bu dogda xaqiqatdan xam sperma mavjudligini aniqlashdir. Buning uchun taxminiy va ishonchli usullardan foydalaniladi. Taxminiy usullardan ultrabinafsha, kartoshka sharbatida tekshirish usullaridan foydalanish mumkin. Ishonchli usullarga bir kator tajribalar kiradi. Ularning deyarli xammasi, dog'larda spermatozoidlar mavjudligini aniqlashga asoslangan. Mazkur maqsadga erishish uchun dog' tashuvchi buyumning uzida spermatozoidni topish yoki undagi dog'dan spermatozoidlarni ajratib, keyin ularni aniqlash usullari qo'llaniladi. Ammo, dog' spermadan tashkil topgan taqdirda xam spermatozoidlar xamma vaqt topilmaydi, chunki sperma dog'lari spermatozoidi yuk erkaklar spermasini suyo'qligidan (azospermiya) xosil bo'lishi mumkin, yoki tashki muxit ta'siridan sperma dog'ida spermatozoidlar buzilib parchalangan bo'lishlari mumkin. Shuning uchun sperma ekspertizasining muammolaridan biri bo'lib, sperma mavjudligini morfologik, ya'ni spermatozoidni topish usulidan tashqari boshqa ishonchli usullarni ishlab chiqarish vazifalari turibdi. Bu vazifani yechish uchun xozirgi zamon talabiga javob beruvchi usullardan xromatografiya usullaridan foydalanish mumkin. Xromatografik (kog'oz, yoki yupka kavat xromatografiyalari) usuli kichkina dog'ning tarkibida bir qator sperma uchun spetsifik bo'lgan moddalarni, chunonchi xolin, spermin, fosfataza javxarini kompleks aniqlashga asoslangan.

Sperma mavjudligi aniqlangandan keyin, ekspert, sperma dog'ida AVO sistemasiga mansub antigenlarni aniqlaydi, chunki ularni aniqlab turib sperma dog'i kaysi qon guruxiga mansub erkak urug' suyukligidan xosil bo'lgani aniqlanadi. Shuni xam takidlash kerakki, erkak kaysi qon guruxiga mansub bo'lsa, uning spermasida shu guruxga mansub antigen topiladi. Masalan, agar sperma dog'ida antigen A topilsa, unda bu dog' ikkinchi qon guruxiga tegishli erkakdan xosil bo'lgan deb uylash mumkin. Agar gumon kilinayotgan erkakning qoni uchinchi (V) yoki birinchi (O) guruxga tegishli bo'lsa, unda bu dog' mazkur erkakdan spermasidan xosil bo'lmagan deb xulosa berish mumkin. Daliliy ashyolarda topilgan sperma dog'ini kaysi shaxsga mansubligini aniqlashda yana bir narsaga e'tibor berish lozim. Bu xam bo'lsa "ajratuvchi" xususiyatlardir. Shaxslar ikki guruxga bo'linadilar. Ularning bir guruxi (85%) uz spermasi, sulagi, ter, kuz yosh suyukligida va boshqalar orkali AVO sistemasiga mansub antigenlarni ajratadi, ya'ni ular tarkibida mazkur antigenlar mavjud bo'ladi. Ikkinchi gurux shaxslar (15%) esa qon guruxiga mansubli antigenlarni (AVO sistemasini) ajratmaydi, ya'ni ular sulagi, kuz yoshi, ter, peshobida qon guruxiga mansub AVO antigenlar topilmaydi, chunki ular ajralmaydi.

Organizmning mazkur xususiyati sud tibbiyoti amaliyotida muxim ahamiyat kasb etadi. Masalan, daliliy ashyolarda topilgan sperma dog'larida antigen V mavjudligi aniqlansa, gumon qilingan erkak qoni xam V guruxiga tegishli bo'ladi, lekin uning so'lagida mazkur antigen topilmasa, unda sperma dog'i bu erkakning spermasidan paydo bo'lmagan deb aytiladi.

Dog'da so'lak mavjudligini aniqlash unda ptialin moddasining aniqlanishiga asoslangan; ter mavjudligini aniqlash amino kislota – serin moddasini topishga asoslangan; peshobni aniqlash esa dog'da kreatinin moddasini topishga asoslangan. Sulak, ter, peshob mavjudligi aniqlangandan sung, dog'ni kaysi insonga mansubligi aniqlanadi. Buning uchun AVO sistemasiga mansub antigenlar aniqlanadi. Aniqlash usuli qon va sperma dog'larini anig'lash usuliga o'xshashdir.

Sochlarni tekshirish. Daliliy ashyo sifatida sochlar voqea sodir bo'lgan joyda, kurollar, kiyimlar, jabridiyda yoki gumondor shaxslarning tanasida, avtomashina parragi va boshqa buyumlarda bo'lishi mumkin. Ularning tekshirilishi, ayrim vaqtlarda qotillik va boshqa jinoyatchilikni yechishda muxim ahamiyatni kasb etadi. Sochlarni tekshirish jarayonida bir qator savollar yechiladi. Avvalom bor tekshirilayotgan ob'ekt xaqiqatdan xam sochmi, agar soch bo'lsa odam sochimi yoki xayvonniki, agar xayvon sochi bo'lsa, kaysi xayvonga mansub, agar odam sochi bo'lsa, u tananing kaysi kismiga mansub, sochlarda jaroxat mavjudligini aniqlash, agar mexanik jaroxatlar yetkazilgan bo'lsa, ular kaysi buyumlar bilan yetkazilgan – o'tkir, o'tmas, o'k otar qurollar bilan yetkazilganmi, sochlar izlari tushganmi yoki ular yulinganmi va xokazo. Deyarli xamma vaqt, tergov xodimlarini

qiziqtiradigan savollardan biri – bu daliliy ashyoda topilgan sochlar gumonlanuvchi shaxs sochlari bilan solishtiriladi. Birinchi, ya'ni tekshirish uchun yuborilgan ob'ekt sochmi yoki soch emasmi degan savolning yechilishi sochning morfologik tuzilishini aniqlashga asoslangan. Sochning uzi uch kavatdan iborat. Eng ustki qavati kutikula deb ataladi. U cherepitsasimon joylashgan yassi to'qimadir. Ikkinchi qavati pustloq qavati deb nomlanadi. Uchinchi qavat esa bu sochning o'zagi (magzi) xisoblanadi. Mazkur uch kavatlarning mavjudligi ob'ektning shubxasiz sochligi belgisidir. Sochning xayvonga yoki insonga mansubligi mikroskop yordamida aniqlanadi va uning tuzilishi xususiyatlariga asoslangan. Inson sochining kutikula izlari olinadi, ular notekis, chiziqlari bir-biriga yaqin joylashgan, pustloq qavati soch qalinligining asosiy qismini tashkil etadi, undagi pigmentlar chetda joylashgan, sochning uzagi (magzi) ingichka bo'lib ayrim joylarida uzilib oralchasimon joylashgan.

Xayvonlar sochlarining asosiy kismini o'zak tashkil etadi, pustlok qavati ozgina qismini tashkil etib, undagi pigmentlar asosan sochning uzak tomoniga qarab joylashgan. Odam sochining regional kelib chikishini aniqlash uning uzunligi, shakli, rangi, kundalang kesimini o'rganishga asoslangan. Masalan, bosh sochining kundalang kesimi ovalsimon shaklda bo'lsa, muylov-kov sochlarini kundalang kesimi uchburchak shaklga ega. Daliliy ashyoda topilgan odam sochining qaysi shaxsga mansubligini aniqlash uchun boshqa turli tuman uslublar xam tavsiya etiladi. Masalan, sochlarni refraksiyasini aniqlash, ularni nur o'tkazish xususiyati, kutikula izlarining aniq bir masofadagi soni, kundalang kesimining maydon kengligi, uzulishga ko'rsatadigan qarama-qarshi kuchi, mikroelementlar tarkibi va boshqalar. Agar soch tortilish jarayonida asta sekinlik bilan uzilsa, unda uning uzilgan joylari zinasimon shaklda bo'ladi, agarda birdan siltanib tortish jarayonida uzilsa, unda uning uzilgan joylari nisbatan tekis bo'ladi.

Sochning jaroxatlangan joylari uziga xos morfologik xususiyatlarga ega. Agar soch sartaroshxonada kirilgandan keyin ko'p vaqt utmagan bo'lsa, unda uning kaychi bilan kesilgan joylari, nisbatan tekis, burchaklari o'tkir, satxi qiyshiq yoki kundalang bo'ladi. Agar sochga o'tmas buyum bilan jaroxat yetkazilsa, unda o'sha jaroxat yetkazilgan joyda sochning kengayishi, siqilib sipirgisimon tolachalarga ajralgan xolati kuzatish mumkin. Agar yo'qori darajali xarorat (alanga) ta'sir etgan bo'lsa, unda sochda, mikroskop orqali, mayda pufakchalarni qurish mumkin. Makroskopik kurinishi kulrang-sariq bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan sochning kesilgan satxi dumaloqlanib silliqqlanadi. Kesilmasdan o'sib chiqqan sochning uchi ninasimon ingichkalashgan shaklga ega bo'lib, silliqqlangan bo'ladi. Tergov xodimlarini, ayrim xollarda, sochning kaysi jinsga mansubligi kiziqtirishi mumkin. Buning uchun ekspert soch ildizlarida erkak yoki ayol xromatinlarini izlash lozim. Kimyoviy, biokimyoviy, biofizik usullar orqali erkak yoki ayol jinslariga mansub

mikroelement tarkiblarini aniqlash mumkin. Agar soch uzi tushgan bo'lsa, unda uning ildizi noksimon, silliqangan, atrofiyaga duchor bo'lgan bo'ladi. Agarda yulingan bo'lsa, unda uning ildizi kolbasimon, bukilgan, uning atrofida og'darilib turgan ildiz qismining pardasi ko'rinadi. Demak, uzi tushgan yoki yulingan soch izlari bir-biridan kesin farqlanadi. Soch tarkibida qonning AVO sistemasiga mansub antigenlar topilgan. Ularni aniqlash uchun turli-tuman usullar tavsiya etilgan bo'lib, ulardan affin xromatografiya usuli hozirgi zamon usuli deb xisoblanadi. Sochning guruxini bilish uning qaysi shaxsga mansubligini aniqlashda muxim rol uynaydi.

Sud kimyo ekspertizasi va tekshiruvlarini o'tkazish qoidalari

Ko'pgina toksik xususiyatlarga ega bo'lgan moddalar qon tarkibida va xossalariga ta'siri kuchlidir. Bunday moddalarga mishyak, anilin, ksilol, ba'zi o'simlik zaxarlari kiradi. Bular bilan bir qatorda ma'lum bir gurux zaxarli moddalar borki bular faqat aloxida qonga ta'sirini ko'rsatadi. Bu gurux zaxarli moddalar qonga ta'sirini ko'rsatadigan zaxarlar deb ataladi. Jumladan gemoliz chaqiruvchi metgemoglobin va karboksigemoglobin xosil qiluvchi moddalardir. Sud tibbiyot amaliyotida karboksigemoglobin xosil qiluvchi moddalar (uglerod oksidi) bilan zaxarlanish boshqa qonga ta'sir qiluvchi zaxarlardan turlari orasida aloxida o'rin tutadi. Uglyerod oksidi bilan zaxarlanish darajasidan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Uglyerod oksidi yoki is gazi kumirning chala yonganidan xosil bo'ladi. Toza xolda rangsiz, xavodan yengil, xidi yuk gaz. Tabiatda xar xil gazlar tarkibida uchraydi. Uglyerod oksidi o'pka orkali qonga surilib, gemoglobin bilan bog'lanadi va turgun birikma karboksigemoglobin xosil qiladi. Ma'lumki kislorodga nisbatan is gazi gemoglobinga birikishi 300 marta kuchlidir. Shuning uchun xam uglyerod oksidi bilan bog'lanib olgan gemoglobin kislorod bilan birikishi xususiyatini yo'qotadi, natijada a'zo va to'qimalarda kislorod yetishmasligi, yanigipoksiya xolati kelib chiqadi. Zaxarlanish darajasi qonning uglyerod oksidi bilan tuyinishiga bog'lik bo'ladi. Is gazi gemoglobin bilan birikishi 50% ko'p bo'lsa o'lim sodir bo'lishi mumkin. Zaxarlanish tashxisoti analiz ma'lumotlariga, zaxarli moddaning kimeviy taxliliga, kechishiga va ma'lum toksilogik tekshiruvlarga asoslanadi.

Murdani sud-tibbiyot ko'rigidan o'tkazilganda och-kizil rangda. Murda dog'lari, ichki a'zolar va mushaklarni shu rangga kirganligi o'lim sababini aniqlashda katta yordam beradi.

Tabiatda metgemoglobin xosil qilish xususiyatlariga ega bo'lgan moddalar xam juda ko'p. Bularga xlorli kaliy (Bertolev tuzi) azot, saqllovchi tuz (nitratlar), nitrobenzol, nitroglitserin va boshqalar kiradi.

Metgemoglobin oksigemoglobindan farqi shundan iboratki, bunda gemoglobin tarkibidagi temir uch valentli xolatda (oqsil yoki gemoglobinda esa ikki valentli) va kislorod temir bilan gidroksil guruxi orqali bog'langan bo'ladi. Metgemoglobin oksigemoglobinga nisbatan kuchli va turg'un birikma xisoblanadi va natijada kislorod yetishmovchiligini rivojlanishiga olib keladi.

Klinik kechishida - kislorod yetishmasligi, ya'ni asfiksiya belgilari aniqlanadi: yuzning ko'karishi, nafas qisishi, bosh aylanishi va bosh og'rishi, kollaps xolati, teri kul rang tusiga kiradi. Ulim yuz berganda murda dog'lari xarakterli xo'l yoki jigar ranga kirganini kuzatish mumkin. Kon va siydikda metgemoglobin ko'p miqdorda aniklanadi. Ayrim funksional zaxarlar o'zining kimyoviy tarkibi va miqdoriga bog'lik xolda kuchli yoki kuchsiz ta'sir kilish xususiyatiga ega. Sud. tibbiyot amaliyotida gipoksik xolatlar chaqiruvchi zaxarlar (sian birikmalari, serovodorod, uglerod dioksidi) bilan zaxarlanishlar ahamiyatlidir.

Sianidli birikmalar bilan zaxarlanish hozirgi vaqtda kam uchraydi. Sinil kislota sof xolda faqat maxsus laboratoriyalarda bo'ladi. Ayrim mevalarning danaklari tarkibida (shaftoli, o'rik, olcha, olxuri, bodam) sinil kislotasi ajralib chiquvchi glyukozid bo'ladi. Shuning uchun bu mevalarni ko'p iste'mol kilganda zaxarlanish mumkin.

Sianid birikmalari organizmga og'iz orkali tushib og'iz, kizil ungach, oshkozon shillik kavatlardan tez surilib konga o'tadi. Kon orqali bu birikmalar to'qimalarga o'tgandan keyin ularda aktivlashadi.

Sian guruxi nafas fermenti - sitoxromooksidazani turg'un xolatga aylantirib kuyadi. Buning oqibatida to'qimalarni qondan kislorodni qabul kilish xususiyati buziladi va tukimalarning chuqur gipoksiyasi kelib chiqadi. Birinchi navbatda bosh miyaning asab xujayralari zaxarlanadi va natijada nafas va qon tomir markazlari falajga uchraydi.

Toza sinil kislotaning o'ldiruvchi miqdori 0,005-0,1 g., sianli kaliyda 0,15-0,25 g.

Katta dozalarda o'lim juda tez bir ikki daqiqa davomida yuz beradi. Bunda birdaniga xushining yukotishi, talvasalar, nafas qisishi, ko'z korachiginig kengayishi va o'lim yuzaga keladi. Kamrok miqdorda ta'sir etganda zaxarlanish belgilari 5-10 daqiqadan keyin kelib chiqadi. Bunda avval kungil aynish, qusish kuchayib borib xolsizlik, talvasa kuzatiladi va xushi yo'qolib nafas va yurak faoliyati tuxtaydi. Zaxarlanishning davomiyligi 15- 40 daqiqagacha bo'ladi.

Seksiyada qurilganda tez kelib chiqqan o'lim belgilari aniqlanadi. Murda dog'lari tuq kizil rangga, qon suyo'q xolda va qizil rangda bo'ladi. Bo'shliqlardan, o'pka va bosh miyadan achchiqbodam xidi keladi. Zaxarlanishga tashxis quyishda

quyidagilarni sud-kimyoviy tekshirish muxim ahamiyatga ega: oshkozon, qon, bosh miya, jigar, buyrak va siydik.

Serovodorod - rangsiz gaz, xavoga nisbatan og'irrok. Kuchsiz konsentratsiyalarda aynigan tuxum xidiga ega. Ko'p miqdorda bo'lsa burun shillik kavatining asab retseptorlariga kuydiruvchi ta'sir qiladi, shuning uchun sezilmaydi. Bu gaz organik moddalarining chirishidan xosil bo'ladi. Serovodorod bilan zaxarlanish odatda nafas yullari orqali kiradi. Buyraklardan oltingugurtning oksidlangan birikmalari (metabolit) xolida chiqib ketadi. O'pkadan esa o'zgarmagan xolda chiqadi.

Serovodorodning ta'siri sianidli birikmalar ta'siriga o'xshash, ya'ni nafas fermentlarini tormozlab, to'qima gipoksiyasini keltirib chiqaradi. Zaxarlanishning og'ir-engilligi zaxarning xavodagi miqdoriga bog'lik. Ogir zaxarlanishlar talvasalar bilan kechadi. Bunda tez va chuqur xushini yukotish, reflekslarning pasayishi, gallyutsinatsiyalar, kon tomirva nafas faoliyatining zaxarlanishi va o'pka shishi kelib chiqadi. Komatoz xolat o'lim bilan tugashi mumkin.

Yuqori konsentratsiyalar bilan zaxarlanganda nafas markazining birdaniga falajlanishi tufayli tezdan-tez o'lim kelib chiqadi. Serovodorod bilan zaxarlangan kishi murdalarini sud-tibbiy tekshirishda bo'shliqlari, ichki a'zolari, ayniqsa o'pkasidan sasigan tuxum kelib turadi.

Sud-kimyoviy tekshirish uchun murdaning qoni, miyasi, o'pka, jigar, buyrak va siydik olinadi.

Uglerod dioksidi - xidsiz gaz, bijg'ish protsesslari bo'ladigon joylarda yig'iladi. Uning yo'qori konsentratsiyalarida (30% va undan oshik) xansirash, ko'karish, xushining yo'qotishi, talvasa kuzatiladi va tezda o'lim yuzaga kelishi mumkin. Tashxis ko'yishda voqea sodir bo'lgan joydagi xavo analizi katta ahamiyatga ega. Xavodagi mumkin bo'lgan konsentratsiyasi 50 mg. Etil spirti turli ichimliklar tarkibiga kirib kuchli, zaxarli xususiyatga ega va ko'p iste'mol qilinganda og'ir zaxardanishlar kelib chikaradi. Etil spirtining odam uchun o'lim chaqiruvchi dozasi 200-350ml., (90% yakin) organizmda oksidlanishga uchraydi. Qolgan kismi esa o'pka orkali va siydik bilan chiqib ketadi. Bir soatda organizmda 7-9 ml atrofida etil spirti oksidlanadi. Uning surilishi o'rtacha 1-3 soatgacha davom etadi. Etil spirti oshqozon va ichaklarda butunlay so'rilib bo'lgandan keyin, uning kondagi miqdori kamayib, siydikdagi miqdori oshib boradi. 70-80kg. Odamning konida 2-2,5 g-l yoki 2-2,5 promille konsentratsiyada etanol bo'lsa o'tkir zaxarlanish ko'rinishi kelib chikadi. Konda 3-4 promille bo'lganda og'ir zaxarlanish va 5-5,5 promille esa o'limga olib kelishi mumkin. Lekin alkogolning kondagi miqdori zaxarlanish darajasini aniq ko'rsata olmaydi. Zaxarlanish darajasi

qobulqilingan ochimliklari sifati, miqdoriga, odam og'irligiga, organizimning individual reaksiyasiga, yoshiga, qabul qilingan ovqatiga, odamning ruxiy va jismoniy xolatiga, o'zgarishga va omillariga bog'liqdir

Etil spirti birinchi navbatda tormozlanish jarayoniga tasir etadi. Yo'qori konsentratsiyalarida qo'zg'alish protsessini xam susaytiradi. Keyin esa xushning yo'qolishi, nafas va qon-tomir markazlari faoliyatinig susayishi kelib chiqadi. Etil spirti yuqori dozasi va uning tasirida periferik nerv tizimida impulslar uzatilishi buziladi. Og'ir zaxarlanishlarda o'tkir yurak-kon tomir yetishmovchiligi kelib chiqadi. Sud-tibbiyot amaliyotida alkogol bilan zaxarlanish darajasi va o'limning bevosita etil spirtidan o'tkir zaxarlanish natijasida kelib chiqqanligi aniqlanadi. Alkogoldan zaxarlanish uch darajaga bo'linadi: yengil, urtacha og'ir, va og'ir. Yengil darajadagi zaxarlanishda kuzg'alish xarakatining buzilishi, yuzning kizarishi bo'ladi. O'rtacha og'irligidagi zaxarlanishda nutq va xarakat koordinatsiyalari buziladi. Odam ko'pol, jaxldor bo'lib qoladi. Keyin esa uyqu yuzaga keladi.

Og'ir darajadagi zaxarlanishda reflekslarni pasayishi, og'rik va sezgini sustligi va yukotishi kuzatiladi. Alkogolli koma, nafas faoliyatinig buzilishi va falaj rivojlanadi. Ko'pincha kayt kilish oqibatida ovqat massalari nafas yullariga tiqilib qolishi natijasida mexanik asfiksiya rivojlanadi va o'lim bilan tugashi mumkin.

Alkogol bilan zaxarlanishdan o'lim kelib chiqqanligini aniqlash ancha kiyinchilik tug'diradi. Bunda murdaning to'qima va ichkia'zolarida xarakterli morfologik o'zgarishlari topilmaydi. Alkogoldan o'tkir zaxarlanish tufayli kelib chiqqan o'lim ekspert xulosasi murdani ichki a'zolarini gistologik, qon va siydigini sud-kimyo tekshirishlar o'tkazilgandan keyingina aniqlanadi. Ayrim xollarda o'limning asosiy sababi kasllik bo'lib alkogoldan zaxarlanish esa kushimcha faktor sifatida kelgan bo'ladi. Alkogoldan zaxarlanishdan o'lim sodir bo'lganligiga shubxa bo'lganda sud-kimyo tekshirish uchun ko'yidagilar olinadi: son venasidan shprints bilan 10ml kon probirka yoki flakonga, 10ml siydik, bosh miya suyo'qligi, oshkozon ichidagi moddalar va shikastlangan soxadagi(bosh miya parda ostidagi gematoma) qon kuykalarini xam olinishi kerak bo'ladi. Seksiyada murdani bo'shliklaridan va ichki a'zolaridan alkogol xidi kelib turishi katta ahamiyatga egadir. Lekin ba'zi paytlar alkogol xidi bilinmasligi xam mumkin. Masalan eliminatsiya davrida yoki rezorbsiyani boshlang'ich davrida.

Alkogoldan gumon bo'lgan kishi murdasida quyidagi belgilar namoyon bo'lishi mumkin. Yuzning ko'karishi va bujmayishi, subkon'yuktival kon kuyilishi, ichki a'zolarining qonga tulaqonligi, o'pka shishi, bosh miya yumshok pardasi ostiga

mayda qon kuyilishlari va boshqalari. Ko'pincha siydik pufagini siydik bilan to'lishi kuzatiladi.

Ba'zan etil spirti o'rniga boshqa spirtli ichimliklarga o'xshash moddalar iste'mol qilish, va ularning toksik ta'siri natijasida o'lim yuz beradi. Shunday spirt birikmalari alkogol surrogatlari deb nomlanadi. Bu toksik gurux moddalarga quyidagilar kiradi: denaturlangan spirt, metil spirti, amil, propil, va butil spirtlari, xlorangidrid, dixloretan, etilglikol va boshqalar. Ular bilan zaxarlanishni isbotlash uchun albatta sud-kimyoviy tekshirishlar o'tkaziladi.

Yadoximikatlar bilan zaxarlanish

Qishloq xo'jaligida xashoratlari va yovvoyi o'simliklar bilan kurashish uchun organik xamda anorganik birikmalar- ya'ni yadoximikatlar keng ko'llaniladi. Ta'siriga qarab ular quyidagilarga bo'linadi:

1. Insektitsidlar - kemiruvchilarni yo'q qilish uchun;
2. Gerbitsidlar - yovvoyi o'simliklarni yo'k qilish uchun;
3. Fungitsidlar - o'simlik zamburug'li kasalliklarga qarshi va boshqalar.

Yadoximikatlarning toksik ta'siri ularni organizmga kirish yo'liga va dozasiga bog'lik bo'ladi. Ko'prok yadoximikatlar organizmga nafas yo'llari va og'iz orqali kiradi. Organizmda yadoximikatlar kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi ya'ni oksidlanadi, gidrostatik parchalanadi (gidrolizlanadi), dezaminlanadi. Bu o'zgarishlar ayrim yadoximikatlarni zararsizlantirsa, ayrimlari esa toksik ta'sirini kuchaytiradi. Yadoximikatlarni zararsizlantirish asosan jigar orqali, nafas yullari bilan teri orqali bo'lishi mumkin ular parenximatoz Zaxar xisoblanadi: jigar, buyrak, miokard, oshkozon-ichak trakti, buyrak usti bezi, qalqonsimon bezni shikastlantirib gistologik tekshiruvlarda Ushbu organlarda morfologik o'zgarishlar chaqiradi.

Fosfororganik birikmalarni toksik ta'siri asosida xolinesteraza fermentiga tanlab ta'sir ko'rsatishi va sinapslagi asab impuls berishi jarayonlari buzilishi yotadi. Ular yog'larda yaxshi erish xususiyatiga ega bo'lib teri orqali organizmga tushishi mumkin. Barcha FOBlarning kimyoviy aktivligi past bo'ladi, shuning uchun ularni kimyoviy usulda aniqlash kiyik, faqat biokimyoviy, ya'ni xolinesterazani aktivligi kanchalik darajada pasayib ketganligini aniqlash mumkin.

Miss birikmalari organizmga og'iz va nafas yullari orqali tushadi. Zaxarlanishga xos belgilar quyidagilardan iborat: gemolitik kamkonlik, gepatit, uremiya, yurak faoliyati va nafas faoliyatini buzilishi. Og'ir zaxarlanishda kollaps, talvasa, koma rivojlanishi bilan kechadi va uch turt sutkada o'lim sodir bo'lishi mumkin.

Zaxarlanishning sud tibbiy tashxisoti

Zaxarlanishda sud-tibbiy ekspertiza bir qancha qiyinchiliklar tugdiradi. Birinchidan, odatda zaxarlanish yuz berganda uning klinik kechishi belgilari ekspertga noma'lum bo'lib qoladi, chunki ko'pkina xollarda zaxarlanish paytida guvoxlar bo'lmaydi va o'lim oldidagi axvolini aniqlash juda murakkabdir. Ikkinchidan, ko'p zaxarlar organizmda aniq morfologik belgi qoldirmaydi. Bundan tashqari xozirgacha faqat ma'lum bir zaxarli moddalarni aniqlashda laboratoriya usullari bor. Masalan: usimlik zaxarlarining aksariyatini aniqlash uchun laboratoriya usullari yo'k. Sud-tibbiy ekspertda zaxarlanishga shubxa paydo bo'lgan xollarda xamma mumkin bo'lgan imkoniyatlardan foydalanishi lozim. Zaxarlanish yuz berganligini isbotlash uchun xodisa sodir bo'lgan sharoitdagi yigilgan ma'lumotlar, murdani yorib ko'rganligi belgilari va laboratoriya tekshiruv natijalari asos bo'ladi.

Zaxarlanishning sud-tibbiyoti ekspertizasi to'rt xil isbot topish manbaiga asoslanib o'tkaziladi:

- tergov davrida yig'ilgan ma'lumotlar;
- jabrlanuvchilarni sud-tibbiy ko'rigidan o'tkazish;
- murda tekshirish;
- laboratoriya tekshiruv natijalari.

Birinchi isbot guruxlaridan voqea sodir bo'lgan joydan olingan ma'lumotlar katta ahamiyatga ega. Bunga murda atrofidan olingan daliliy ashyolar (o'lik oldidagi yozuvlar, dori-darmonlar, shubxali shishalar, idishlar va boshqalar) tibbiy xujjatlar, klinik kechishi, uni belgilari va so'roqda yoki boshqa tergov xarakatlarida topilgan ma'lumotlar kiradi.

Tirik shaxslar va murdani tekshirishda zaxarlanishning voqea tafsilotlariga ahamiyat berish lozim. Murdani sud-tibbiy ko'rigidan o'tkazish, uni kiyimini ifodalash, tashki va ichki belgilarini bayon qilishdan iborat. Zaxarlanishda asosiy isbot guruxlariga laboratoriya tekshiruvlari kiradi. Shuning uchun zaxarlanishdan gumon tug'ilganda murdani ichki a'zolari darhol sud-kimyoviy tekshiruvga yuboriladi. Bunda toza shishalarga navbatdagi organlar aloxida olinadi: me'da, ingichka ichak, yugon ichak 1metrdan,1:3 jigar ut pufagi bilan, yurak, taloq, 1:4 upka, bitta buyrak siydik bilan, 1:3 bosh miya. Xamma olingan a'zolarining vazni 2kg dan kam bo'lmasligi lozim.

Zaxarlanishning sud-tibbiy tasnifi

Tibbiyotda zaxarlanishning umumiy qabul qilingan tasnifi yo'k. Sud-tibbiyoti amaliyotida xamma zaxarli moddalar ikki guruxga ajratiladi:

1.Maxalliy zaxarla

Bu guruxga mansub bo'lgan zaxarlar birlamchi ta'sir qilgan soxada shikastlanish yuzaga keltiradi.

2.Rezorbktiv zaxarlar.

Bu zaxarlar qonga so'rilgandan keyingina toksik effekt ko'rsatadigan zaxarlardir. Maxalliy zaxarlarga organik va anorganik kislotalar, ishkoriy moddalar, formalin va uning birikmalari kiradi.

Rezorbktiv zaxarlar uchta tipga bo'linib o'rganiladi:

1.Qonga ta'sir kiluvchi moddalar;

2.To'kimalar destruksiyasini chakiruvchi moddalar;

Z.Organizmda funksional o'zgarishlar chakiruvchi zaxarlar.

O'z navbatida qonga ta'sir qiluvchi moddalar(zaxarlar) ko'yidagilarga bo'linadi:

A) gemoliz chaqiruvchi zaxarlar(zaxarli zamburuglar, xayvon zaxarlari- chayon, korakurt va boshqalar, kimyoviy moddalar).

B) metgemoglobin xosil qiluvchi moddalar(bertoliy tuzi, natriyning azotli tuzi- nitratlar, anilin, dinitrobenzol va boshqalar).

V) karboksigemoglobin xosil qiluvchi zaxarlar(is gazi).

Destruktiv zaxarlarga og'ir metallar, metalloidlilar va ularning ko'pchilik birikmalari kiradi. Sud-tibbiyoti amaliyotida odatda мышыак(margumish) simob va ularning birikmalari bilan zaxarlanish kuzatiladi.

Funksional zaxarlar va ularga mansub bo'lgan preparatlar uchta guruxga bulinadi:

A) umumfunksional, ya'ni gipoksik xolatlar chaqiruvchi zaxarlar (sian birikmalari, serovodord, uglevod dioksidi).

B) serebrospinal (uyku preparatlari, narkotiklar, spirtlar va ularning surrogatlari, talvasa chaqiruvchi moddalar, pestitsidlar va boshqalar).

V) yurakka bevosita ta'sir qiluvchi moddalar (atropin,akotinin, nikontin va muskarin).

Margimushdan zaxarlanib o'lgan odamning murdasini sud-tibbiy tekshirib ko'rilganda ko'yidagilar (belgilari) kuzatiladi:

1. Oshkozon-ichak- turida terining quruqlanishlari, uning elastik xususiyatini yo'qolishi, qorin bo'shligida qon paydo bo'lishi, yurak va yirik qon tomirlarida quyuklashgan va tuk kizil rangda qon, oshkozon shillik qavati kizargan va shishgan, ularning burmalari orasida Zaxar qoldiqlari topilishi mumkin. Ingichka ichak bo'shligida suyuk paxtasimon loyqalari bilan najas, shillik qavati shishgan, limfatik tugunlari biroz shishib pushti rangda.

2. Paralitik turida- patologik o'zgarishlar nisbatan kam, asosan ichki a'zolarida, ayniksa bosh miyada qonga to'lakonlik va uning pardasida shish xamda mayda kon kuyilishlar kuzatiladi. Margimush ichki a'zolarida ayniqsa soch, suyak, tirnoqlarida ko'p vaqt davomida (yillab) saqlanib qolishi mumkin. Shuning uchun murda (bo'laklarni kay axvolda bo'lmasligidan kat'iy nazar) chirigan, mumiyolangan ularni sud. kimyoviy tekshirish darkor. Margimushning o'ldiruvchi dozasi 0,1-0,2 g tashkil etadi.

TIBBIY TERMINLAR

Termoregulyatsiya	Apnoe
Gipotermiya	Atrofiya
Gipertermiya	Gipertenziya
Gipotrofiya	Enteral
Gestatsiya	Parenteral

«MOYCHECHAK METODI»

Afzalliklari:

O'qituvchi tinglovchiga turli murakkablikdagi savollarni beradi

Tinglovchi o'zi bilmagan tarzda savol tanlaydi va javob beradi.

Xar bir tinglovchi ob'ektiv tarzda baholanadi.

Bu metodni o‘tkazishda har bir tinglovchi uchun bir daqiqadan vaqt ajratiladi, bu tinglovchidan tezlik va zukkollikni talab qiladi.

Asosiy qoidalari:

Bu usulni qo‘llashdan asosiy maqsad, tinglovchilar bilimini tekshirish, ularni darsga qay tarzda tayyorlanganliklari

Mustaqil ravishda o‘z ustida ishlab, qanday natijalarga erishganliklarini aniqlash, shu bilan birgalikda ularni baholashdan iborat.


Bu usul uchun oldindan moychechak yaproqlari tayyorlanib, guruhdagi barcha tinglovchilar ishtirok etadilar.

Tayyorlangan moychechak yaproqlari orqasiga savollar yozilgan bo‘lib, har bir moychechak yaprog‘ini tortgan tinglovchi savolni aniqlab oladi va shu savolga javob beradi.

“Moychechak usuli” shu tarzda davom etadi. Usulni o‘tkazish davomida o‘tilgan mavzu takrorlanadi.

Savollarga tez va aniq javob bergan tinglovchilar rag‘batlantiriladi.

Aksincha, kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan tinglovchilar jarima oladilar.



NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. . Sud kimyo ekspertizasi va tekshiruvlarini o‘tkazish

2. Sud biologiya ekspertizasi va tekshiruvlarini o'tkazish qoidalari.
3. Ekspertiza jarayonida ishlatiladigan hujjatlar, ashyoviy dalillarni qabul qilish va saqlash.
4. G'ayri tabiiy o'lganlar nimaga asoslanib tekshiriladi.
5. To'satdan o'limning sabablari va ularning kelib chiqishi.

VAZIYATLI MASALALAR

1). 50 yoshdan oshgan erkak go'sht maxsulotlarini ko'p istimol qilishidan qonida va peshobida siydik kislota va uning tuzlari miqdori keskin oshgan, natijada buyraklari va bo'g'imlari xastalangan.

- 1) Kasalda qanday patologik jarayon rivojlangan.
- 2) Buyrak va bo'g'imlarda rivojlanadigan kasalliklar nomini ayting.
- 3) Bu kasalliklarning morfologik belgilarini ko'rsating.

№	Javoblar	Maks. ball	To'liq javob	To'liqmas javob	Noto'g'ri javob
1	Nukleoproteidlar almashinuvi buzilishi	40	30-40	15-29	0-14
2	Buyrak tosh kasalligi, siydik kislotali infarkt, podagra	30	20-30	5-19	0-4
3	Buyrak kanalchalarida va bo'g'imlar sinovial pardasida natriyli va ammoniyli tuzlar to'langan	30	20-30	5-19	0-4
	Jami	100	70-100	25-69	0-22

2) Qo'ziqorindan zaxarlanib, kasallikning 5-kunida jigar yetishmasligidan o'lgan 36 yoshli erkak kishi autopsiya qilinganda, uning jigari keskin kattalashganligi, ilvillab yumshaganligi, yuzasi va kesib ko'rilganda to'qimasi ham och-sariq rangga kirganligi aniqlandi.

- 1) Diagnoz qo'ying?

- 2) Jigar tashqi ko‘rinishidan qanday nomlanadi?
- 3) Mikroskopik jihatdan gepatotsitlarda qanday turdagi o‘zgarishlar topiladi?

№	Javoblar	Maks. ball	To‘liq javob	To‘liqmas javob	Noto‘g‘ri javob
1	O‘tkir toksik gepatoz	40	30-40	15-29	0-14
2	Jigarning sariq distrofiyasi	30	20-30	5-19	0-4
3	Jigar bo‘lakchalari markazida yog‘li distrofiya, nekroz va yog‘li-oqsilli detrit paydo bo‘lishi	30	20-30	5-19	0-4
	Jami	100	70-100	25-69	0-22

3) Qo‘ziqorindan zaxarlanib, kasallikning 15-kunida jigar yetishmasligidan o‘lgan 36 yoshli erkak kishi autopsiya qilinganda, uning jigari keskin kichiklashganligi, biroz bujmayganligi, tashqi yuzasi va kesganda to‘qimasi ham qizil rangga kirganligi aniqlandi.

- 1) Diaqnoz qo‘ying?
- 2) Jigar tashqi ko‘rinishidan qanday nomlanadi?
- 3) Mikroskopik jihatdan gepatotsitlarda qanday turdagi o‘zgarishlar topiladi?

№	Javoblar	Maks. ball	To‘liq javob	To‘liqmas javob	Noto‘g‘ri javob
1	O‘tkir toksik gepatoz	40	30-40	15-29	0-14
2	Jigarning qizil distrofiyasi	30	20-30	5-19	0-4
3	Jigar bo‘lakchalaridagi yog‘li-oqsilli detritning rezorbsiyaga va fagotsitozga uchranganligi, tomirlari kengayib, qon quyilganligi topiladi	30	20-30	5-19	0-4
	Jami	100	70-100	25-69	0-22

4) Surunkali alkogolizm bilan kasallanib, jigar yetishmasligidan o‘lgan 45 yoshli erkak autopsiya qilingandi jigari keskin kattalashganligi, biroz yumshaganligi, sarg‘ich-jigarrangga kirganligi aniqlandi.

1) Diaqnoz qo‘ying?

2) Mikroskopik jihatdan gepatotsitlarda qanday turdagi o‘zgarishlar topiladi?

3) Oqibatida qanday kasallik rivojlanishi mumkin?

№	Javoblar	Maks. ball	To‘liq javob	To‘liqmas javob	Noto‘g‘ri javob
1	Yog‘li gepatoz	40	30-40	15-29	0-14
2	Gepatotsitlarda mayda va yirik yog‘ tomchilari paydo bo‘ladi	30	20-30	5-19	0-4
3	Portal sirroz	30	20-30	5-19	0-4
	Jami	100	70-100	25-69	0-22

TEST SAVOLLARI

1. O‘lim kategoriyasini aniqlash kimning tasarrufiga kiradi?

- a) sud-tibbiy ekspert
- b) sud organlari
- v) patologoanatom
- g) uchastka xamshirai

2. Qanday xolatlarda murdani sud-tibbiy tekshiruvi o‘tkaziladi?

- a) davolovchi xamshira tomonidan aniqlangan uyda o‘lim xolatlarida
- b) statsionarda zo‘raki o‘lim xolatlarida
- v) barcha zo‘raki o‘lim xolatlarida va unga shubha bo‘lganida
- g) statsionarda davolanish jarayonida tashxis aniqlanmaganda.

3. O‘limdan qancha vaqtdan so‘ng sud-tibbiy ekspertiza o‘tkazishga rasman ruxsat berilgan?

- a) 2 soatdan so‘ng

- b) 4 soatdan soʻng
- v) 6 soatdan soʻng
- g) oʻlimdan soʻng darhol

4. Sud-tibbiy ekspertiza obʻektlari:

- a) murda
- b) tirik shaxs va murda
- v) murda, tirik shaxs, ashyoviy dalil, fuqarolik va jinoyat ishi materiallari
- g) murda, tirik shaxs va ashyoviy dalil.

5. Qoʻshimcha tekshiruvlar natijalari xulosaning qaysi qismida qayd etilishi lozim?

- a) faqat bayon qismidan soʻng
- b) patologoanatomik tashxisdan soʻng
- v) patologoanatomik tashxisdan oldin
- g) sud-tibbiy tashxisdan soʻng

2.1.O'quv moduliga ajratilgan soat 2	O'zbekiston Respublikasida sud tibbiyoti va sud tibbiy ekspertizaning rivojlanish tarixi.
---	--

Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli

Vaqt 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini tashkil etilishi 2.Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me'yoriy hujjatlar 3. Sud tibbiyot ekspertizasi predmeti, ob'ektlari va turlari 4. Ekspertizani o'tkazish tartibi 5. Sud tibbiyoti ekspertizasining tashkiliy asoslari
<p>O'quv mashg'uloti maqsadi:</p> <p>1.Ta'limiy : Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p>2.Tarbiyaviy maqsadi Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
<p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar</p> <p>O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari. Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalari. O'zbekiston Respublikasida sud tibbiyoti va sud tibbiy ekspertizaning rivojlanish tarixi. Sud tibbiyotining biologiya, huquqshunoslik fanlari va tibbiyotning boshqa sohalari bilan bog'liqligi. Sud tibbiyoti fani va bu soha muammolari. Sud tibbiyotining prinsiplari. Sud tibbiyotining ma'naviy hamda ma'rifiy ahamiyati.</p>	<p>O'quv faoliyatini natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslarini • Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalarini • Sud tibbiyotining prinsiplarini • Aholiga tibbiy profilaktik yordam sifatini oshirishni • Huquq,qonun, kodeksini bilishi lozim • Huquq turlari. Jinoiy huquq haqida

	tushunchani • Sud tibbiy ekspertiza turlarini Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni
O'qitish metodlari	"KLASTER" usuli, "Akvarium" usul usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	<p>Tashkiliy qism</p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar
2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa 1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza</p>	Tinglovchilar bilimlarini eslay test savollari javob beradilar Savollarga akti

<p>baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40. 3.O‘qitishning noan’anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</p>	<p>o‘qish” usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga ”KLAster” usuli tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>javob beradilar Yangi mavzu bayonini yozi oladilar. Tushinmagan joylarini savd tariqasida yo‘lla javob oladilar ”Akvarium” usul sxemasi bo’yicha tinglovchilar tomonidan to‘ldiriladi</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag’batlantirilib, baxolar e’lon qilinadi . Uyga vazifa: O‘zbekiston Respublikasida sud tibbiyoti va sud tibbiy ekspertizaning rivojlanish tarixi mavzuni o‘qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 2. “Sud ekspertizasi”, A.SH.Baratov, R.K. Abdullayev, B.X.Xamidov Toshkent – 2025 y.</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida sud tibbiyoti va sud tibbiy ekspertizaning rivojlanish tarixi.

Dars rejasi:

- 1.Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini tashkil etilishi
- 2.Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me’yoriy hujjatlar
3. Sud tibbiyot ekspertizasi predmeti, ob’ektlari va turlari
4. Ekspertizani o‘tkazish tartibi
5. Sud tibbiyoti ekspertizasining tashkiliy asoslari

Jinoiy sud jarayonining vazifasi jinoyatni taxlil va tez ochishdan, javobgar shaxsni topish va qonuniy to'g'ri tanlanilishini ta'minlash tufayli xar bir topilgan jinoyatga yarasha jazo belgilanishi, javobgar bo'lmagan bironta shaxs xam sudlanmasligi va jinoiy javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'yimaslikdan iboratdir.

Jinoyatni ochish, javobgar shaxsni aniqlash dastlabki qidiruv, militsiya organlari va sudning zimmasiga yuklatilgan.

Dastlabki qidiruv ishlarini prokuratura, ichki ishlar organlari va xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi.

Militsiya organlari, xarbiy qism komandirlari, xarbiy muasasa boshliqlari, dengiz kapitanlari va boshqalar tergov bilan shug'ullanadilar. Ayrim, qonunda ko'rsatilgan tergov ishlari bilan federal xavfsizlik organlari, chegara posbonlari va davlat yong'indan ximoya qilish tashkilotlari, shuningdek axloq - tuzatish korxonalar xodimlari shug'ullanadilar.

Sud organlariga sudlar, shuningdek xarbiy sudlar kiradi.

Jinoiy sud jarayonining asosiy belgisi javobgarsizlik prezumpsiyasi xisoblanadi. Bu qonunni ximoya qilishni aniq ta'minlovchi xuquq mezonini bo'lib, qoidaga asosan shubxalanuvchining aybi qonun bo'yicha tasdiqlanmaguncha javobgar xisoblanmaydi. Boshqacha aytganda, javobgarlikni isbotlash surishtiruv organlarining zimmasiga yuklatilgan bo'ladi.

Militsiya organlari, tergovchi va sud tomonidan javobgarlik borligi yoki yo'qligi, fuqaro tomonidan sodir etilgan jinoyatning mavjudligi, ishni to'g'ri aniqlashga yordam beruvchi boshqa xolatlar jinoyat ishi bo'yicha isbotlovchi omillar xisoblanadi.

Bunday ma'lumotlarni xar xil usullar xamda ekspertiza yordamida aniqlaniladi.

Dastlabki tekshiruv, jinoyatchini aniqlash va sud jarayonida paydo bo'ladigan masalalarni aniqlashda fan, texnika, san'at va xunarga aloqador maxsus bilimlarni o'rganish maqsadida ekspertiza tayinlaniladi. Bunday bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislar ekspertlar xisoblanadi.

Sud-tibbiyoti ekspertizasi - qonun bilan belgilangan, ilmiy-amaliy tekshirish usuli bo'lib, uning vazifasi aniq ob'ektni tekshiruvda surishtiruv organlari, dastlabki tekshiruv va sud jarayonida paydo bo'ladigan tibbiyotga va biologiyaga oid savollarga vrachning aniq javob berishidan iboratdir.

O'limning sababi, tan jaroxatlari xarakteri, ayblanuvchi, shubxalanuvchi va jabrlanuvchining ruxiy xolatini xamda yoshini aniqlashda sud tibbiyoti ekspertizasi o'tkazilishi shartligi qonunda ko'rsatilgan.

Xar bir vrach aniq jinoiy ishni aniqlashda tergovchining qarori va sud ajrimi bilan ekspert sifatida tasdiqlangan bo'lsa, sud-tibbiyoti eksperti xisoblanadi. Bunga vrach-ekspert deyiladi.

Shuning uchun xam sud-tibbiyoti eksperti yuridik shaxs bo'lib, uni sud-tibbiyoti ekspertizasi muassasasida ishlovchi sud-tibbiyoti ekspertidan farqlash maqsadga muvofiqdir. Shunga qaramasdan, sud tibbiyoti ekspertizasida sud tibbiyoti eksperti va vrach- ekspertning xuquqi, burchi va javobgarligi bir xilligi qonunda kafolatlangan.

Ekspertning yuridik xolati.Ekspertning yuridik xolati uning burchi, xuquqi va yuridik javobgarligi bilan belgilaniladi.

Qonunga ko'ra, istagan vrach o'zining kasbidan qat'iy nazar militsiya organlari, tergovchi, prokuror va sud organlari chaqirganda borishga xamda o'zining oldiga qo'yilgan savollarga ob'ektiv xulosasi bilan javob berishga majburdir.

Ekspert faqatgina o'zining maxsus bilimi ya'ni tibbiyotga va biologiyaga oid savollarga o'z xulosasi bilan javob berishga majburdir. Ikkala xolda ekspertning faoliyatidan tashqarida xulosa berilishi mumkin:

- a) savollarga javob berayotganda vrach tibbiyotga aloqador bshlmagan soxaga adabiyot, psixologiya, yuridik, texnik fanlarga va boshqalarga to'g'ri kelsa;
- b) agar o'zining oldiga qo'yilgan savollarga javob berish uchun maxsus bilimlar talab qilinmasa, ammo buni yechish uchun sub'ektiv fikrlash, xayotiy tajribasiga asoslangan fikrlar yetarli bo'lsa;

Ekspert quyidagi xuquqlarga ega:

1. ekspertiza uchun kerakli ish materiallari bilan tanishish;
2. xulosa tuzish uchun unga qo'shimcha materiallar kerakligi to'g'risida ariza bilan murojaat qilish;
3. surishtiruv organlari, tergovchi, prokuror va sudning ruxsati bilan tergov va boshqa tekshiruv xamda sud faoliyatida so'rov paytida qatnashish, so'rov qilinuvchiga ekspertizaga aloqador savollarni berish;
4. ekspertiza tayinlagan kishiga ekspert uchun taqdim qilingan materiallar yetarli bo'lmagani, shuningdek qo'yilgan savollar uning faoliyatidan tashqariga chiqqanligi haqida yozma ravishda murojaat qilish;

Yolg'on xulosasi uchun ekspert qonun bo'yicha to erkinlikdan maxrum qilishgach bo'lgan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Agar bunday xulosa og'ir, o'ta muxim og'ir jinoyat qilgan u yoki bu shaxsga qaratilgan bshlsa, yolg'on xulosasi uchun ekspert uzoq muddatga ozodlikdan maxrum qilinadi.

Agar ekspert surishtiruv, dastlabki tekshiruv yoki sud jarayonida to sud xukmi yoki qarori chiqqunga qadar yolg'on ma'lumotlar berganligi va xulosasining soxtaligiga uz xoxishi bilan ilg'ror bo'lgan taqdirda jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday xollarda ekspert tartibiy javobgarlikka tortiladi.

Ekspert dastlabki tergov sirini saqlashga majbur. Buni proruror, tergovchi yoki surishtiruv organlarining ruxsatisiz amalga oshirilsa, ekspert jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Sud tibbiyot ekspertizasi predmeti, ob'ektlari va turlari.

Sud tibbiyoti ekspertizasi predmeti surishtiruv, dastlabki tergov va sudda ko'rib chiqish jarayonida paydo bo'ladigan tibbiyotva biologiyaga oid savollarga o'zining xulosasi bilan javob berishni o'rgatadi.

Sud tibbiyoti ekspertizasining ob'ektlariga o'liklar, tiriklar, ash'yoviy dalillar va jinoyatga oid materiallar (tibbiyot xujjatlari) kiradi. Bu ob'ektlarni ekspert to'g'ridan- to'g'ri yoki tibbiyot xujjatlaridagi ma'lumotlarga asosan tekshiradi.

Sud tibbiyoti ekspertizasining xuyidagi turlari mavjud:

1. Birlamchi ekspertiza;
2. Qo'shimcha ekspertiza;
3. Qaytalama ekspertiza;
4. Komission ekspertiza;
5. Kompleks ekspertiza.

1.Birlamchi ekspertiza - bu ob'ektni birinchi marta tekshirib ekspert xulosasini tuzilishidir. Ko'pchilik xollarda birlamchi ekspertiza bergan javoblar to'lig'icha teshiruv organlari talabini qondiradi. Odatda, birlamchi ekspertizani bitta ekspert o'tkazadi. Ayrim xollarda, muxim murakkab va javobgarlik xollarida birlamchi ekspertiza bir gurux mutaxasislar tomonidan o'tkazilishi mumkin.

2.Qo'shimcha ekspertiza agar birlamchi xulosa yetarlicha aniq va to'liq bo'lmasa, dastlabki yoki sud tekshiruvida maxsus ekspert tekshiruvi talab qilingan taqdirda o'tkaziladi. Qo'shimcha ekspertizani birlamchi ekspertiza o'tkazgan ekspert, boshqa ekspert yoki boshqa ekspertlar guruxi o'tkazishi mumkin.

3.Qaytalama ekspertiza asosan birlamchi yoki qo'shimcha ekspertiza xulosalari to'g'riligiga shubxa tug'ilganda yoki xulosa isbotlanmagan taqdirda o'tkaziladi.

Buni o'tkazish boshqa ekspert yoki ko'pincha, boshqa bir necha ekspertlarga topshiriladi.

4. Komission ekspertiza barcha murakkab savollarga javob berishda bir necha mutaxassis vrachlar qatnashuvini talab qiladigan ekspertiza xisoblanadi. Ko'pincha bunday ekspertiza vrachlar va boshqa tibbiyot xamda farmatsevtik xodimlari tomonidan kasbiy xuquqbuzarlikka yo'l qo'yganlarida tayinlanadi.

5. Kerakli xollarda bitta ob'ektni xar xil kasb va mutaxasislari ekspertlari tomonidan o'tkazilsa bunga kompleks ekspertiza deyiladi. Buni o'tkazishda vrachlar, kriminalistlar, sportning xar xil soxalari bo'yicha, yong'inga aloqador ekspertlar va boshqalar jalb qilinadi. Bunday xollarda barcha tayinlangan ekspertlar avvalo birgalikda maslaxat yig'ilishi o'tkazib, unda xar xil mutaxasislar ob'ekt tekshiriluv ketma-ketligini aniqlaydilar, bu xar bir keyingi etapdagi ekspert tekshiruv axborotlari saklanishini ta'minlaydi. Xar bir mutaxasis o'zining shaxsiy tekshiruv natijalariga ko'ra mustaqil xulosa tuzadilar. Bu qoida maqsadga muvofiq bo'lgan to'g'ri yuridik tartib xisoblanadi. Shuning uchun xam bunday xollarda bitta umumiy xulosa tuzish maqsadga muvofiq emasligini aloxida ta'kidlamoq zarur, chunki xar bir ekspert xulosasiga imzo chekishda faqatgina o'zining tekshiruv natijalarini shziga bog'liq bo'lmagan xolda tasdiqlash bilan birgalikda, boshqa kasb vakillari tomonidan olingan tekshiruv natijalarini baxolashda bu soxa bo'yicha maxsus bilimga ega emasligiga iqror bo'ladi. Shuning uchun xam xar bir mutaxasis o'zining aloxida xulosasini bergani maqul.

Ekspertizani o'tkazish tartibi. Ekspertiza o'tkazish zarurligiga iqror bo'lgan tergovchi maxsus yuridik xujjat-qaror tuzadi. Unda ekspertiza o'tkazish tartibi, nimaga asosan ekspertiza o'tkazilishi, ekspertning familiyasi yoki ekspertiza o'tkaziladigan tashkilotning nomi, ekspert tomonidan yechilishi kerak bo'lgan savollar, shuningdek, ekspertning ixtiyoriga tavsiya etiladiga materiallar ko'rsatiladi. Tergovchi ekspertizaning barcha etaplari o'tkazilishida qatnashish xuquqiga ega. Ba'zi xollarda, masalan, og'ir jinoyatlardan, odam o'ldirishda ekspertiza o'tkazish paytida tergovchining qatnashuvi juda maqsadga muvofiqdir.

Agar sud jarayonida maxsus savollarni yechish uchun unga bitta yoki birnecha ekspert taklif qilinadi. Bunga ko'pincha, tergov yoki dastlabki tekshiruv ishlarida qatnashgan xulosa bergan ekspert va ekspertlarni chaqiriladi. Sudga chaqirilgan ekspert yoki ekspertlarni mutaxassis sifatida baxolaydi. Shundan keyin sud o'zining majlisida ekspertning qatnashganligini qonunlashtiruvchi ajrim chiqaradi. Ekspert sud jarayonida qatnashuv va so'roq qilinuvchiga ekspertizaga aloqador savol berish xuquqiga ega. Sud tekshiruv oxirida sud ajrim chiqaradi, bunda ekspertni oldiga savollar qo'yadi. Ekspert xulosa berish uchun jinoiy ish materiallari bilan

tanishib chiqishi, agar talab qilinsa, qaytadan to'g'ridan-to'g'ri ob'ektni: ash'yoviy dalillarini, tirik odamni, ayrim xollarda murdalarni go'rdan ochib ko'rish va tekshirish ko'zda tutiladi. Ekspertiza o'tkazish vaqti sudda ekspert tomonidan belgilanadi. Barcha kerakli tekshiruvlarni o'tkazgan ekspert yozma xulosa beradi va buni sud majlisida e'lon qiladi. Yozma xulosadagi ayrim ma'lumotlarni aniqlash uchun sud jarayonida qatnashuvchilar ekspertga og'zaki savollar berish xuquqiga ega. Odatda savollarga ekspert xam og'zaki javob beradi.

Bunday javoblar sud yig'ilishi bayoniga kiritiladi. Agar ekspertga berilgan savollardan tashqari savollar berilgan bo'lsa, bunda u yangi savollarga yozma javob berish xuquqiga ega.

Agar ekspertiza maxsus ekspert muassasalarida o'tkazilayotgan bo'lsa, tergovchi yoki sud qaror yoki ajrimni ekspertiza muassasasi raxbari nomiga yuboradi va u ekspertiza o'tkazishni tashkilotning bitta yoki bir necha xodimiga buyuradi. Tashkilot raxbari ekspertga uning xuquqi, burchi va javobgarligi haqida tushuntirib, undan tilxat oladi va u ekspert xulosasi bilan birgalikda tergovchiga jo'natiladi. Agar ekspertiza sud tibbiyoti ekspertizasi muassasasidan tashqarida o'tkazilsa, bunda tergovchi sud ekspertiza o'tkazish uchun yuklatilgan ekspertni chaqiradi, uning shaxsi va vazifasi ko'rsatilib, ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarori yoki ajrimi taqdim qilinadi. Xuquqi, burchi va jinoiy javobgarligi ekspert sifatida tushuntiriladi. Xar ikkala xolda xam tergovchi ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorga belgi qo'yadi va u ekspertning imzosi bilan muxrlanadi. Ekspert o'zining xulosasini faqat ekspertiza tayinlovchi organga jo'natadi.

Sud tibbiyoti ekspertizasi o'tkazishning umumiy tuzilishi quyidagi bosqichlardan iborat:

- ekspertiza o'tkazish to'g'risidagi qarori yoki sud ajrimini o'rganish;
- voqeaning xolatini, ekspertiza o'tkazish tartibi va ekspert yechishi kerak bo'lgan savollarni aniqlash;
- tergovchi tomonidan ekspert tekshiruvchi uchun takdim qilingan materiallarning sifati va yetarliligini, qo'yilgan savollarga berilgan javoblarni baxolash;
- agar talab qilinsa, kerakli qo'shimcha tekshiruv ob'ektlarni yoki ishga aloqador qo'shimcha materiallarni taqdim qilish zarurligi t'g'risida tergovchiga murojaat qilish;
- kerakli umumlashgan tekshiruv usullarini ratsional qo'llash va ekspert vazifalarini optimal xolda xal qilish maqsadida ekspertiza o'tkazish rejasini tuzish;

-ekspertiza ob'ekti va ob'ektlarni shaxsan tekshirish;

-ekspert xulosasini tuzish.

O'zbekiston Respublikasida sud tibbiyoti ekspertizasini o'tkazishni aloxida instruktiv-metodik xujjatlar ta'minlaydi. Ularning asosiylari quyidagilar:

- sud tibbiyoti ekspertizasi o'tkazish xakidagi ko'rsatma;
- voqea sodir bo'lgan joyda topilgan murdani tashqi ko'zdan kechirishda sud tibbiyoti soxasida mutaxasis-vrachning ish qoidasi;
- murdalarni sud tibbiyoti ekspertizasi qoidasi;
- fuqaro sog'lig'iga zarar yetkazilishi og'irlik darajasini sud tibbiyotida aniqlash qoidasi;
- sud tibbiyoti akusher-ginekologik ekspertizasi qoidasi;
- erkaklar jinsiy xolati haqidagi sud tibbiyoti ekspertizasi qoidasi;
- jinoiy va grajdanlik ishlari materiallari sud tibbiyoti ekspertizasini o'tkazish qoidasi;
- sud-gistologik ekspertizasi o'tkazish qoidasi;
- ash'yoviy dalillar va baxsli otalikni yoki onalikni sud-biologik bo'limi laboratoriyasida aniqlash sud tibbiyoti ekspertizasi qoidasi;
- sud tibbiyoti ekspertizasi byurosi tibbiy -krriminalistika bo'limi laboratoriyasida sud tibbiyoti ekspertizasi o'tkazish qoidasi;
- sud tibbiyoti ekspertizasi byurosi sud-kimiyoviy bo'limi laboratoriyasida ash'yoviy dalillarni sud-kimiyoviy ekspertizasi qoidasi.

Sud tibbiyoti ekspertizasining xujjatlari. Tergovchi qarorini olgach, o'zini oldiga qo'yilgan savollar bilan tanishib, javob berish uchun barcha tekshiruv usullarini o'tkazgach, ekspert tekshiruv natijalariga asoslanib o'zining nomidan va o'zining maxsus bilimlari asosida xulosa beradi. O'zining xulosasi uchun ekspert shaxsiy jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Komission ekspertiza o'tkazishda barcha qatnashuvchi ekspertlar bir-biri bilan maslaxatlashib bir fikrga kelishgach, umumiy xulosa tuzadilar va buning oxirida barcha ekspertlar imzo chekadilar. Agar ekspertlarning fikri bir biriga to'g'ri kelmasa, ularning xar biri o'zining xulosasini aloxida beradilar.

Ekspert xulosasi birdan-bir yuridik xujjat bo'lib, bunda ekspert o'zining xulosasini ekspertiza tayinlagan tashkilotgacha yetkazadi. Xulosa faqat yozma ravishda beriladi. Ekspert xulosasining mazmuni qonun bilan belgilanib, 3 qismdan iborat bo'ladi: kirish, tekshiruv va xulosa qismi.

Kirish qismida qachon, qaerda, kim (famiyasi, ismi, sharifi, mutaxasisiligi, ilmiy darajasi va unvoni, egallagan mansabi), nimaga asoslanib (tergovchining qarori yoki sud ajrimi) ekspertiza o'tkazilishi, ekspertning oldiga qanday savollar qo'yilganligi, uning qanday materiallaridan foydalanganligi, materiallar qanday

shaklda taqdim qilinganligi (o'ralgan yoki o'ralmagan xolda, o'ralgan bo'lsa undagi belgilar va muxrlanganligi) ko'rsatiladi. Kirish qismi uchun talablar qonunda ko'rsatilgan barcha materiallar to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq izoxlashdan iboratdir.

Tekshiruv qismi xulosani isbotlash manbai bo'lib, bunda sud tibbiyoti ekspertining xulosasi barcha o'tkazilgan tekshiruv usullarining mazmuni yoziladi sud tibbiyoti ekspertizasining ob'ektlari (tirik odam, murda, ash'yoviy dalillar), haqidagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlantiruvchi ish materiallari (kasallik tarixi, ambulatoriya kartasi, tibbiyot ma'lumoti, sog'lig'i haqidagi guvoxnoma va boshqalar) kiradi.

Tekshiruv qismi uchun asosiy talablar barcha o'tkazilgan tekshiruv natijalarining xar tomonlama txlil va ob'ektiv tasvirlanishidir.

Xulosa qismida ekspert oldiga tergovchi yoki sud tomonidan qo'yilgan savollarga javoblar ko'rsatiladi. Agar ekspert u yoki bu savolni yecha olmasa, unda u xulosada qo'yilgan savolga javob berish imkoniyati yo'qligi sababi ko'rsatiladi. Bunda tibbiyot soxasidagi ilmiy bilimlarning yetishmasligi va xususan ekspertning malakasi pastligi kiradi.

Agar tekshiruv jarayonida ekspert shu ish uchun ahamiyati bo'lgan uning oldiga qo'yilgan savollarga ma'lumotlarni aniqlasa, buni u o'zining shaxsiy tashabbusi sifatida xulosada ko'rsatishi mumkin.

Xulosaga umumiy talablar quyidagicha:

- a) to'liqligi (berilgan savollarning barchasiga javob berilishi);
- b) xar bir ko'rsatilgan xolatni asoslash;
- v) xulosaning tekshiruv qismiga aloqador va ob'ektni tekshiruv natijasida ekspert tomonidan aniqlangan qar bir xolat to'g'risidagi ma'lumotlarni asoslash;
- g) ob'ektivligi;
- d) ilmiyligi;
- ye) maxsus atamalarni qo'llamasdan barcha uchun tushunarli shaklda izoxlash;

Sud va boshqa tekshiruv organlarini xulosasi aniq (musbat yoki manfiyligi) asoslash ko'pincha qoniqtiradi.

Ekspert xulosasi xujjatlashtirilishi kerak. Birinchi navbatda xulosaning barcha asosiy xolatlari xujjatlashtiriladi. Xujjatlarga asosiy talablar-aniqlangan

ma'lumotlarni qanday bo'lsa, shundayligicha izoxlanishidir. Bunday talablarga suratga olish, rentgenogrammalar, ichki organlar va suyak preparatlari, gistologik preparatlar va boshqalarning mavjudligi to'g'ri keladi. Bularning xammasi ekspert xulosasiga ilova sifatida ko'rsatiladi. Ayrim biologik ob'ektlar (masalan, murda ichki organlari va to'qimalaridan olingan materiallar, suyak va mikroskopik preparatlar) tergovchining ko'rsatmasiga binoan sud tibbiyoti muassasasida saqlanishi zarur.

Sud tibbiyoti ekspertizasining tashkiliy asoslari. Sud tibbiyoti ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash sistemasining muxim davlat xizmati xisoblanadi. Sud tibbiyoti xizmati tarkibiga respublika sud tibbiyoti ekspertizasi markazi, viloyatlar, shaxar, tumanlar va tumanlararo sud tibbiyoti ekspertizasi byurolari kiradi.

Administrativ-xo'jalik bo'yicha sud tibbiyoti muassasalari tegishli ministrlilik, boshqarma va sog'liqni saqlash bo'limalariga bo'ysunadi. Metodik va ilmiy-amaliy jixatdan sud tibbiyoti tashkilotlari Respublika sud tibbiyoti ekspertizasi markaziga, viloyatlar, shaxar, tumanlararo va tuman sud tibbiyoti ekspertizasi byurolari raxbarligiga pastdan yo'qoriga qarab bo'ysunadilar.

Sud tibbiyot ekspertizasi byurosida sud tibbiyot ekspertizasining barcha asosiy turlari o'tkaziladi.

Byuro tartibiga quyidagilar kiradi: 1. Tanatologiya bo'limi (murdalarni tekshiruv bo'limi patologik laboratoriyasi bilan. 2. Ambulatoriya bo'limi. Bunda jabrlanuvchilar, ayblanuvchilar, shubxalanuvchilar tekshiriladi. 3. Laboratoriya bo'limi - bunga quyidagi laboratoriyalar kiradi: sud-biologik, sud-ximik va fiziko-texnik laboratoriyalar bo'limlari kiradi.

Sud-biologik laboratoriyasi bo'limida qon, soch, sperma va boshqa ajralmalar, organ va to'qimalar xamda xar xil ash'yoviy dalillar aniqlaniladi. Bu bo'limda sitologik va molekulyar-biologik tekshiruvlar xam o'tkaziladi.

Sud-ximik laboratoriya bo'limida xar xil zaxarlanishlarda organizm tarkibidagi biologik muxitlardagi zaxarli moddalar miqdori sud-ximiklari tomonidan aniqlaniladi. Shuningdek bu bo'limda sud ximiyasiga aloqador maxsus bilimlarni talab qilinuvchi boshqa savollarni yechishga qaratilgan masalalar bajariladi.

Fiziko-texnik bo'limda stereomikroskopik, stereografiya, rentgenografiya, fotografiya va boshqa tekshirishlar orqali jaroxatlanishlar tekshiriladi. Bundan tashqari, shaxsni aniqlash maqsadida suyak qoldiklari xam shu usullarda tekshiriladi.

Sud tibbiyoti muassasasining tarkibi sogʻliqni saqlash vazirligining maxsus buyrugʻida koʻrsatilgan boʻlib, bu xar mintaqada ekspertning aniq nagruzkasiga bogʻligʻ.

Xozirgi davrda sud tibbiyoti xizmatini boshqarishda uni mablagʻ

bilan taʼminlash muxim ahamiyatga ega boʻlib, bunga quyidagilar kiradi:

a) byudjet mablagʻini rejali, kundalik va uzoq muddatli dastur sistemalari;

b) maxsus ekspert tekshiruvi, tashqi kadrlar tayyorlash, sud jarayonida oʻtkaziluvchi ekspert tekshiruvi xarajatlarini qoplash, suddagi xar xil xizmatlar uchun mablagʻ toʻlash uchun barcha xizmat xaqini byudjetdan tashqari mablagʻ xisobiga toʻlash sistemasi;

v) ekspert ishlarini finans ekologik boshqarish sistemasi.

Sud tibbiyoti tashkilotlari faoliyati yuridik vazifalar bilan chegaralanib qolmaydi. Bu soxada ishlaydigan mutaxassislar barcha soxada tibbiy taʼminlashni takomillashtirish qaratilgan anchagina ishlarni bajaradilar. Bunga oʻlimga olib keluvchi jaroxatlanishlarning xar xil sabablarini aniqlash va tekshirish, tibbiy yordamni kamchiligini topish, texnik suyoʻqliklar bilan zaxarlanish, alkogol bilan mastlik va choʻkish xollari, toʻsatdan oʻlimning sababini aniqlash va boshqa profilaktik ishlar kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining Sud ekspertizasi toʻgʻrisidagi qonuni 2010 yil 7-may, Sud ekspertiza faoliyatini belgilovchi meʼyoriy xujjatlar 2012 yil.Oʻz.Res.SSVning 153-buyrugʻi asosida olib boriladi. Ishning seksion qismida laborant quydagi vazifalarni bajarishi zarur; murdani yorishga aloqador xujjtalarni rasmiylashtirishda vrachga yordam berishi; zarur fiksatorlarni tayyorlab kuyishi;-murdani yorish paytida yoki bu ish tugaganidan keyin darrov bakrioskopiya uchun olingan surtma va bosmalarni qotirib, buyash;

bakteriologiya virosologik biokimyoviy va boshqa tekshirishlar uchun material olishda vrachga yordam berishi, tegishli laboratoriyaga yullanma va maʼlumotlarni rasmiylashtirishi; mikroskopiya uchun olingan materialning qanday kotirilayotganini kuzatib borishi 4 kotirilgan materialni kesishda vrach bilan birga ishtirok etishi kesib olingan boʻlakchalarga belgi quyib ,ularni saralash,ish daftariga boʻlakchalar sonini kayd kilib organlar toʻkimalarni koʻrsatgan xolda boʻlakchalarning sonini kesmalarining sonini, qanday usulda boʻyalganini koʻrsatib;

-kesib olingan bulakchalarni parafin, seloidin, jelatin va boshqa muxitlarga solishi; bloklar tayyorlab ularga belgi quyib chikishi; mikrotom pichoklarni charxlab rostlab qo'yishi; materialni xar kanday mikrotomlar bilan kesaverishi: kesib olinganidan keyin kolgan selloidin bloklarni tegishli kontervantlarga solib vrach tomonidan tayinlangan zarur muddat ichida ularning arxivda saklanib turishini kuzatib borishi;

-kesmalarni bo'yashi va mikropreparatlar tayyorlashi; bevosita patologoanatom vrach raxbarligi ostida muzey imropreparatlari tayyorlash (kotirilgan aralashmalar xozirlashi, materialni qotirishi, buyog'ini asliga ketirish, preparatni mantaj qilib, muxitga solib quyishi.

2.Biopsiya materialini ishlashda -klinik bo'linmalardan tekshirish uchun keltirilgan materialni sanitarlardan qabul qilib olib ularning yo'lanmadagi yozuvlarga tug'ri kelish-kelmasligini, kanchalik yaxshi qotirilganini tekshirib ko'rishi, materialni olganligi tug'risida imzo chekishi ;

-tekshirishga olib kelingan ob'ektlarning xammasini material qayd kilinadigan daftarga yozib yullanmada aytilgan xamma ma'lumotlarni xam ko'rsatib kuyishi; makroskopik tekshirish va kesib olish uchun material tayyorlash;

materialni makroskopik tekshirish uchun yo'llanma - blankani vrach aytib turganidek qilib to'ldirish: kesib olingan bo'lakchalarga belgi qo'yib soni va gistologik yul bilan ishlash usulini qayd kilishi; fiksatorlar eritmalar va bo'yoqlar tayyorlash; mikropreparatlarni gistologik yul bilan ishlab tayyorlab olishi; mikroskopik va gistologik tekshirish natijalarini ,patologoanatomik diaqnozini , tekshirishni o'tkazgan vrach familiyasi va tekshirish o'tkazilgan kuni daftarga yozib kuyishi (yoki blankaning nusxasini tikib quyishi);

tekshirish natijalarini davolash muassasalarining xammasi qabul kilib olib aloxida daftarga qayd qilib qo'yishi;

operatsiya vaqtida biopsiyalar olinganligida zudlik bilan gistologik preparatlar tayyorlab berishi; tekshirish tugaganidan keyin barcha biopsiya materiallarini (qotirib quyilgan to'kimalar organlar, bloklar, biopsiya materiallarini arxivga joylab qo'yishi; laborantlari saqlash tartibi uchun javobgar bo'lib xisoblanadi; - kolleksiyalar uchun mikropreparatlar tayyorlash;

talab qilinganida boshqa davolash muassasalarining bo'limlarini arxivdan mikropreparatlar olib berilishini rasmlashtirish va ularni vaqtida qaytarib berilishi ustidan nazorat olib borishi; asboblari va sanitariya- gigiena tartibiga rioya qilishga kuzatib borish;

bajarilgan ish tug'risida (bloklar, kesmalarning soni qushimcha bichsh usullari va boshqalar tug'risida) bo'lim mudiri oldida oy sari xisob berib turishi.

4.Sanitarining lavozimiga aloqador vazifalar tug'risida;

-sanitar baza bo'lib xisoblangan va biriktirib quyigan kasalxonalar muassasalarining klinik bo'limidan keltirilgan murdalarni tegishli belgilar quyilgan - quyilmaganigiga qarab qabul qilib oladi;

murda patologoanatomik bo'limda qancha vakt turadigan bo'lsa, shu vaqt davomida uning saqlanib turishini ta'minlaydi.;

murdalarining buyi va og'irligini o'lchaydi;

zarur bulganda patologoanatomik bo'lim ichida bir joyda ikkinchi joyda yetkazib beradi, maxsus avtotransport bo'lsa, murdalarni birkirib quyilgan kasalxonalardan yetkazib kelishda ishtirok etadi: murdalar yorib tekshirish va makroskopik tekshirish uchun materiallar olish uchun xonani kiyim kechak asboblari, idishlar va boshqalarni tayyorlab quyadi;

murdani yorish vaqtida olingan materialni patologoanatom vrach aytgan maxsus laborantlarga yetkazib beradi; murdani yorish vaqtida seksiya xonasida doim xozir turadi va vrachga yordamlashib boradi. Murdani yorish vaqtida kalla suyaklarini, zarur bulganda umurtqa poganasini va boshqa suyaklarni vrach kuzatuv ostida arralab, kesadi, organlarni tarozida tortadi;

murdani qarindoshlariga berishdan oldin unga quyilgan belgilarni tekshirib kuradi; murdani kiyintirib, to'budga soladi va qarindoshlariga beradi; murdalar qabul qilib olingan va berilganini tegishli tarzda kayd qilib, kimmat materialdan yasama tishlar va boshqa buyumlari bor-yo'qligini albatta ko'rsatib quyadi ;

murdani yorib tekshirish ishlari tugagandan keyin seksion zal , uning daxlizga, motam zali , murdaxona va fiksatsiya xonalarini xar kuni latta xullab artdi Infeksion kasallikdan ulgan kishining murdasini yorib tekshirilgandan keyin seksiya xonalari, asbob-uskunalar va mayda jixozlarni dizinfeksiyalaydi;

-asbob va jixozlarning toza xolatda bo'lishini doim kuzatib boradi ,seksiyada ishlatiladigan asboblarni charxlab beradi;

-bo'lim mudiri yoki laborantning buyrugiga karab xar xil ishlarni bajaradi juda ifloslangan idishlarni yuvib - tozalash, mikropreparatlarni yuvib olish, gaz ballonlarini joyidan boshqa joyga olib kuyish va o'rnatish va boshqa ishlar shular jumlasidandir; dastyorlik ishlarini bajaradi, bloklar uchun qoliplar tayyorlab quyadi va xokazo;

- belgilangan grafik buyicha patologik anatomiya bo'limida navbatchilik kiladi navbatchilik vaqtida marxumning qarindoshlari yoki birga xizmat kilishgan kishilarga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan o'lim haqidagi guvoxnomasi beradi.

Bo'limda boshqa binolarni tozalash ishlari (seksiya blokidan tashqaridagi binolarni) murdalarni yorish ishi bilan shug'ulanmaydigan sanitarlar (farroshlar) bajaradi. Mikropreparatlarni yuvib olish, juda iflos bo'lib ketgan idishlarni

yuvish, bloklarni tozalash, kasalxonada yotgan bemorning rasmlashtirilgan tibbiy kartalarini berib va boshqa ishlarni xam ular bajradi (bo'lim mudiri, patologoanatom vrachlar va katta laborant buyrug'i bilan).

TIBBIY TERMINLAR

Intergenetik

Epidemiya

Miokard

Endokard

Perikard

”KLAUSTER” usuli. (Klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li-barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar “yo'ldoshlar” yozib qo'shiladi. Ularni “asosiy” so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi.

Bu “yo'ldoshlarda” “kichik yo'ldoshlar” bo'lishi mumkin.

Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

Klaster” usuli-turli xil g'oyalar o'rtasida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

”Akvarium” usuli

Akvariumga baliqchalar joylashtiriladi. O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar stikkerga yoziladi va ularga yopishtiriladi. Tinglovchilar bittadan baliqchani olishadi va unga yozilgan savolga javob berishadi.

(O‘tilgan mavzuni qaytarish uchun qo‘llanildi).

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Sud biologiya ekspertizasi va tekshiruvlarini o‘tkazish qoidalarini.
2. Ekspertiza jarayonida ishlatiladigan hujjatlar, ashyoviy dalillarni qabul qilish va saqlash.
4. G‘ayri tabiiy o‘lganlar nimaga asoslanib tekshiriladi
5. Tibbiyot xodimlarining qo‘l gigienasi.

VAZIYATLI MASALALAR

1. Bemor B., TMK travmatologiya bo‘limiga o‘zi murojaat qilgan. Tekshiruvlardan so‘ng yopiq kalla-miya jarohati, bosh miya chayqalishi, burun suyaklarining sinishi klinik tashhisi qo‘yilgan. Bemor ahvoli o‘rtacha og‘irlikda baholangan. Keyinroq bemor ahvoli birdan yomonlashgan, vafot etgan. Murda tekshiruvda kalla-miya, burun suyagining jarohatiga xos morfologik belgilardan tashqari bosh miya asos tomirlari anevrizmasining yorilishi natijasida yuzaga kelgan ko‘lamli subaraxnoidal qon quyilish aniqlangan.

A. Sud tibbiyoti nuqtai-nazaridan mazkur holatni qanday baholash lozim?

- a) Jinoyat
- b) Qilmish
- v) Baxtsiz hodisa

B. Qonunda ushbu holat uchun qanday jazo qo‘llaniladi?

- a) Hech qanday
- b) Jinoiy javobgarlikka tortiladi
- v) Intizomiy jazo qo‘llaniladi
- g) Fuqaroviy jazo qo‘llaniladi

TEST SAVOLLARI:

1. Voqea joyida murda kiyimlari nima qilinadi

- 1 Yechiladi
2. Ko‘zdan kechiriladi va bayonnomaga yoziladi
3. Jarohat joyi bilan birga kesib olinadi
4. Rasmga olinadi

2. Voqea joyida soch tolasi topilganda sud-tibbiy ekspert nima ish qiladi

- 1 Olishga to‘g‘ri muhirlashga yordamlashadi
- 2 Kimga tegishliligini aniqlaydi
3. Voqea joyidan olib ketadi
4. Sochlar o‘zi to‘kilganmi yoki yulib olinganmi aniqlaydi

3. Tibbiyot xodimining qay birlari voqea joyida murda tekshiruviga jalb qilinishi mumkin

- 1 Har qanday shifokor
- 2 Uchastka vrachi
3. Terapeft
4. Stomatolog

4. Voqea joyiga kelgach vrach birinchi bo‘lib nima qiladi

- 1 O‘lim sababini aniqlaydi
- 2 O‘lim muddatini aniqlaydi
3. O‘lim yuzaga kelganini tasdiklaydi
4. O‘lim turini aniqlaydi.

5. Sud-tibbiy tekshiruvida kamida nechta bo‘shliq ochilishi kerak

1. 3
2. 2
3. 1
4. Hech qanday bo‘shliq ochilmayd

2.1.O'quv moduliga ajratilgan soat 4	Sud tibbiyotining biologiya, huquqshunoslik fanlari va tibbiyotning boshqa sohalari bilan bog'liqligi. Sud tibbiyoti fani va bu soha muammolari.
---	---

Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli

Vaqt 160 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tibbiy xodimlarning kasb huquqbuzarliklari tushunchasi. 2. Tibbiy xodimlar tomonidan sodir etiladigan kasb huquqbuzarliklarining turlari. 3. Kasb huquqbuzarliklari uchun javobgarlik turlari (intizomiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy javobgarlik). 4. Sud-tibbiy ekspertiza va patologik anatomiya amaliyotida huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish.
<p>O'quv mashg'uloti maqsadi:</p> <p>1.Ta'limiy : Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash</p> <p>2.Tarbiyaviy maqsadi Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish</p>	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatini natijalari:
O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslari. Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalari. O'zbekiston Respublikasida sud tibbiyoti va sud tibbiy ekspertizaning rivojlanish tarixi. Sud tibbiyotining biologiya, huquqshunoslik fanlari va tibbiyotning boshqa sohalari bilan	<ul style="list-style-type: none"> • O'zbekiston respublikasida sud tibbiy ekspertizasining protsessual va tashkiliy asoslarini • Sud tibbiy ekspertiza turlari, ob'ektlari, tuzilishi,tashkiliy tuzilmalarini • Sud tibbiyotining prinsiplarini • Aholiga tibbiy profilaktik yordam

bog'liqligi. Sud tibbiyoti fani va bu soha muammolari. Sud tibbiyotining prinsiplari. Sud tibbiyotining ma'naviy hamda ma'rifiy ahamiyati.	sifatini oshirishni <ul style="list-style-type: none"> • Huquq,qonun, kodeksini bilishi lozim • Huquq turlari. Jinoiy huquq haqida tushunchani • Sud tibbiy ekspertiza turlarini Sud tibbiy ekspertiza faoliyatini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni
O'qitish metodlari	“ Rol o'yinlari ” “ Case-study “ usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash ,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa	<p align="center">Tashkiliy qism</p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitiladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar

<p>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa 1.O‘tgan mavzu bo‘yicha tinglovchilar bilimini tekshirish va baxolash 20-25 daq 2.Yangi mavzuni to‘liq bayon etish 30-40. 3.O‘qitishning noan’anaviy usullarini qo‘llagan xolda tinglovchilar bilimini mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish. 2.Yangi mavzu mazmunini o‘qituvchi tomonidan “Ma’ruza o‘qish” usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga “Rol o‘yinlari” tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo‘llab javob oladilar.” Case-study” sxemasi bo‘yicha tinglovchilar tomonidan to‘ldiriladi</p>
<p>3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa</p>	<p>Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag‘batlantirilib, baxolar e‘lon qilinadi .</p> <p>Uyga vazifa: Sud tibbiyotining biologiya, huquqshunoslik fanlari va tibbiyotning boshqa sohalari bilan bog‘liqligi.</p> <p>Sud tibbiyoti fani va bu soha muammolari mavzuni o‘qib kelish.</p> <p>Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 3. “Sud ekspertizasi”, A.SH.Baratov, R.K. Abdullayev, B.X.Xamidov Toshkent – 2025 y.</p>	<p>Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar</p>

Mavzu: Sud tibbiyotining biologiya, huquqshunoslik fanlari va tibbiyotning boshqa sohalari bilan bog‘liqligi.

Sud tibbiyoti fani va bu soha muammolari.

Reja:

1. Tibbiy xodimlarning kasb huquqbuzarliklari tushunchasi.
2. Tibbiy xodimlar tomonidan sodir etiladigan kasb huquqbuzarliklarining turlari.
3. Kasb huquqbuzarliklari uchun javobgarlik turlari (intizomiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy javobgarlik).
4. Sud-tibbiy ekspertiza va patologik anatomiya amaliyotida huquqbuzarliklarni aniqlash va ularning oldini olish.

Tibbiy huquq — bu tibbiyot sohasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuasidir. Tibbiy huquq tibbiyot xodimlari, bemorlar va sog‘liqni saqlash muassasalari o‘rtasidagi munosabatlarni qonun asosida tartibga soladi. Ushbu huquq sohasi tibbiy yordam ko‘rsatish jarayonida bemorlarning huquqlarini himoya qilish, tibbiy xodimlarning kasbiy faoliyatini qonuniy asosda olib borishini ta‘minlash hamda sog‘liqni saqlash tizimida tartib va intizomni saqlashga xizmat qiladi.

Tibbiy huquqning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish va ularga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatilishini ta‘minlashdir. Shuningdek, u bemorlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bemorning hayoti va sog‘lig‘i tibbiyot sohasida eng muhim qadriyat hisoblanadi, shu sababli tibbiy faoliyat qat‘iy huquqiy me‘yorlar asosida amalga oshiriladi.

Mikrotom – bu gistologik va patobiologik laboratoriyalarda **toʻqimalarni juda ingichka kesimlarga boʻlish** uchun ishlatiladigan asbobdir. Mikrotom yordamida olingan kesimlar mikroskop ostida tahlil qilinadi, bu esa hujayralar va toʻqimalardagi patologik jarayonlarni aniqlash imkonini beradi.

Mikrotomning asosiy vazifasi – **toʻqima blokini nazorat ostida kesib, mikroskopik koʻrinish uchun moslash**. Toʻqimalarni boʻlishda kesim qalinligi, silliqiligi va bir xil boʻlishi muhimdir, chunki bu sifat mikroskop ostida patologik jarayonlarni aniqlash va toʻgʻri tashxis qoʻyishda hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Mikrotomning diagnostik ahamiyati katta. U yordamida olingan kesimlar:

- Gistologik tahlil uchun tayyorlanadi
- Gistokimyoviy va immunogistokimyoviy bo'yashga tayyorlanadi
- Sud-tibbiy va ilmiy tekshiruvlarda dalil sifatida ishlatiladi

Shuningdek, mikrotom kasalliklarning boshlang'ich bosqichlarini aniqlashda va davolash strategiyasini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, mikrotomni to'g'ri ishlatish va unga mos pichoqlarni tanlash material sifatini va tahlil aniqligini kafolatlaydi.

Mikrotom pichoqlari tushunchasi

Mikrotom pichoqlari – mikrotom yordamida to'qimalarni kesishda ishlatiladigan **maxsus asbob elementlari** bo'lib, ularning vazifasi to'qima blokini **ingichka, bir xil va silliq kesimlarga bo'lishdir**. Pichoqlar to'qima kesimining sifatini, mikroskop ostida hujayralar va to'qimalardagi patologik o'zgarishlarni aniqlash imkoniyatini belgilaydi.

Pichoqning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- To'qima blokini kesishda **morfologik tuzilishini saqlash**
- Kesim yuzasini **silliq va bir xil qilish**
- Mikroskop ostida **to'g'ri diagnostik xulosalar chiqarishga yordam berish**

Pichoqlarni ishlatishda quyidagi jihatlar muhim:

- Pichoq **o'tkir va shikastlanmagan** bo'lishi kerak, aks holda kesimning silliqliqi buziladi.
- Pichoqning turi to'qima turiga mos bo'lishi zarur. Masalan, qattiq yoki suyak to'qimalar uchun diamant pichoq qo'llanadi.
- Pichoqlarni ishlatishda ehtiyotkorlik talab qilinadi, chunki ularning notog'ri ishlatilishi kesim sifatiga salbiy ta'sir qiladi va diagnostik xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, mikrotom pichoqlari **mikroskopik tahlilning ishonchligini ta'minlovchi muhim vosita** hisoblanadi. Ular nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki klinik diagnostika va sud-tibbiy ekspertizalarda ham katta ahamiyatga ega.

Pichoqlarning asosiy turlari

Mikrotom pichoqlari turli turlarga bo'linadi va ularning har biri **to'qima turiga, kesim qalinligiga va mikroskopik tahlil maqsadiga** qarab tanlanadi. Pichoqlar to'qimalarni kesishda morfologik tuzilishini saqlash, silliq va bir xil kesim olish imkonini beradi. Quyida asosiy pichoqlar turlari keltirilgan:

1. Yassi pichoqlar

Yassi pichoqlar eng oddiy va keng tarqalgan pichoq turidir. Ular **yumshoq to‘qimalarni**, masalan, ichak, jigar va buyrak bo‘laklarini kesishda ishlatiladi. Yassi pichoqlarning afzalligi – ularni ishlatish oson va kesim yuzasi silliq bo‘ladi.

2. Ikkita tishli va bir tishli pichoqlar

Bu pichoqlar **yengil va nozik kesimlar** olishda qo‘llaniladi. Ikkita tishli pichoq kesim yuzasini yanada silliq qiladi, bir tishli pichoq esa juda ingichka kesimlar uchun ishlatiladi. Ular asosan **gistokimyoviy va immunogistokimyoviy bo‘yash** uchun to‘qimalarni tayyorlashda ishlatiladi.

3. Diamant pichoqlar

Diamant pichoqlar **eng qattiq to‘qimalarni**, masalan, suyak, tish yoki mineral modda tarkibidagi to‘qimalarni kesishda ishlatiladi. Ularning kesish qobiliyati yuqori, yuzasi silliq va uzoq muddat xizmat qiladi. Shu sababli, qimmat va uzoq muddatli ishlatish uchun mo‘ljallangan.

4. Rotatsion pichoqlar

Rotatsion pichoqlar **mikrotomning maxsus turiga** moslashtirilgan bo‘lib, u to‘qima blokini aylantirib kesishga imkon beradi. Bu turdagi pichoqlar **bir xil kesim olish** va jarayonni tezlashtirishda foydalidir.

5. Mikroto‘qimachilik uchun maxsus pichoqlar

Ba’zi mikrotomlar uchun **maxsus pichoqlar** ishlab chiqilgan bo‘lib, ular biologik materialning xususiyatiga mos keladi. Masalan, juda ingichka kesimlar, tezkor kesimlar yoki ultramikroskopik tahlil uchun ishlatiladi.

Xulosa: Mikrotom pichoqlarining to‘g‘ri tanlanishi to‘qima kesimining sifatini va mikroskop ostidagi morfologik xususiyatlarni saqlashni kafolatlaydi. Har bir pichoq turi o‘ziga xos vazifaga ega va to‘qima turiga mos ishlatilmasa, kesim sifati pasayadi va diagnostik xatoliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, mikrotom pichoqlarini tanlash va ishlatishda ehtiyotkorlik talab qilinadi.

Pichoqlarni tayyorlash va saqlash

Mikrotom pichoqlari mikroskopik tahlil sifatini belgilovchi asosiy vositalardan biri bo‘lgani uchun, ularni **to‘g‘ri tayyorlash va saqlash** juda muhimdir. Notog‘ri ishlatilgan yoki shikastlangan pichoq kesim sifatini pasaytiradi va diagnostik xatoliklarga olib keladi.

1. Ishlatishdan oldin tayyorlash

- Pichoqni ishlatishdan oldin uning **tozaligi va o‘tkirli**gi tekshiriladi.
- Pichoq yuzasida chang, yog‘ yoki fiksator qoldiqlari bo‘lmasligi kerak.
- Ba’zi pichoqlar ishlatishdan oldin **sterilizatsiya qilinadi**, ayniqsa, sud-tibbiy yoki infeksiyon material bilan ishlaganda.

2. Ishlatish paytida ehtiyotkorlik

- Pichoqni mikrotomga o‘rnatishda **barqaror va to‘g‘ri joylashtirish** muhim.
- Kesim jarayonida pichoqni **to‘g‘ri burchak va tezlikda ishlatish** kesim silliqiligi va birxilligini ta’minlaydi.
- Shikastlanish va jarohatlarning oldini olish uchun **qo‘l va yuz himoyasi vositalari** ishlatiladi.

3. Ishlatishdan keyin tozalash

- Pichoqdan foydalanilgandan so‘ng, u darhol **spirt, suv yoki maxsus tozalovchi eritmalar bilan tozalanadi**.
- To‘qima qoldiqlari va fiksator izlari yuzada qolmasligi kerak, chunki ular pichoqqa zarar yetkazadi va keyingi kesim sifatini pasaytiradi.

4. Mexanik shikastlanishdan himoya

- Pichoqni saqlash paytida **qattiq yoki keskin narsalarga tegmasligi** zarur.
- Pichoq yuzasini himoya qilish uchun **maxsus qoplamalar yoki konteynerlar** ishlatiladi.

5. Uzoq muddatli saqlash sharoitlari

- Diamant va metall pichoqlarni **quruq, sovuq va changsiz joyda** saqlash tavsiya etiladi.
- Uzoq muddat saqlashda pichoq yuzasiga **yengil yog‘ qoplamasi** qo‘yilishi mumkin, bu korroziyadan himoya qiladi.
- Pichoqlarni saqlashda ularni bir-biriga tegmasligi va silkinmasligi muhim.

Mikrotom pichoqlarining sud-tibbiy va diagnostik ahamiyati

Mikrotom pichoqlari gistologik va patobiologik laboratoriyalarda faqat kesim olish vositasi sifatida emas, balki **diagnostik va sud-tibbiy tekshiruvlarda ishonchli natijalar olishda** ham muhim ahamiyatga ega. Ularning holati va sifati mikroskop ostidagi to‘qima kesimining sifatini bevosita belgilaydi.

1. Diagnostik ahamiyati

Mikrotom pichoqlari yordamida olingan kesimlar:

- **To‘qimalarning morfologik xususiyatlarini saqlaydi**, shuning uchun patologik jarayonlarni aniqlash osonlashadi.
- **Bir xil qalinlikdagi kesimlar** olish orqali bo‘yash jarayoni samarali va mikroskopik ko‘rinish aniqligi oshadi.
- Diagnostik aniqlik oshgani sababli, kasallikning tabiati, og‘irligi va davolash strategiyasini belgilash osonlashadi.

2. Sud-tibbiy ahamiyati

Sud-tibbiy ekspertizalarda mikrotom pichoqlari yordamida olingan kesimlar:

- Murda yoki shikastlangan to‘qimalardan **to‘g‘ri mikroskopik tahlil** olish imkonini beradi.
- Fiksatsiya va kesim sifatining mukammalligi **huquqiy dalil sifatida materialning ishonchliligini** kafolatlaydi.
- Noto‘g‘ri yoki shikastlangan pichoqlar diagnostik xatoliklarga olib kelib, sud-tibbiy xulosalarning ishonchliligini kamaytiradi.

3. Ilmiy tadqiqotlar uchun ahamiyati

- Mikrotom pichoqlari yordamida **ingichka va silliq kesimlar** olinadi, bu esa ilmiy tadqiqotlarda aniq va ishonchli natijalar beradi.
- Hujayralarning tuzilishi, sitoplazma va yadrolarning holati saqlanadi, shuning uchun bo‘yash va immunogistokimyoviy tahlillar samarali bo‘ladi.

4. Noto‘g‘ri ishlatilgan pichoqlarning salbiy oqibatlari

- Kesim yuzasi **silliq bo‘lmaydi**, hujayralar deformatsiyalanadi.
- Bo‘yash jarayonida pigment bir xilda singmaydi, natijada **mikroskop ostidagi morfologik xususiyatlar buziladi**.
- Diagnostik va sud-tibbiy xulosalar **xato yoki ishonchsiz** bo‘lishi mumkin.

Xulosa: Mikrotom pichoqlari to‘qimalarni kesishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ularning sifatli ishlatilishi **diagnostik aniqlik, ilmiy tadqiqotlar natijasi va sud-tibbiy ekspertizalar** uchun asosiy shart hisoblanadi. Shu sababli, pichoqlarni tanlash, tayyorlash va saqlash qoidalariga qat’iy rioya qilish kerak.

Nazorat savollari

1. Mikrotom pichoqlari nima va ularning vazifasi qanday?
2. Mikrotom pichoqlari turlicha bo‘lishining sababi nima?
3. Diamant pichoq va yassi pichoq o‘rtasidagi farq nimada?
4. Pichoqlarni ishlatishdan oldin va keyin qanday tayyorlash talab qilinadi?
5. Pichoq sifati mikroskopik tahlil natijalariga qanday ta’sir qiladi?

6. Noto'g'ri ishlatilgan pichoqning diagnostik xulosalarga salbiy ta'siri qanday bo'ladi?
7. Sud-tibbiy ekspertizalarda mikrotom pichoqlarining ahamiyati nimadan iborat?

Test savollari

1. Mikrotom pichoqlarining asosiy vazifasi nima?
 - A. To'qima blokini kesishda morfologik tuzilishni saqlash
 - B. Faqat kesim yuzasini bezash
 - C. Bo'yash pigmentini tayyorlash
 - D. Hujayralarni yo'q qilish
2. Qattiq to'qimalar, masalan, suyakni kesishda qaysi pichoq ishlatiladi?
 - A. Yassi pichoq
 - B. Ikkita tishli pichoq
 - C. Diamant pichoq
 - D. Rotatsion pichoq
3. Kesim yuzasini silliq qilish uchun qaysi pichoq turi ishlatiladi?
 - A. Diamant
 - B. Yassi
 - C. Ikkita tishli
 - D. Mikroto'qimachilik uchun maxsus
4. Mikrotom pichoqlarini uzoq muddat saqlash uchun nima qilinadi?
 - A. Suvga botirib saqlash
 - B. Quruq va sovuq joyda, zarur bo'lsa yengil yog' bilan
 - C. Issiq xona
 - D. Kesimlar bilan birga
5. Notog'ri ishlatilgan pichoq qaysi muammo keltirib chiqaradi?
 - A. Diagnostik aniqlik pasayadi
 - B. Faqat vaqtni tejaydi
 - C. Rang o'zgaradi, lekin diagnostikaga ta'sir qilmaydi
 - D. Hech qanday oqibat bo'lmaydi
6. Rotatsion pichoqning afzalligi nimada?
 - A. Qattiq to'qimalarni kesishda
 - B. Bir xil kesim olish va jarayonni tezlashtirishda
 - C. Kesim yuzasini rang berishda
 - D. Diagnostik tahlilda hech qanday ahamiyati yo'q
7. Mikrotom pichoq ishlatilgandan keyin nima qilinadi?
 - A. Tozalash, quritish va mexanik shikastlanishdan himoya qilish
 - B. Faqat qoplash
 - C. Ishlatilmaydi
 - D. To'qima bilan birga saqlash

Vaziyatli masala 1

Vaziyat: Laboratoriyaga yangi olingan jigar biopsiyasi yetkazildi, lekin mikrotom pichoq'i notog'ri ishlatilgan va kesim yuzasi silliq emas.

Savol:

1. Bu holat mikroskopik tahlil natijalariga qanday ta'sir qiladi?
2. Kesim sifatini yaxshilash uchun qanday choralar ko'rilishi mumkin?

Vaziyatli masala 2

Vaziyat: Diamant pichoq ishlatilmagan holda suyak kesimi amalga oshirildi.

Savol:

1. Nima sababdan bu diagnostik aniqlikka salbiy ta'sir qiladi?
2. Bunday holatda qaysi pichoqni tanlash tavsiya etiladi va nima uchun?

Interfaol o'yin 1 – “Pichoq detektivi”

Qoidalar:

- Talabalar guruhlariga bo'linadi.
- Har bir guruhga turli mikrotom pichoqlari beriladi.
- Guruhlar pichoq turini aniqlaydi va u qaysi to'qima turiga mos kelishini tushuntiradi.
- Eng tez va to'g'ri javob bergan guruh baholanadi.

Ma'qsad: Mikrotom pichoqlari turlarini amaliy tarzda o'rganish va diagnostik tanlov ko'nikmalarini rivojlantirish.

Interfaol o'yin 2 – “Kesim mukammalligi”

Qoidalar:

- Guruhlar mikrotom yordamida **ingichka va silliq kesim olish** vazifasini bajaradi.
- Har bir guruh kesim sifati, pichoq turi va kesim yuzasining birxilligiga qarab baholanadi.
- To'g'ri va tezkor kesim olgan guruh g'olib bo'ladi.

Ma'qsad: Pichoqlarni to'g'ri ishlatish, kesim sifati va diagnostik aniqlikni amaliy ravishda o'rganish.

2.4.O'quv moduliga ajratilgan soat 2	Favqulodda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, tibbiy saralash bosqichlari.
---	---

Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologik modeli

Vaqt 80 daqiqa	Tinglovchilar soni:10-15ta
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	Nazariy mashg'ulot
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Favqulotda vaziyat tushunchasi. 2. Terminal holatlar 3. Qon ketish va qon to'xtatish usullari.
O'quv mashg'uloti maqsadi: 1.Ta'limiy : Tinglovchilarga nazariy bilimlarni olish va ularni mustahkamlash Amaliy ko'nikmalarni egallash Egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash Deontologik tarbiyaning shakllanishi Amaliyotda axloqiy javobgarlik hissi va aloqalarni tarbiyalash 2.Tarbiyaviy maqsadi Mutaxassislikka javobgarlik hissini shakllantirish Insonparvarlik va rahmdillilik hissini shakllantirish O'z bilimlarni kengaytirishga qiziqishni tarbiyalash Amaliyotda extiyotkorlik va e'tiborlilik xissini shakllantirish	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatini natijalari:
Mazkur modul Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari.Tibbiy saralash va triaj asoslari.Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari.Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar,uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. ko'nikmalarini shakllantiriladi.	Natijada Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish.Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmiqobiliyatiga ega bo'ladi.
O'qitish metodlari	“Baxs munozara” “Aqliy hujum “ usullari bilan ishlash
O'quv faoliyatini tashkil etish	Jamoaviy va guruxlarda ishlash

	,yakka tartibli
O'qitish vositalari	Doska ,videofilmlar, chizma,nazorat varoqlari,matnlar
Qayta aloqaning usul va vazifalari	Og'zaki so'rov, tezkor so'rovyozma so'rov test, misol,va mashqlar bajarilgan o'quv topshiriqlarini baxolash

Mashg'ulot uchun talab etiladigan vaqti 80 minut

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
<p>1-bosqich o'quv mashg'ulotiga kirish 10 daqiqa</p>	<p style="text-align: center;">Tashkiliy qism</p> <p>1 O'qituvchi sinfga kirib tinglovchilarning o'quv bo'limi tomonidan berilgan ro'yxat asosida tinglovchilar davomatini darsga tayyorligini tekshiradi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishni tasdiqlovchi tilxat oladi yangiliklar eshitaladi va aytiladi.</p> <p>2.O'quv mashg'ulotining mavzusi, maksadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi</p> <p>3.Dars davomida tinglovchilarni faollashtirish uchun qo'llaniladigan usullarni aytib o'yin qoidalirini tushintiradi.</p>	<p>Javob beradilar, tinglaydilar,yozib oladilar</p>
<p>2-boskich. Amaliy qism 65 daqiqa</p> <p>1.O'tgan mavzu bo'yicha tinglovchilar bilimni tekshirish va baxolash 20-25 daq</p> <p>2.Yangi mavzuni to'liq bayon etish 30-40.</p> <p>3.O'qitishning noan'anaviy usullarini qo'llagan xolda tinglovchilar bilimni mustaxkamlash</p>	<p>1.Tinglovchilarning bazaviy bilimlarini tekshirish maqsadida ulardan kirish testini olish.</p> <p>2.Yangi mavzu mazmunini o'qituvchi tomonidan "Ma'ruza o'qish" usulida tushuntiriladi. Tinglovchilarga "tezkor savol-javob" tarzida mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>Tinglovchilar bilimlarini eslab, test savollarigi javob beradilar. Savollarga aktiv javob beradilar. Yangi mavzu bayonini yozib oladilar. Tushinmagan joylarini savol tariqasida yo'llab javob oladilar."Baliq skeleti " sxemasi bo'yicha</p>

		tinglovchilar tomonidan to'ldiriladi
3-bosqich Yakuniy 5 daqiqa	Dars xulosalanib, aktiv qatnashgan tinglovchilar rag'batlantirilib, baxolar e'lon qilinadi . Uyga vazifa Favqulotda xolatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish mavzuni o'qib kelish. Tavsiya etiladigan adabiyotlar: 1.Birinchi shoshilinch tibbiy yordam bo'yicha qo'llanma." 2010 yil. 2.D. M. Sabirov, A. Z. Gazizov "Birinchi tibbiy yordam" 2017 yil.	Tinglaydilar, uyga vazifani belgilab oladilar

Mavzu: Favqulodda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, tibbiy saralash bosqichlari.

Dars rejasi:

1. Favqulotda vaziyat tushunchasi.
2. Terminal holatlar
3. Qon ketish va qon to'xtatish usullari.

Favqulotda vaziyat tushunchasi-Favqulotda vaziyat sharoit buzish va kishilar sog'lig'iga yoki atrof muhitga sezilarli moddiy yo'qotishlar , ijtimoiy tuzilmalarni barbod bo'lishiga yoki kishilar qurbon bo'lishiga olib kelgan yoki olib keladigan ofatlar yoki boshqa ofatlar , falokatlar natijasida yuzaga kelgan ma'lum hududdagi vaziyat.

Favqulotda vaziyat yuzaga kelgandagi havf.

1. Kishi hayotiga tahdid soluvchi havf.
2. Kishi sog'lig'iga tahdid soluvchi havf.
3. Hayot faoliyati sharoiti buzilishi.
4. Sezilarli moddiy yo'qotishlar.
5. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar.

Favqulotda vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari.

Favqulotda vaziyatlarni yuzaga kelish sabablari turlicha, ammo ularni quyidagi uchta guruhga bo'lish mumkin:

- Tabiat yaratgan sabablar.
- Ijtimoiy mazmundagi sabablar.
- Tabiat va kishi xatosi bilan birgalikda yaratilgan sabablar.

Favqulotda vaziyatlar tasnifi.

Favqulotda vaziyatlarni asosan 2 turga bo'lib tasniflash bo'ladi (chizmaga qarang). Tabiiy ko'rinishdagi FV va texnogen xususiyatga ega bo'lgan FV. Tabiiy ko'rinishdagi FV tayfun, uragan, suv toshqini, qurg'oqchilik, ko'chki, zilzila, sunami, vulqonlarning otilib chiqishi, epidemik kasalliklar va boshqalarni kamrab oladi. O'zbekistonda ko'chki, suv toshqini va epidemik kasalliklar uchrab turadi.

Tabiiy:

-Gidrometeorologik (tayfunlar, uraganlar, suv

-Qurg'oqchilik, kuchki

-Geologik (zilzilalar, sunami, vulqonlar va b. lar).

-Biologik (epidemiya (hayvonlar, o'simliklar orqali),

-Toksik moddalar bilan zaxarlanish, ovqatdan ommaviy zaxarlanish va boshqalar

Texnogen:

Texnika bilan bog'liq (transport avariylari, zavodlarda avariylar, yong'in va portlash xavfi bor obyektlarda sodir bo'lishi mumkin avariylar, radioaktiv avariylar va x.k.lar)

-Majmualiy ofatlar (terrorizm, irqiy majoralar, xarbiy harakatlar, ichki mojaralar, urush)

Shoshilinch yordam ko'rsatish va oila a'zolariga maslahatlar berish.

Terminal holatlar

Terminal holat deganda – organizmning o'lim bosqichlari tushuniladi Bu-a'zo va sistemalar mutanosib funksiyasi buzilishi natijasida gomeostazning o'zgarishi va buzilishidan kelib chiqadi.

Terminal holatga:

a) preagoniya

b) agoniya

v) klinik o'lim

Preagoniya – Ichki a'zolariga kislorod yetishmovchiligi natijasida kelib chiqadi. Bu xolat 5-10 sekunddan 3-4 minutgacha davom etadi.

Belgilari:

Asta sekin hushdan ketish. Nafas olishni o'zgarishi (avvaliga tez-tez, keyin yuzaki, keyin kam nafas olish). Qon aylanishini o'zgarishi (AQB past, puls tez-tez, keyin pasayadi). Teri qoplamalarini o'zgarishi (ko'karish, oqarish, nuqtalarni xosil bo'lishi)

Agoniya – organizmning so'ngi kompensator reaksiyasini ishga tushishi.

Belgilari: boshlanishida bemor AQB normallasadi, yurak urishi ko'payadi, nafas olish yaxshilanadi, xatto bemor bir necha soniyaga xushiga kelishi mumkin. Bemorni axvoli yaxshilanayotgandek tuyuladi va birdaniga AQB tushib ketadi, ipsimon puls, nafas olishini o'zgarishi, xushdan ketish kabi belgilar kuzatiladi. Bemorda og'riqni sezish, va boshqa bir qator reflekslar yo'qoladi. Agonal xolat bir necha minutdan bir necha soatgacha davom etishi mumkin va klinik o'lim bilan tugaydi.

Klinik o'lim - qon aylanish va nafas olish funksiyasi umuman to'xtagan, lekin, miyadagi asosiy hujayralar hali tirik bo'lib, bu holat 5-6 minut davom etishi

mumkin. Klinik o‘lim holatida - ko‘z qorachig‘i kengaygan, ularning yorug‘likka reaksiyasi yo‘q, teri qoplamlari rangi o‘zgargan, tonik (sudorogi) harakatlar kuzatiladi. Keyin orqaga qaytmas holat - biologik o‘lim sodir bo‘ladi.

Yurak urushi va nafas olish to‘xtaganda jonlantirish choralari.

Yurak O‘pka Reanimatsiyasi.

Baxtsiz xodisalar tufayli bemor xushini yo‘qotganda, unda nafas va yurak ritmining to‘xtab qolishi kuzatiladi. Shunday xollarda nafas yo‘llarini o‘tkazuvchanligini ta‘minlash va qon aylanishini yaxshilash, o‘pkaga sun‘iy nafas berish, yurakni bilvosita massaj qilishga qaratilgan tadbirlar kompleksiga “Yurak o‘pka reanimatsiyasi” deyiladi. Asosiy tadbirlarni “AVS” ketma-ketligida bajarish mumkin.

A-nafas yo‘llarini utkazuvchanligi

V-nafas berish

S-sirkulyatsiyani yaxshilash

Birinchi navbatda yordam ko‘rsatuvchi o‘z xavfsizligini ta‘minlashi kerak. Shundan so‘ng bemorning xayot ko‘rsatkichlari, ya‘ni es-xushi, ko‘z qorachiqclarini yorug‘likka reaksiyasi, reflekslari, nafas olishi xamda yurak urishini tekshirib ko‘riladi. Bemorni qattiq yuzaga yotqizib, siqib turgan kiyimlari bo‘shatiladi. Shundan so‘ng 1 chi bosqichda kirishiladi;

A- nafas yo‘llarini o‘tkazuvchanligini ta‘minlash.

Buning uchun avvalambor bemorning bo‘yin umurtkasi tekshirib olinadi. Shundan so‘ng bemorni boshini orqaga engashtirib chalqancha yotqiziladi, pastki tishlar yuqoridagi tishlardan bir oz chiqib turadigan qilib pastki jag‘ oldinga suriladi. Shundan so‘ng og‘iz bo‘shlig‘i tekshirib ko‘riladi. (shilimshiqlar, ovqat luqmalari, protezlardan tozalanadi). Og‘izga salfetka qo‘yiladi. Bu ishlarni tez, shikast yetkazmay, extiyotlik bilan bajarish lozim. Nafas yo‘llari ochilganligiga ishonch xosil qilingach 2 bosqichga o‘tiladi:

V- og‘izdan og‘izga yoki og‘izdan burunga sun‘iy nafas berish.

Sun‘iy nafas berishni yurakni bilvosita massaj qilish bilan birga bajariladi.

S-gon aylanishini ta‘minlash - I-yordam beruvchi bemorni burnini chap kuli bilan berkitib chuqur nafas oladi va bemorni og‘ziga sun‘iy nafas beradi. II-yordam beruvchi esa, qo‘l kaftlarini ustma ust qilib, bemor xanjarsimon o‘simtasidan 2 barmoq yuqoriga qo‘yadi. Tirsaklarini bukmasdan butun tana vaznini og‘irligi bilan yurakni massaj qiladi. Bunda yurak to‘sh bilan umurtqa pog‘onasi o‘rtasida siqila boshlaydi va qon yurakdan xaydaladi.

BELGILARI	kattalar	1-8yoshgacha	1yoshgacha	Yangi tug‘ilgan chaqaloklar
Ko‘krak qafasini bosish soni	1min 100martadan kam bo‘lmasligi kerak			
1min.nafas olish tezligi	Xar 6-8 sekund1nafas (1min. 8-10 nafas)			30 nafas

Bosish chukurligi	5 smdan kam emas	5smgacha	4smdan kam emas	1,5-2,0sm.
Yurak massaji vaqtida xolati	qo'lar	Xanjarsimon o'simtadan 2ki barmoq yuqoriga kaftni kaft ustiga kapalak simon qo'yiladi	Xanjarsimon o'simtadan 2ki barmoq yuqoriga 1- qo'lning kafti qo'yiladi	So'rg'ichlar orasiga 2ta barmok qo'yiladi
Sun'iy nafas va yurak massajining nisbati	30:2 (1yoki 2 kishi)	30:2(1yoki 2 kishi) 15:2(2 kishi)		3:1 15:2

Behushlikda birinchi yordam berish

Behushlik (obmorok) - bosh miyaning daf'atan kamqon bo'lib qolishi, bunda odam qisqa vaqt o'zini bilmay qoladi. Obmorok - o'tkir qon tomirlar yetishmovchiligiga aytiladi.

№	Muolaja bajarish algoritmi	Muolajani asoslab berish
1	Bemorni tekis joyga oyoqlarini ko'tarib yotkiziladi.	Miyaga qon okib kelishi uchun.
2	Siqib turgan kiyimlar bo'shatiladi.	O'pkada havo aylanishini yaxshilash uchun
3	Toza havo bilan ta'minlash	Miyada gipoksiyani oldini olish uchun.
4	Bemor yuziga va tanasiga sovuq suv sepiladi, piyoz va novshadil spirti hidlatiladi. Bemorni quloq suprasini massaj qilish kerak. Oyog'iga grekla qo'yiladi. Shirin choy ichiriladi.	Bu bilan nafas olish va yurak qon tomir markazi kuzg'atiladi. Periferiyadagi qon aylanishini yaxshilaydi
5	Kordiamin - 25%-1,0-2,0 ml t/o, Kofein 10%-1,0 ml t/o	Markaziy asab tizimini ko'zg'atish xususiyatga ega.

Kollapsda birinchi yordam

Kollaps-arterial bosimning keskin pasayib ketishi va periferiyada qon aylanishining dag'al suratda izdan chiqishi bilan xarakterlanadigan o'tkir qon tomirlar yetishmovchiligidir.

№	Muolaja bajarish algoritmi	Muolajani asoslab berish
1	Bemorni tekis va qattik joyga boshini osiltirib yotqiziladi	Miyaga qon oqib kelib – gipoksiyani oldini olish uchun
2	Siqib turgan kiyimlar bo'shatiladi.	Nafas olishni yengillashtirish

		uchun
3	Toza havo bilan ta'minlash	Gipoksiyani oldini olish uchun
4	Tomirni toraytiruvchi dori vositalari yuboriladi Mezaton 0.1% - 0,1 ml yoshiga nisbatan teri ostiga yoki Noradrenalin 0.1% teri ostiga, 0,1 ml yoshiga nisbatan yoki Adrenalin 0.1% - 0,1 ml yoshiga nisbatan teri ostiga	Qon tomirini toraytirib, qon bosimini ko'taradi.
5	Vena ichiga qon o'rnini bosuvchi vositalar quyish – qon bosimini nazorati ostida	Qon tomirlarini qonga to'ldiradi va qon bosimini oshiradi

Shok- ingliz tilidan tarjima qilinganda “turtki” (tolchok) manosini bildiradi. Shok turlari: travmatik, kardiogen, infeksiyon-septik, anafilaktik, gipovolemik, neyrogen va psixik.

Sabablari:	Belgilari:
<ul style="list-style-type: none"> - Ko'p miqdorda suyuqlik yo'qotish (qon ketishi, diareya, qayt qilish, kuyishlar) - Elaktr travma - Kuchli og'riq - Allergik reaksiyalar, - Infeksiya - Issiqlik yoki sovuq ta'siri - Intoksikatsiyalar - kuchli ruxiy stresslarda 	<ul style="list-style-type: none"> - Besaramjonlik, xavotir, rangpar, sovuq, nam teri, kuchli chanqash, ko'ngil aynashi, qayt qilish, kuchsiz, tez-tez tomir urishi, AQB pastga tushishi, yuzaki tezlashgan nafas, bosh aylanishi, asta sekin xushni yo'qotish.

Shokda birinchi yordam berish (keltirib chikaruvchi sababga ko'ra)

Shok hayot uchun o'ta xavfli holat bo'lib shok sababchisi turlicha bo'lishi mumkin.

№	Muolaja bajarish algoritmi	Muolajani asoalab berish
1	Bemorni boshi pastroq qilib yotqiziladi.	-gipoksiyani oldini olish uchun.
2	Shokni keltirib chiqqan sababini aniqlash.	-to'g'ri yordam berish uchun.
3	Bemorni isitish kerak.	- periferiyadagi qon aylanishini yaxshilash uchun.
4	Tinchlik va toza havo bilan ta'minlash.	-bemorni ahvolini yaxshilash uchun.
5	Agar bemor yuta olsa, oz-ozdan suyuqliklar	-suvsizlanishni oldini olish

	berish kerak.	uchun.
6	Og'riqni qoldirish uchun quyidagi dori vositalarini yuborish mumkin: analgin 50%-0,1 ml yoshiga nisbatan, m o; •yoki promedol 2%-1,0-2,0 ml, m o; •yoki morfin 1%-0,5-1,0 ml t o;	-og'riqni kamaytirish uchun.
7	Bemorga qilingan muoalajalar yordam bermasa, tez yordamga murojat qiling.	-malakali tibbiy yordam ko'rsatish uchun.

Elektrdan shikastlanganda birinchi yordam

Zudlik bilan elektr toki ta'sirini to'xtatish lozim. Shikastlangan kishi, ko'pincha, usti ochiq simni ushlab olib, muskullari qisqarganidan uni qo'yib yubora olmaydi. Shuning uchun tezda elektr tokini o'chirish yoki uning iloji bo'lmaganda shikastlangan kishini toq o'tmaydigan narsalar yordamida tortib olish lozim bo'ladi. Bunda elektr tokini o'tkazmaydigan rezina qo'lqop, kalish yoki etik, jundan tayyorlangan ko'rpalar ipak gazlamalar, quruq yog'ochdan foydalanish zarur. Nafas olish yoki yurak urishi to'xtasa, sun'iy nafas oldirish va yurakni massaj qilish kerak bo'ladi.

Suvga cho'kkanda birinchi yordam

Cho'kayotgan kishini qutqarib olishda juda ehtiyot bo'lish zarur. Uning orqasidan suzib borish kerak. Sochidan yoki qo'ltig'idan ushlab uning yuzini yuqoriga qaratib, tortib ketishiga yo'l qo'ymay qirg'oq tomonga suzish kerak.

Birinchi yordamni u suvdan chiqarilgandan boshlash kerak. Qutqarilgan kishining tizzasini bukib, u qorni bilan yotqiziladi, bunda uning boshi ko'krak qafasidan pastda bo'lishi kerak (quyida keltirilgan rasmga qarang). So'ngra ko'krak qafasini bosadigan qattiq harakatlar bilan traxeya va bronxlardagi suvni chiqarishga harakat qilinadi. Havo o'tadigan yo'llardan suv chiqarilgandan so'ng, shikastlangan kishini tekis joyga yotqizib, nafas olish to'xtab qolgan taqdirda ma'lum usullardan biri (og'izdan-og'izga yoki burundan – burunga) bilan daqiqaga 16-18 martadan sun'iy nafas oldirishga kirishiladi. Yurak faoliyati to'xtaganda massaj qilish zarur.

Sovuq urishi

Sovuq urishi - tanaga past harorat ta'sir etganda kelib chiqadi.

Bunda bemor a'zolarini noqulay sharoitlarda ho'l, tor poyabzal kiyish, holdan toyish, 40°Sda hatto, bundan yuqori haroratda ham sovuq urishi mumkin. Ko'pincha, qo'l va oyoqlarning barmoqlari, quloq va burun uchini sovuq uradi.

Sovuq urishning 4 ta darajasi bo'ladi.

Birinchi yordam ko'rsatishda bemor issiq xonaga yotqiziladi. Unga issiq choy, yurak faoliyatini yaxshilovchi va og'riq qoldiruvchi dorilar beriladi. Bemorni vannaga tushirib suv harorati 18-20°S dan asta-sekin 37°S gacha ko'tariladi. Vannada qon ta'minoti, sezuvchanlik tiklangunga qadar ehtiyotlik bilan massaj qilish lozim. Oyoq yoki qo'l terisi spirt bilan artiladi va unga qalin doka bog'lab qo'yiladi.

Mahalliy va umumiy davolash ishlari olib boriladi.

Koma

Koma - behushlik holati bo'lib, markaziy nerv sistemasining endogen, ekzogen patologik ta'sirotalar natijasida bosh miya reflektor faoliyatining tormozlanishidir.

Komaning turlari ko'p:

1. Uremik koma. Buyraklar ish faoliyati buzilishi natijasida qonda mochevina va kreatinin miqdorining oshib ketishi natijasida bo'ladi.
2. Diabetik koma. Oshqozon osti bezi faoliyati buzilganda qondagi qand miqdori oshib ketishi - giperglikemik, kamayib ketsa - gipoglikemik koma deb aytiladi.
3. Travmatik, termik, anafilaktik, epileptik komalar ham bo'ladi.

Kuyish

KUYISH bu - yuqori temperatura, kimyoviy moddalar, nurlanish yoki elektr toki ta'sirida to'qimalarning jarohatlanishi. Shuning uchun kuyish tasnifida 4ta etiologik faktor e'tiborga olinadi.

Teri kuyishi kuyishning 90-95% tashkil qiladi. Kuyish ta'sirida organizimda yuzaga keladigan patologik holatga – kuyish natijasidagi kasallikka « kuyish kasalligi» deyiladi.

Buning 4ta bosqichi bor:

1. kuyish natijasidagi shok.
2. kuyish natijasidagi o'tkir toksemiya.
3. o'tkir septikotoksemiya
4. rekonvalissensiya.

Kuyish natijasida kasallikning og'irlik darajasi-kuygan maydonning kengligi va chuqurligi bilan belgilanadi.

Kuyishning 4 darajasi bor(epidermis-o'suvchi qavat, derma- chuqur qavat). 1, 2 va 3A darajada kuyish yuzaki deyiladi, chunki terining epidermis qavatigina zararlanadi. 3B va 4 daraja kuyish chuqur kuyish deyiladi, bunda terining epidermis va derma qavatlari ham kuyadi va teri o'zi o'smaydi, shu yer biriktiruvchi to'qima bilan qoplanib chandiqlik hosil bo'ladi.

1 darajali kuyishda - giperimiya, shish, achishish bo'ladi.

2 darajali kuyishda - unchalik tarang bo'lmagan pufakchalar hosil bo'lib, uning atrofi giperimiyalangan bo'ladi.

3A darajali kuyishda- katta, suyuqligi ko'p yoki jelesimon, pufakchalar bo'lib, yorilsa tagi pushti rangli bo'ladi.

3B darajali kuyishda - gemorragik suyuqlik bilan to'lgan, yorilganda to'q kulrang iz qoldiruvchi pufakchalar hosil bo'ladi. (qon tomirlar trombozi, to'qima oqsillari koagulyatsiyasi hisobiga).

4 daraja kuyishda - kuygan yer jigarrang yoki qora, kartonga o'xshab qolgan.

Kuygan yer kengligini kaft bilan o'lchash mumkin, kuygan soha 1 ta bemor kaftiga teng bo'lsa, 1% ga to'g'ri keladi.

Uollsning 9 lik qoidasi:

1. Bosh-bo'yin - 9%
2. Xar bir qo'l - 9% +9%=18%
3. Tananig old qismi –18%
4. Tananing orqa qismi - 18%
5. Xar bir oyoq –18% + 18% =36%

6. Tashqi jinsiy a'zolar-1%

Umumiy maydon == 100 %

Tez tibbiy yordam ko'rsatish

1. Kimyoviy kuyish bo'lsa 10-15 min oqib turgan suvda yuvish kerak.
2. Quruq steril salfetka bilan yopiladi, steril salfetka bo'lmasa toza mato yopiladi, gospitalizatsiya qilinadi.
3. Og'riq qoldirish uchun –promedol, amnophon, morfin, analgin m/o yuboriladi.
4. Desensibilizatsiyalovchi antigistamin preparatlar-dimedrol, suprastin, v/m agar stasionarga yotqizishgacha 1 soatdan ortiq vaqt ketsa, plazma o'rnini bosuvchi suyuqliklar beriladi 800-1200ml
5. Shokka qarshi choralardan biri issiq choy yoki kofe, ishqoriy mineral suv.
6. Ichida elektrolitlari bo'lmagan suyuqlikni 0,5 l dan ortiq bermaslik kerak, chunki – suvli intoksikatsiyaga sabab bo'ladi.

Kuygan kishiga birinchi yordam ketma-ketligi kuyish sodir bo'lgan yerda amalga oshiriladi:

ta'sir etayotgan issiqlikni to'xtatish

kuygan yerni sovutish

og'riq qoldirish.

kuygan soxa ustini steril mato bilan bekitish.

zudlik bilan kasalxonaga yetkazish

TRANSPORTIROVKADAN oldin – og'riq qoldirish (neyroleptik), antigistamin preparatlar.

Transportirovkada – ingalyatsion anestyeziya, plazma o'rnini bosuvchi suyuqliklar, ishqoriy suyuqliklar berish.

Maxalliy davolash, shokning oldi olingandan keyin qilinadi. Birlamchi xirurgik tozalash – obrabotka spirt bilan yoki 0,25 % ammiak eritmasi bilan artiladi.

Kuygan soxa 2 usulda davolanadi:

- ochiq usul – maxsus karkas, unga lampochkalar o'rnatilgan bo'ladi.

- yopiq usul – bog'lamlar qo'yish bilan, bunda 5-10% sintomitsin emulsiyasi, 0.5% furatsilin mazi, 10% anestizin mazi birlamchi obrabotkadan keyin 6-8 sutkaga bog'lab qo'yiladi, agar kuygan joy yiringlagan bo'lsa:

Agar yiringli yallig'lanish bo'lsa 0,02% furatsilin eritmasi, 0,5% kumush nitrat.

3B darajadagi kuyish bo'lsa, qonservativ davolash bog'lashlar bilan o'tadi. Chuqur kuyishlarda operatsiya bilan davolanadi.

1. nekrotomiya

2. nekroektomiya

3. teri plastikasi.

QON KETISH

Qon qayerdan ketishiga qarab: arteriya, vena, kapillyar va parenximatoz organlarga ajratiladi.

Birlamchi – (jarohatdan keyin qon ketishi) va ikkilamchi – (qon ketish to'xtagandan keyinroq – operatsiya va boshqa hollarda) qon ketishlari hamda tashqariga (qon tomirlardan tashqariga ketishi) va ichkariga (qorin bushlig'iga, plevra bo'shlig'iga, oshqozon, ichaklarga...) qon ketishlar bo'ladi.

Qon ketishni to'xtatish

Qon ketishni to'xtatish:

Vaqtincha.

Uzil – kesil bo'lishi mumkin.

Qon ketishni vaqtinchalik to'xtatish

Bir qancha usullari mavjud:

1. Bosib turuvchi bog'lam. Bu usul vena va kichikroq arteriyalardan qon oqishida uni vaqtincha to'xtatish uchun qo'llaniladi. Bunda steril doka bir necha qavat qilib qonayotgan sohaga qo'yiladi va ustidan yana steril doka bilan mahkam o'raladi.

2. Oyoq-qo'lni bo'g'imidan bukish. Taqim, chov, son, yelka arteriyasi, chov bo'g'imidagi son arteriyalari jarohatlanganda yuz beradigan qon oqishini, ba'zan oyoq-qo'lni maksimal bukish yoki bog'lab tortib qo'yish yo'li bilan to'xtatish mumkin.

3. Jarohatda tomirni bosib turish. Qo'lga steril qo'lqop kiyiladi va spirt, yod bilan artiladi. Ko'rsatkich barmoq jarohatga kiritilib, sizib chiqayotgan qon tomiri bosilib, to'xtatiladi.

4. Jarohatni zich tamponlash. Buning uchun tampon olinib, jarohatga birin-ketin va zich qilib biriktirish orqali qon to'xtatiladi. Odatda, bu usul burundan qon ketganda qo'llaniladi.

5. Qonab turgan tomirga qisqich qo'yish. Oyoq-qo'l, chanoq, qorin bo'shlig'ida chuqur joylashgan tomirlardan oqayotgan qon qisqich qo'yib to'xtatiladi.

6. Tomir bo'ylab bosib turish. Bu usulda ayrim yirik arteriyalardan oqayotgan qonni to'xtatishga tomirga yaqin joylashgan nuqtalar orqali suyaklarga bosish yo'li bilan erishiladi.

7. Jgut bog'lash. Bu ayniqsa, arterial qon ketishni to'xtatishda asosiy usul hisoblanadi. Arterial qon ketishida jgut jarohatga nisbatan markaziy tomonga qo'yiladi. Jgut bog'lashdan oldin terini qisib qo'yimaslik uchun oyoq yoki qo'lga sochiq, bint o'raladi. Jgut cho'zilib, oyoq yoki qo'l atrofida aylantiriladi. Jgut o'ramlarining kesishmay, balki yonma-yon joylashishiga e'tibor berish zarur. Jgut uchlari mahkamlanadi va uning o'ramlaridan birining tagiga yozilgan qog'oz qistirib qo'yiladi. Jgut 2 soatdan ortiq qo'yilmasligi kerak, aks holda anaerob infeksiyalar rivojlanishiga va to'qimalar o'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Arteriyaga qo'yilgan jgut to'g'ri bog'langanda oyoq yoki qo'lning undan chetroqdagi qismi oqaradi, jgutdan pastda puls yo'qoladi, qon oqishi to'xtaydi.

Qon ketishini uzil-kesil to'xtatish

Mexanik, fizik, kimyoviy va biologik usullari mavjud.

Bunda tomirlar ushlab olinib, yoki tikiladi. O'sha joyga muzli xaltacha qo'yiladi, bu usul asosan, kapillyarlardan qon ketganda qo'llaniladi.

Elektrokoagulyatsiya – elektrokoagulyator yordamida qon ketib turgan mayda tomirlar koagulyatsiya qilinadi. Ayrim vaqtlarda issiq fiziologik eritmadan ham foydalaniladi.


Tomirlarni toraytiruvchi, qon ivish tizimiga ta'sir qiluvchi vositalar beriladi. Gemostatik vositalarni mahalliy va umumiy qo'llash mumkin. Qon, uning elementlari, plazma quyish ham yaxshi natija beradi.

O'tgan kun mavzusini qaytarish uchun savollar.

1. Yurak qon-tomir kasalliklarining xavfli omillarini baholash kartasiga kiritilgan yuqumsiz kasalliklarning xavfli omillarini aytib bering?
2. Yurak qon-tomir kasalliklarining xavfli omillarini stratifikatsiyasida (guruhlariga bo'lish) e'tiborga olinadigan mezonlarni sanab bering?
3. Ayollar uchun bel aylanasing(BA) qaysi ko'rsatkichi yuqumsiz kasalliklarning xavfli omili bo'la oladi?
4. Erkaklar uchun bel aylanasing qaysi ko'rsatkichi yuqumsiz kasalliklarning xavfli omili bo'la oladi?
5. Yurak qon-tomir kasalliklarining xavfli omillari nimani anglatadi?
6. Qaysi turdagi patsiyentlarni olib borish uchun ushbu klinik protokollardan foydalanish kerak?
7. AG ning darajalarini sanab bering?
8. MI qanday kasallik?
9. Stenokardiyaning klinik belgilarini aytib bering!
10. MI da xurujida hamshiralik parvarishi ketma ketligini sanab bering
11. Yurak qon tomir kasalliklarida qanday tekshiruvlar qo'llaniladi
12. AG ning asosiy klinik belgilarini aytib bering.
13. Yurak qon tomir kasalliklarida qanday maslahatlar beriladi?



«Ролли ўйин» методининг тузилмаси



TIBBIY ATAMALAR

- 1.Reanimatsiya-jonlantirish.
- 2Nekroektomiya
- 3.Elektrokoagulyatsiya.
- 4 Uremik koma

TEST SAVOLLARI

1. Nafas va yurak to‘xtagandan so‘ng necha daqiqagacha tiriltirish mumkin?

- A) * 5-6 daqiqagacha
- B) 10-20 daqiqagacha
- V) 8-9 daqiqagacha
- D) 30-40 daqiqagacha
- E) 60 daqiqagacha

2. O‘pka-yurak reanimatsiyasi 1 kishi bulganda kandy nisbatda o‘tkaziladi?

- A) 31:4
- B) 30:2
- V) 16:2
- D) * 2:30
- E) 22:2

3. Nafas to‘xtaganda sun’iy nafas berishda necha marta 1 daqiqada nafas beriladi?

- A) * 16-20 marta
- B) 10-12 marta
- V) 40-50 marta
- D) 20-30 marta

E) 5-6 marta

4. Yurak to'xtaganda yopiq uqalashda 1 minutda yurak necha marta uqalanadi?

- A) 20-30 marta
- B) 60 marta
- V) 76 marta
- D) *80-90 marta

5. Koma xolati deb nimaga aytiladi?

- A) Og'ir xolat bo'lib, bemorning es-xushi yo'q, reflekslar bo'lmaydi
- B) Bemorning xushi joyida, lekin tormozlangan bo'ladi
- V) Bemor xushi kirdi-chiqdi bo'ladi
- D) Bemorning xushi joyida, lekin yurak faolyati buzilgan
- E) Bemorning xushi joyida bo'lib, nafas faolyati buzilgan bo'ladi

6. Gipoglikemik komada reanimatsiya tadbirlari.

- A) Insulin 20 TB yuborish
- B) Insulin 40 TB Yuborish
- V) * Glyukoza 40%-40,0 venaga yuborish
- D) Laziks 4,0 muskul orasiga
- E) Poliglyukin tomchilab venaga quyish

7. Giperglekemik- diabet komasida qon taxlilida nima aniqlanadi?

- A) Leykotsitoz
- B) Neytrofilyoz
- V) Y-xujayralar
- D) Keton tanachalari
- E)* Qand miqdorining oshib ketishi

8. Qanday shok bo'lmaydi?

- A) Kuyish shoki
- B) Travmatik shok
- V) Postgemorragik shok
- D)*Giperglikemik shok
- E) Elektroshok

9. Gipertermiya xolati nima?

- A)*Tana xaroratining keskin ko'tarilishi
- B) Tana xaroratining 10 ga ko'tarilishi
- V) Tana xaroratining tushib ketishi
- D) Tana xaroratining normal xolatdaligi
- E) Tana xaroratining 350 ga tushib ketishi

10. "Cho'kishda " birinchi reanimatsiya tadbirlari qanday tartibda bo'ladi?

- A)*Bemorni tezda yotqizib sun'iy nafas va yurak uqalash o'tkaziladi
- B) Bemorning nafas yo'llaridan suv tushirilib, so'ngra reanimatsiya tadbirlari qilinadi
- V) Bemorning tili tortilib, so'ngra reanimatsiya tadbirlari o'tkaziladi.

- D) Bemorni yuqori nafas yo'ldan suv tushirilib, so'ngra sun'iy nafas beriladi
- E) Yuragi defibrilyatsiya qilinadi

Vaziyatli masalalar

Masala:№1

Bemor 48 yosh ogir xolatda tushdi, shikoyatlari bugilishga, xavo yetishmovchilikka. Bemorda bezovtalik, gapirishga va nafas olishga kiyinlashishiga.

Obyektiv: teri koplamlari okish rangda, terlagan. Perkusiyada upka ustida kuchaygan nafas fonida gijillovchi va xushtaksimom xirillashlar eshtiladi. Nafas aktida yordamchi mushaklar ishtirok etmokda. Yurak tonlari bugiklashgan AKB-150/90 m.s.u.

Rs-110 min. ritmik. Taranglashgan. EKG-da sinusli ritm, taxikardiya.

SAVOL:

- 1) sizning taxminiy tashxisingiz?
- 2) tekshirish usullari?
- 3) Algoritm xarakatlari?

Masala:№2

Bemor 27 yosh shikoyatlari xolsizlik tinch xolatda nafas kisishiga, Balgamli yutal, tana xaroratini 38°s gacha oshishiga. Anamnezidan 3 kundan beri kasal, Kasallikni sovuk kotish bilan boglaydi.

teri rangpar, lablari kirgogida gerpetik toshmalar, NOS-36 min.

Obyektiv: ung kukrak kafasi nafas aktida orkada koladi.

Ung upka pastki bulagi perkusiyada bugiklashgan. Auskultatsiyada ung pastki bulaklarda susaygan, nam xirillashlar. AKB-140/ 90 msu, Rs-112 min.

EKG - metabolik o'zgarishlar.

SAVOL:

- 1) sizning taxminiy tashxisingiz?
- 2) tekshirish usullari?
- 3) Algoritm xarakatlari?

Masala №3

Bemor osilgandan 15 minut utgach reanimatsiyaga olib kelindi. Obyektiv: koma, nafas olishi kamaygan (1012), stridoroz nafas, bradipnoe, arterial gipertenziya.

SAVOL:

1. Taxminiy diagnozingiz.

2. Asosiy tekshirish usullari.
3. Xarakatlar algoritmi.

Masala №4

Bemor 48 yosh. Shikoyatlari chankash, ogzi kurishi, kungil aynishi, ishtaxa yukligi, umumiy bexollikka. 20 yil davomida kandli diabetom I tipii bilan ogrigan.

Obyektiv: terisi kuruk, turgori pasaygan. Nafas soni 24 marta min., AB 110/60 mm sim ust., puls 110 marta min. Analizlarida: glikemiya 22,0 mmol/l, siydikda keton tanachalari +, K⁺2,8 mmol/l, Na⁺118 mmol/l.

SAVOL:

1. Taxminiy diagnozingiz.
2. Gomeostaz buzilish turini kursating.
3. Xarakatlar algoritmi.

Nazorat savollar:

- 1.Yurak upka reanimaiyasi nima degani?
- 2.Yurak upka reanimatsiyasi kaday xolatlarda bajariladi?
- 3.Yurak upka reanimatsiyasini bajarishdan oldin bemorlarda kaday kursatkichlarni aniklab olish zarur?
- 4.Yurak upka reanimatsiyasini bajarish ketma-ketligini bilasizmi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.D.M.Sabirov, A.Z.Gazizov “Birinchi tibbiy yordam” o‘quv qo‘llanma Toshkent-2017y
- 2.Ye.G.Kallaur, M.I.Kolb,I.V.Yaromich. Minsk 2009 y. 7,15-18,20-23,28 betlar.
- 3.“Xamshiralik ishi protokollari”.

